

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SOLIQNI PROGNOZ QILISH

FANIDAN

MA'RUZA MATNLARI TO'PLAMI

TOSHKENT-2005

SOLIQNI PROGNOZ QILISH

fanidan ma'ruza matnlari to'plami

--T.: TMI, 2005. – 168-bet

Annotatsiya

Mazkur ma'ruza matnlari to'plamida «Soliqni prognoz qilish» fanining predmeti va vazifalari, soliq tushumlarining tahlili, soliqqa tortiladigan baza va uning elementlari, soliq to'lovchilarning guruhlarini, soliq turlari bo'yicha prognozlash, soliq organlarida prognozni tashkil etish, soliq tushumlari hisobi va nazoratini yuritish kabi masalalar keng yoritilgan.

Ushbu ma'ruza matnlari to'plami, avvalo, 340000 -“Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasining 5340800-«Soliqlar va soliqqa tortish» bakalavriat yo'nalishlari uchun mo'ljallangan.

Mazkur ma'ruza matnlari to'plami «Soliqlar va soliqqa tortish» kafedrasida majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

2005 yil 2 iyul 14-sonli majlis bayoni.

**«Soliqlar va soliqqa tortish»
kafedrasida mudiri:**

dots. A. Jo'raev

Mazkur ma'ruza matnlari to'plami institut qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

2005 yil 7 iyul 4-sonli majlis bayoni.

Rektor v.b.: **prof. A. Vohobov**

Tuzuvchilar: **dots. A. Jo'raev**
 k.o'q. H. Abdullaev

Taqrizchilar: **dots. O. Sobirov**
 dots. H. Jamolov

TMI, 2005

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIIYa INSTITUTI

SOLIQNI PROGNOZ QILISH

fanidan

ma'ruza matnlari to'plami

TOSHKENT-2005

1-mavzu: Soliqni prognoz qilish fanining predmeti va vazifalari. Soliq tushumlarini prognozlash (2 soat)

Reja:

1. Soliqni prognoz qilish fanining maqsadi va vazifalari.
2. Soliqlarni prognoz qilishning zarurligi va mohiyati.
3. Byudjet daromadlarini shakllantirish, iqtisodiyotdagi nomutanosiblikni bartaraf etishda tahlil natijalaridan foydalanish.

1. Soliqni prognoz qilish fanining maqsadi va vazifalari.

Respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar -agrar, mulkiy munosabatlar, tashqi iqtisodiy, moliya-kredit tizimi va sotsial sohalarda tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu islohatlar orasida moliya-kredit tizimini isloh qilish alohida rol o'ynaydi. Chunki, jamiyatni barcha sohalari faoliyati pulli munosabatlar bilan bevosita bog'liqdir, vaholanki, pulli munosabatlarni samarali ishlash mexanizmi o'z navbatida boshqa sohalarga bevosita ta'sir etadiki, bu moliya-kredit tizimini jamiyat iqtisodiy tizimidagi o'rni naqadar yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir»-deb nomlangan ma'ruzasi «Bugun hayotning o'zi soliqlar adresli bo'lishini taqozo etmoqda. Soliq to'lovchi nima uchun va qancha soliq to'lashi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmoqi darkor. Bu o'rinda asosiy yuk tabiiy, mineral-xom-ashyo, er-suv va boshqa zaxiralardan tejamkorlik bilan va oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi resurs soliqlariga tushishi lozim»- degan edi.¹

Prezidentimizning yuqorida keltirilgan fikrlari byudjet daromadlarini shakllantirishda va iqtisodiyotni boshqarishda soliqlarni prognoz qilish hozirgi kundagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri ekanligini harakterlaydi.

Soliklar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning asosiy manbai xisoblanadi. Bu masalani echish solik tushumlarining ob'ektiga solik bazasiga bog'lik.

«Soliqni prognoz qilish» fanining predmeti soliklar va yigimlar tushumini, solikka tortiladigan baza va uni tashkil etuvchi elementlarning rivojlanishi tendentsiyasini chukur urganish va shu asosda byudjet tushumlari ob'ektlarini xar birini aloxida, shuningdek ularning umumiy xajmini ma'lum davr uchun prognozlash (istikbolini kurish).

«Soliqni prognoz qilish» fanining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Tuman va hududlar bo'yicha asosiy daromad turlariga doir yillik tushumlarni prognoz qilish;
2. Asosiy daromad turlari bo'yicha oylarga bo'lgan xilda choraklik tushumlarni prognoz qilish;

¹ I.A.Karimov «Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir»- T: «O'zbekiston» 2005 yil 89 bet

3. Prognoz hisob-kitoblari bilan belgilangan daromadlarni jalb etish bo'yicha choralarni amalga oshirish, soliq organlarining soliq to'lovchilarga faol ta'siri, O'zbekiston soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlar va majburiy to'lovlar yig'ishni ta'minlash.

Soliqlar moliyaviy resurslar orasida eng muhim o'rin tutib, davlat moliyasi, aniqrog'i davlat byudjeti daromadlarini muhim pul mablag'lari bilan ta'minlab turadi.

Soliq tizimi bu o'zaro bog'liq mohiyati jihatidan bir xil bo'lgan soliqlar va soliqsiz to'lovlar, soliq siyosati va soliq mexanizmlarining o'zaro majmui bo'lib respublika byudjet tizimi, ya'ni davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar uchun muhim moliyaviy resurs hisoblanadi. Hozirgi vaqtda davlat byudjeti daromadlarining 80-85 foizga yaqini soliqlar va soliqsiz to'lovlar hisobiga shakllanmoqda. Soliqlarni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan umumiy jihatdan farqini ifodalovchi o'ziga xos umumiy belgilari mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

Soliqlar moliyaviy resurs sifatida murakkab iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Shu tufayli ham funktsiya ham vazifalarni mujassam etgan hola mavjud bo'ladi. Soliqlar funktsiyalari haqida yagona fikrlar hanuzgacha mavjud emas. Bizningcha soliq'larga fiskal (byudjetni pul resurslari bilan ta'minlash), milliy daromadni qayta taqsimlash, ishlab chiqarishni rag'batlantirish va iqtisodiyotni boshqarish kabi funktsiyalar xos deb o'ylaymiz. Qayd etganimizdek, soliqlar murakkab iqtisodiy kategoriya sifatidagi moliyaviy resurs bo'lib, unga funktsiyalardan tashqari vazifalar ham xos bo'ladi. Funktsiya bu doimiy mavjud iqtisodiy voqelikni ifodalaydi. Shu tufayli soliq funktsiyalarini o'zgartirib bo'lmaydi balki iqtisodiy mavjudligi kashf etiladi. Soliqlarni vazifalari esa bundan farqli ravishda davlatni iqtisodiy siyosatining mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi va unga o'zgaruvchanlik ya'ni moslashuvchanlik xos xususiyatdir. Shu tufayli ham soliqlarni vazifalari turli davlatlarda farqlanadi.

Byudjet tushumlarining samarali nazoratini, ular aniq prognozlashtirishsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham soliq tushumlarini prognozlash aniq hisob-kitoblar, ma'lumotlar asosida amalga oshirishni talab qiladi.

2. Soliqlarni prognoz qilishning zarurligi va mohiyati.

Soliq tushumlarini prognoz qilish haqida soʻz yuritishdan oldin prognozlash oʻzi nima? degan savolga javob bermoqchiman.

“Prognozlash” - bu obʼektni yoki xodisani kelajakdagi meʼyoriy yoki maqbul holatlari, ularga erishish va ularni roʻyobga chiqarishning alternativ yoʻllari toʻgʻrisidagi ehtimolga yaqin tasavvurni ishlab chiqish. Prognozlash oldindan koʻrish formasi boʻlib, ijtimoiy iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va rejalarni ishlab chiqishdan oldin amalga oshiriladi.

Prognozlash sohasiga koʻra quyidagi

- **ijtimoiy** prognozlash
- **iqtisodiy** prognozlash
- **ilmiy texnikaviy** prognozlashlarga ajratiladi.

Boshqaruv darajasiga koʻra – xalq xoʻjaligi, tarmoq, regional (xududiy) prognozlash hamda birlashma, korxonani prognozlashlarga ajratiladi.

Prognozashtirish (grekcha prognoses-oldindan koʻrish) moliyaviy menedjmentda uzoq istiqbolga moliyaviy xolatni bir butun xolda va turli qismlarini oʻzgartirishni ishlab chiqish tushuniladi.

Prognozashtirish rejalashtirishdan farqli hamda ishlab chiqilgan prognozni bevosita amaliyotga tadbiq etish vazifasini oldiga qoʻymaydi. Ushbu prognozlar tegishli oʻzgarishlarni oldindan koʻrishni oʻzida aks ettiradi. Prognozashtirishning oʻziga xos tomonlaridan yana biri moliyaviy koʻrsatkich va mezonlarni tashkil etishdagi muqobillikdir. Yuqoridagi mezon va koʻrsatkichlar moliyaviy xolat rivojlanishini variantlilikini aniqlaydi. Ushbu variantlar obʼektidagi jarayonlardagi xodisalarning variantlilikini nomoyon boʻlayotgan tendentsiyalar asosida ishlab chiqiladi. Prognozashtirish eksport baholarini hisobga olgan holda oʻtmishni kelajakka ekstraponyatsiyalash asosida ham, oʻzgarishlarni toʻgʻridan-toʻgʻri oldindan koʻrish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu oʻzgarishlar tasodifan yuz berishi mumkin.

Daromadlar prognozi quyidagilar asosida tuziladi:

1. Xududiy iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirish asosiy yoʻnalishlari tahlili.
2. Daromadlarning har bir turi, imtiyozlarni hisobga olgan holda hisoblab yozilgan toʻlovlar summalari boʻyicha soliq toʻlovchilarning miqdori haqida hisob axboroti.
3. Amaldagi soliq stavkalari va majburiy toʻlovlar stavkalari.
4. Prognoz qilinayotgan davrda amalga kiritish moʻljallangan yangi qonun hujjatlari;
5. Soliqlar kelib tushishida belgilovchi ahamiyat kasb etadigan, ayrim korxonalarining prognoz hisob-kitoblari;
6. Tegishli darajadagi daromad hisob-kitoblari;
7. Toʻlovlarni yoki oʻtish toʻlovlarini toʻlash muddatlari;
8. Hisobotga oid statistika maʼlumotlari;

9. Hisobot davri uchun va davr tugashiga qadar tutiladigan tushumlar to'g'risidagi ma'lumotlar shuningdek qarz va ortiqcha to'lash qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

10. Inflyatsiya prognoz qilinayotgan davrda so'mning AQSh dollari va EVROga nisbatan kursi indeksi;

11. Ular bajarilishini ta'minlash uchun byudjet vazifalari hisobi.

Soliq idoralarida soliq tushumlarini prognoz qilish ishlarini tashkil etishni o'rganishdan oldin soliq ishlarini yuritish masalalarini chuqur o'rganish talab qilinadi.

4. Byudjet daromadlarini shakllantirish, iqtisodiyotdagi nomutanosiblikni bartaraf etishda tahlil natijalaridan foydalanish.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti asosan soliqdar yordamida tuplanadigan xamda davlat tomonidan uning funktsiyalari va vazifalarini amalga oshirish uchun ishlatiladigan pul mablaglarining markazlashtirilgan fondlaridir, u konun kuchiga ega, respublika Oliy Majlisi tomonidan tasdiklanadi.

Davlatning iqtisodiy siyosatini xayotga tatbik etishning asosiy vositalaridan biri bulgan byudjet tizimi O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti faoliyat kursatilishining tashkiliy shakli xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi ikki bugindan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ;
- Korakalpogiston Respublikasi davlat byudjeti, vi-loyatlar, Toshkent shaxri, respublika tuman va shaxarlari maxalliy byudjetlari.

O'zbekiston Respublikasi byudjeti bir butundir, ya'ni byudjet tizimi barcha buginlari - davlatning yagona davlat byudjetiga kiradigan Korakalpogiston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shaxri, respublika shaxar va tumanlari byudjetlarining uzviy birligini bildiradi. Byudjet birligini O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimining yaxlitligi belgilab beradi.

Davlat byudjetining itisodiy kategoriya sifatidagi moxiyati, uni taksimlash (kayta taksimlash) va nazorat funktsiyalari orkali amalga oshadi. Birinchi vazifasi orkali umumdavlat extiejarini kondirish maksadida pul mablaglarini davlat kulida tuplash va ishlatish amalga ohsa, ikkinchi vazifasi moliyaviy resurslar kay darajada tula va uz vaktida davlat ixtieriga kelib tushaetgani, byudjet mablaglarini taksimlashdagi mutanosiblik xakikatda kanday, ular samarali ishla-tilyaptimi eki yukmi? shularni bilib olish imkonini beradi. Davlat byudjetining vazifalari ushbu iqtisodiy kategoriya singari xakkoniydir. Ammo byudjetga tegishlik xususiyatlar, unmi taksimot va nazorat kuroli sifatida ishlatish fakat insoniy faoliyat jaraenida, ya'ni davlat tomonidan vujudga keltirilgan byudjet mexanizmida uz aksini topgandagina azaga kelishi mumkin. Byudjet mkexanizmi davlatninng byudjet siesatining xakikiy timsoli sifatida iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni xal kilishga byudjet munosabatlarini anik yunaltiruvchisi xisoblanadi.

2. Byudjet bo'g'inlari o'rtasida daromad va xarajatlarni taqsimlash.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lib, o'z davlat byudjetiga, byudjet tizimiga, pul birligiga, milliy valyutasini joriy etishga, pul oboroti va boshqa qimmatli qog'ozlar emissiyasini xajmini belgilashga xaqlidir.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining daromadlari quyidagilardan iborat.

I. Maqsadsiz fondlarning daromadlari.

To'g'ri soliqlar. Jami.

1. -yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i
2. -jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq:
3. -jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan soliq
4. -jismoniy shaxslarning mexnatga xaq to'lash shaklidagi daromadlaridan olinadigan soliq
5. -kichik korxonalaridan olinadigan yagona soliq

Egri soliqlar, jami:

6. -qo'shilgan qiymat solig'i
7. -aktsiz solig'i, jami
8. -aroq-likier tarmog'i
9. -o'tkir vino
10. -pivo ishlab chiqaruvchi tarmoq
11. -o'simlik moyi (paxta)
12. -musodara qilingan tamaki maxsulotlari
13. -musodara qilingan alkogolli ichimliklar
14. -boshqalar

Resurs to'lovlari va mol-mulk soliqlari, jami:

15. -yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq
16. -jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq
17. -Er solig'i:
18. -yuridik shaxslarning noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan erlaridan olinadigan er solig'i
19. -yuridik shaxslarning qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan erlaridan olinadigan er solig'i
20. -jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i
21. -er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq
22. -suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
23. -ekologiya solig'i
24. Soliqsiz to'lovlar va yig'implar, jami:
25. -Davlat boji
26. -Davlat mulkini sotishdan tushgan tushum
27. -Jarimalar
28. -Davlat Avtomobil Nazorati (DAN) yig'implari
29. -Maxalliy soliqlar va yig'implar:
30. -savdo-sotiq huquqi uchun yig'im
31. -dehqon bozorlaridagi bir martaik patta yig'imi
32. -boshqa tushumlar

33.-Infratuzilmani rivojlantirish solig'i

34.-Boshqa soliqlar va daromadlar

II.Maksadli fondlarning daromadlari.

1. Pensiya fondi.

2. Ish bilan bandlik fondi.

3. Davlat mulk qo'mitasining maxsus xisob raqami.

4. Yo'l fondi.

Jami daromad.

Tayanch so'z va iboralar

1. Prognoz.

2. Reja.

3. Ijtimoiy prognozlash.

4. Iqtisodiy prognozlash.

5. Ilmiy texnikaviy prognozlash.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1.Soliqni prognoz qilish fanini o'qitish nima uchun kerak?

2.Soliqni prognoz qilish fani nimani o'rgatadi uning qanday vazifalari bor?

3.Soliqni prognoz qilish fanining Davlat Soliq xizmati uchun mutaxassislar tayyorlashdagi roli qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 12,3,6,9,10,13,16,19,20.

Qo'shimcha adabiyotlar: 19,23,32,34,40.

2-mavzu: Soliqqa tortiladigan baza va uning elementlari tahlili (2 soat)

Reja:

1. Soliqqa tortiladigan baza va uni aniqlash usullari. Soliqqa tortish bazasi elementlariga ta'sir etuvchi omillar.
2. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar bazasini aniqlashning o'ziga xosligi.
3. Qo'shilgan qiymat solig'i.
4. Daromad (foyda) solig'i.
5. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning soliqqa tortish bazalarini yo'riqnomalar orqali aniqlash va tahlil etish.

1. Soliqqa tortiladigan baza va uni aniqlash usullari.

Soliq asosi (bazasi) - umumiy holda belgilangan soliqqa tortish davri mobaynida ma'lum hududdagi soliq to'lovchilar va soliqqa tortish ob'ektlarining yig'indisi.

Yuridik shaxslar tulaidigan soliklar ichida ularning daromadi(foydasi)ga solik muxim urinni egallaydi. Shuning uchun xam ushbu solik turi buyicha solikka tortish soliklarning iktisodiy kategoriya sifatida tan olingan konunlari ya'ni solikka tortishning zamonaviy tamoyillariga mos kelishi lozim.Eng avvalo,bu solik turida solik olinadigan ob'ekt masalasini solikka tortish tamoyillariga mos ravishda,solik tulovchilar xamda davlat manfaatlaridan kelib chikkan xolda adolatli xal kilish lozim buladi.Uzbekiston bu masalada rivojlangan mamlakatlar tajribasini urgangan xolda xamda kiska vakt ichida orttirilgan solikka tortish tizimi tajribalarini kullagan xolda uziga xos yulni tutdi.Respublikamizda ushbu solik turini solikka tortish mexanizmining uziga xosligi ya'ni boshka mamlakatlardan tubdan fark kiladigan tomoni solik bazasini shakllantirilishining uziga xosligidir.

Yuridik shaxslarning daromadi(foydasi) ga solinadigan solik – kortexonalar,birlashmalar va tashkilotlar daromadi(foydasi) bir kismining byudjetga majburiy tulovidir.Bu daromad(foydada) “Maxsulot (ishlar,xizmatlar)ni ishlab chikarish va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi tugrisida” gi Nizom bilan aniklanadi.Kayta ishlangan bu Nizom Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli karori bilan tasdiklangan.

Mazkur Nizom asosida xujalik yurituvchi sub'ektning daromad (foyda) soligi buyicha solik solinadigan baza kuyidagicha xisoblab chikariladi:

Daromad (foyda) soligi tulungungacha bulgan daromad (foyda) eki zarar. (Nizomning A.G bulimlariga muvofik)

plyus 1-ilovada keltirilgan solik solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar moddalari (chegirilmaydigan xarajatlar eki doimiy tafovutlar).

plyus eki minus 2-ilovada keltirilgan ushbu davrning solik solinadigan bazasidan chikarilmaydigan, biroq keyingi davrlarning solik solinadigan bazasidan chikariladigan xarajatlar (vaktlar buyicha tafovutlar).

minus. Konunchilikka muvofik soliklar buyicha imtiezlar teng buladi. Daromad (foyda) soligi buyicha solik solinadigan baza.

$$SB = STF + 1-IL + - 2-IL - SIM$$

Bunda,

SB – solik solinadigan baza

STF – solik tulungunga kadar bulgan foyda

1-IL – 1- ilovada keltirilgan solik solinadigan bazaga

kushiladigan xarajatlar moddalari

2-IL– 2-ilovada keltirilgan ushbu davrning solik solinadigan bazasidan chikarilmaydigan, biroq keyingi davrlarning solik solinadigan bazasidan chikariladigan xarajatlar

SIM- soliklar buyicha imtiezlar

Solik solinadigan bazani tugri aniklash maksadida Nizomda xujalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining moliyaviy natijalari foyda kursatkichlari va maxsulot (ishlar va xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar xamda davr xarajatlari ruyxati aloxida tavsiflanadi.

Xujalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning kuyidagi kursatkichlari bilan tavsiflanadi:

1 - maxsulot sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan maxsulotning ishlab chikarish tannarxi urtasidagi fark sifatida aniklanadi:

$$YaF = SST - IT$$

bunda, YaF – yalpi foyda

SST – sotishdan olingan sof tushum.

IT – sotilgan maxsulotning ishlab chikarish tannarxi

Sotishdan olinadigan sof tushum buxgalteriya xisobi tugrisidagi konunchilikka muvofik maxsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan, undan kushilgan kiymat, aktsiz soligi va eksport boj poshlinasi chegirilgan tushum sifatida aniklanadi.

Sotilgan maxsulotning ishlab chikarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibini kurib chikadigan bulsak, ular Nizomga kura bevosita maxsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chikarish bilan boglik bulgan , ishlab chikarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlardan iborat. Ya'ni ular bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita maxnat xarajatlari, boshka bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chikarish xususiyatiga ega bulgan ustama xarajatlar.

Maxsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chikarish tannarxini xosil kiluvchi xarajatlar ularning iktisodiy mazmuniga kura kuyidagi elementlar bilan guruxlarga ajratiladi:

- ishlab chikarish moddiy xarajatlar (kaytariladigan chikitlar kiymati chikarib tashlangan xolda);
- ishlab chikarish xususiyatiga ega bulgan mexnatga xak tulash xarajatlari;
- ishlab chikarishga tegishli bulgan ijtimoiy sugurtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chikarish axamiyatiga ega bulgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- ishlab chikarish axamiyatiga ega bulgan boshka xarajatlar.
- 2 - asosiy faoliyatdan kurilgan foyda, bu maxsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari urtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan kurilgan boshka daromadlar eki minus boshka zararlar sifatida aniklanadi.

$$\mathbf{AFF=YaF-DX+BD-BZ,}$$

Bunda,

AFF- asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX- davr xarajatlari;

BD- asosiy faoliyatdan olingan boshka daromadlar;

BZ- asosiy faoliyatdan kurilgan boshka zararlar;

Solik solinadigan bazani aniklashdagi uziga xos xususiyatini davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlarda kurish mumkin. Bu xarajatlar ishlab chikarish tannarxiga kiritilmaydi, biroq asosiy faoliyatdan olinadigan foydada xisobga olinadi.

Davr xarajatlariga xarajatlar elementlari buyicha kuyidagilar kiradi:

- sotish xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlar;
- boshka operatsiya xarajatlari;
- xisobot davrining kelgusida solik solinadigan bazadan chikariladigan xarajatlar.

Asosiy ishlab chikarish faoliyatidan olinadigan boshka daromadlarga kuyidagilar kiradi:

- undirilgan eki karzdor tomonidan e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaktida tulanmagan karzlar va xujalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun boshka xil jazo jarimalari, shuningdek, etkazilgan zararlarni undirish buyicha daromadlar;

- xisobot yilida aniklangan utgan yillardagi foyda;

- ishlab chikarish va maxsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bevosita boglik bulmagan operatsiyalardan renta daromadi, xujalik yurituvchi sub'ektlar xuzuridagi oshxonalaridan tushumlar, erdamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi boshka daromadlar;

- xujalik yurituvchi sub'ektning asosiy fondlari va boshka mol-mulklarini sotishdan olingan daromadlar;

- da'vo bildirish muddati utgan kreditorlik va deponent karzlarni xisobdan chikarishdan olingan daromadlar;

- tovar moddiy boyliklarni puxta baxolash;

- Davlat subsidiyalaridan daromadlar;

- Xolisona moliyaviy erdam;

- Boshka operatsion daromadlar.

3 – xujalik faoliyatidan olingan foyda (eki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan kurilgan daromadlar va minus zararlar sifatida xisoblab chikariladi:

$$\mathbf{UF=AFF+MD-MX,}$$

Bunda,

UF- umumxujalik faoliyatidan olingan foyda;

MD-moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX-moliyaviy faoliyat xarajatlari.

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- olingan royaltlar va sarmoya transferi;

- Uzbekiston Respublikasi xududida va uning tashkarisida boshqa xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ulush kushgan xolda katnashishdan olingan daromad,aksiyalar buyicha dividendlar va obligatsiyalar xamda xujalik yurituvchi sub'ektga tegishli kimmatli kogozlar buyicha daromadlar;

- Mol-mulni uzok muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar(lizing tulovini olish).

- Valyuta schetlari,shuningdek,chet el valyutalaridagi operatsiyalar buyicha ijobiy kurs tafovutlari;

- Sarflangan (kimmatli kogozlarga,shu'ba korxonalariga va xokozolarga) mablaglarni kayta baxolashdan olingan daromadlar;

- Moliyaviy faoliyatdan olingan boshka daromadlar.

Moliyaviy faoliyat xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- Uzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan xisob stavkalari doirasida va ulardan yukori doirada kiska muddatli xamda uzok muddatli kreditlar buyicha,shu jumladan,tulov muddati utgan va uzaytirilgan ssudalar buyicha tulovlar;

- Mol-mulni uzok muddatli ijaraga olish(lizing) buyicha foizlarni tulash xarajatlari;

- Chet el valyutasi bilan operatsiyalar buyicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar;

- Sarflangan(kimmatli kogozlarga,shu'ba korxonalariga va xokozolarga) mablaglarni kayta baxolashdan kurilgan zararlar;

- Uz kimmatli kogozlarini chikarish va tarkatish bilan boglik xarajatlar;

- Moliyaviy faoliyat buyicha boshka xarajatlar,shu jumladan,salbiy diskont.

Va nixoyat 4- solik tulungungacha olingan foyda,u umumxujalik faoliyatidan olingan foyda plyus favkulodda (kuzda tutilmagan) vaziyatlardan kurilgan foyda va minus zarar sifatida aniklanadi:

$$\text{STF}=\text{UF}+\text{FP}-\text{FZ}$$

Bunda,

STF-sollik tulungungacha olingan foyda;

FP-favkulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ-favkulodda vaziyatlardan kurilgan zarar.

Favkulodda foyda moddalari –bu kuzda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bulgan,xodisa eki xujalik yurituvchi sub'ktning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chikadigan tusdagi operatsiyalar natijasida paydo buladigan va olinishi kutilmagan foydadir.

Favkulodda zararlar- bu xujalik yurituvchi sub'ektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chikuvchi xodisalar eki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ruy berishi kutilmagan odatdan tashkari xarajatlar moddalaridir.

Maxsulot (ishlar,xizmatlar)ni ishlab chikarish va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi tugrisida Nizomga muvofik solik solinadigan bazaga kayta kushiladigan 1- ilova (Sollik solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar moddalari(chegirilmaydigan xarajatlar eki doimiy tafovutlar) kuyidagilardan iborat:

- Ishlab chikarish tannarxi buyicha.

- Xujalik yurituvchi sub'ektning ishlab chikarish ishchilari va boshka xodimlari mexnatiga xarajatlar buyicha.

- Ishchilab chikarishga tegishli bulgan ijtimoiy sugurta ajratmalari buyicha.

- Asosiy vositalar va moddiy aktivlar amaortizatsiyasi buyicha.

- Ishlab chikarish tusidagi boshka xarajatlar buyicha.

- Davr jarajatlari buyicha.

- Moliyaviy faoliyat buyicha xarajatlar.

- Tovar-moddiy zaxiralarni kayta baxolash bilan boglik xarajatlar moddalari.

2.1. Ishlab chikarish xarajatlari buyicha:

2.2. Davr xarajatlari buyicha:

Nizomning 2- ilovasi buyicha ushbu davrning solik solinadigan bazasidan chikarilmaydigan,birok keyingi davrlarning solik solinadigan bazasidan chikariladigan xarajatlar(vaktlar buyicha tafovutlar)ga kiradi.

2. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar bazasini aniqlashning o'ziga xosligi.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki soliq jismoniy shaxsning to'g'ridan – to'g'ri o'z daromadidan olinadi, soliqlar va yig'imlar asosan naqd pul to'lash yo'li bilan byudjetga o'tkaziladi.

Shunday ekan bu erda soliq to'lovchi jismoniy shaxs bilan soliq undiruvchi o'rtasida to'g'ridan – to'g'ri pul munosabati mavjud.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadga solinadigan soliqni, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'imni, davlat boji va bir qancha boshqa soliqlar va yig'imlarni to'laydilar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadga solinadigan soliq jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jami yillik daromad bilan Solik kodeksiga muvofik belgilanadigan chegirmalar urtasidagi fark sifatida hisoblangan solik solinadigan daromad solik solish ob'ektidir.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga solik tulovchi olishi lozim bulgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshka mablaglar, shu jumladan:

- mexnatga xak tulash shaklida olinadigan daromadlar;
- jismoniy shaxslarning mulkiy daromadi;

-jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromad kiradi.

Mexnatga xak tulash shaklida olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarning mexnat shartnomasi buyicha kilingan ishlardan va fukarolik xukukiy shartnomalar buyicha oladigan daromadlari kiradi. Mexnatga xak tulash shaklida olinadigan daromadlarga quyidagilar xam kiradi:

1) xodimlarga sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati bilan bunday tovarlarni (ishlar, xizmatlar) xarid kilish narxi yoki ularning tannarxi urtasidagi manfiy fark;

2) ish beruvchi tomonidan xodimlarning chikimlarini koplash uchun kilingan, ularning faoliyati bilan boglik, bulmagan xarajatlar;

3) xodim ish beruvchiga tulashi kerak bulgan, ammo ish beruvchining karori bilan xisobdan chikarilgan karz summalari;

4) ish beruvchi uz xodimlarining xayoti va sogligini ixtiyoriy sugurtalash badallarini tulash uchun kilgan xarajatlar;

5) ish beruvchining jismoniy shaxsdan ushlab kolinishi kerak bulgan tulovlar yuzasidan tulagan summasi;

6) ish beruvchining uz xodimlarining bevosita yoki bilvosita daromadlarini tashkil etadigan boshka xarajatlari.

Xodimlarga Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi belgilagan me'yorlar doirasida beriladigan xizmat safari tulovlarining summalari jami yillik daromadga kiritilmaydi.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga foizlar, dividendlar buyicha olingan daromad, mol-mulkn ijaraga berishdan keladigan daromad kiradi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadga tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, daromad olish maksadida tavakkal kilib, uz mulkiy javobgarligi ostida yakka tartibda amalga oshiradigan, konun xujjatlarida takiklanmagan boshka faoliyatdan keladigan barcha tushumlar kiradi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan solik solinadigan daromadlarni aniklash vaktida mazkur yalpi daromadni olish (topish) uchuch kilingan xarajatlar, majburiy tulovlar, chikimlar va ajratmalar chegirib tashlanadi. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan chegirib tashlanishi lozim bulgan xarajatlar, majburiy tulovlar, chikimlar va ajratmalarni aniklash tartibi Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi. Jismoniy shaxslarning shaxsiy iste'mol bilan boglik bulgan

xarajatlari tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan chegirib tashlanmaydi.

Solik, kodeksiga muvofik, moliyaviy jazo choralari va xisoblangai penyalar summalari jami daromaddan chegirib tashlanmaydi.

3. Qo'shilgan qiymat solig'i.

QQS ob'ekti bo'lib tovarlar (ishlar,xizmatlar) sotish va import tovarlar oboroti xisoblanadi, QQS dan ozod bo'lganlar va maxsulotlardan o'z ishlab chiqarish maqsadlari uchun foydalanishdan tashqari. Tovarlari (ishlar,xizmatlar) oboroti deb maxsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarni yuklash (ortish) tushuniladi. Uch xil sotish turi mavjud: tovarlar,ishlar va xizmatlar.

Maxsulot (ish, xizmatlarni) xaqiqiy tannarx baxosidan past sotuvchi korxonalarda soliqqa tortish maqsadida maxsulot sotilayotganda qaror topgan baxo qabul qilinadi, lekin shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning ishlab chiqarish (sotib olish) xaqiqiy xarajatidan kam bo'lmasligi shart.

Tovarlarni natural xaq tarzida berilganda yoki kassa orqali o'z xodimlariga tannarx baxosidan past qilib sotilganda soliqqa tortiladigan oborot tovarlarni (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarishning xaqiqiy xarajatidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi. o'zi ishlab chiqqan tovarlar korxonada ichida tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarga foydalanilsa soliqqa tortiladigan oborotni aniqlash uchun ularning xaqiqiy tannarxi olinadi.

Xomashyo va materiallar egasining tovarini ishlab berganda soliqqa tortiladigan oborot bo'lib ularning qayta ishlov qiymati (xarajatlar va foyda qo'shib, aksiz osti tovarlar bo'lsa aksiz summasi xam qo'shib) xisoblanadi. Uzoq ishlab chiqarish tsikliga ega bo'lgan korxonalar uchun (qurilish, qurilish-mantaj, ta'mirlash-qurilish,proekt-qidiruv va ilmiy- tekshirish) soliqqa tortiladigan oborot bo'lib xisoblashish xujjatlarida to'lash uchun ko'rsatilgan bajarilgan va byurtmachilar tomonidan tasdiqlangan qiymat xisoblanadi. Bu erda ishlarni bajarish jarayonida baxolarning transport va boshqa xizmatlarning ta'rifini oshishi yoki kamayishini xisobga olib tuzilgan shartnoma baxosidan kelib chiqiladi.

Soliqqa tortilmaydigan oborot xam mavjud. Bunday oborotga quyidagilar kiradi:

1.Korxonaning bir shoxobchalaridan ikkinchi shoxobchalariga sanoat ishlab chiqarish maqsadlari uchun yarim fabrikat ,bajarilgan ishlar va xizmatlar oboroti sotilganda (zavod ichi oboroti).

Bu shaxobchalar xisob schyotiga ega bo'lmaydi va bosh korxonaning balansida turadi.

2.Kooperativ, xo'jalik jamiyatlari va o'rtoqliklari, korxonaning boshqa ta'sisчилari o'rtasida korxonani tugatilishi munosabati bilan ular o'rtasida mulklar taqsimlangandagi oborotlar . Bu xolat tugatilayotgan korxonaning mulki boshqa shaxslarga sotilganda ta'luqli bo'lmaydi.

Xisoblashish xujjatlari to'langandan so'ng tovarlar qaytarilsa QQS summasiga o'zgartirishlar kiritiladi shu shart bilanki bir yil ichida so'rov talabi muddatiga rioya qilingan bo'lsa.

4. Daromad (foyda) solig'i.

Rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida yuridik shaxslarning daromad soligi korporatsiya soligi eki korporativ solik deb ataladi. Ushbu solik turi nisbatan olganda boshka soliklarga nisbatan keyinroq ya'ni bu mamlakatlarda turli formadagi tadbirkorlik(biznes)ni rivojlanishi bilan yuzaga keldi.

Korporatsiya soligi- kompaniyalarning sof foydasidan olinadi.

AKShda korporatsiyaning byudjetga tulaydigan barcha soliklari shtat soliklari va federal soliklarga bulinadi. Nyu-York shtatida franshiza maxalliy solik bulib xisoblanadi. U shtatda biznes ishlari bilan shugullanuvchi barcha korporatsiyalar tomonidan xar yili tulab kelinadi. Xisob-kitoblar korporatsiyaning xar bir solik yili uchun bulgan jami sof foydasi summasidan kelib chikkan xolda amalga oshiriladi. Korporatsiya ushbu maksadni amalga oshirishi uchun uzi olgan foydasi tugrisidagi yillik xisobotni takdim etishi shart. Korporatsiyalar foydasini oluvchilar uchun franshiza soligining mikdori Nyu-Yorkda ishlab topilgan foydaning 9 foizini tashkil kiladi. Birok foydadan ka'iy nazar, korporatsiya xar yili 250 dollar mikdorida franshiza soligini tulashi shart. Agar korporativ foydalar aksiyadorlar urtasida dividendlar sifatida taksimlansa eki oylik ish xaki sifatida tulnadigan bulsa, ular daromad soligiga tortiladi.

Foydadan federal solik tabakalangan xolda tulnadi. Dastlabki 50 ming dollardan iborat foyda 15 foizlik solikka tortiladi; keyingi 25 ming dollar – 25 foizlik; 75 ming dollardan olingan foyda solikka stavka asosida tortiladi. Bundan tashkari, 100 ming dollardan 335 ming dollargacha bulgan foyda kushimcha ravishda 5 foizlik solik undiriladi. Ayrim kasbiy korporatsiyalar (tibbiet, yuridik xizmatlar, konsalting, muxandislik ishi, arxitektura, buxgalteriya xisobi va boshka soxalarda ishlovchi) tabakalanmagan 34 foizlik solikka tortiladilar.

Yaponiyada korporatsiyalar daromadidan olinadigan solikda solik bazasini shakllantirishning uziga xos xususiyatlari mavjud. Solik bazasini anikiklashda jami tushum tarkibiga tovar materiallarini sotishdan, asosiy vositalarini ijaraga berishdan, moliyaviy bozordan tushgan summalar yigindisi kiritiladi. Ushbu yigindidan maxsulot ishlab chikarish uchun ketgan kuyidagi xarajatlar chegirib tashlanadi; ishlab chikrish tannarxi (sotib olish xarajati), ish xaklari, transport xarajatlari, ijtimoiy ta'minot tulovlari, amortizatsiya ajratmalari (maxsus amortizatsiya va tezlashtirilgan amortizatsiya), rezerv ajratmalari (rezerv kapitali) va boshkalar. Shundan sung iktisodiy samara daromad ya'ni solik olinadigan baza xosil kilinadi va belgilangan stavkalar asosida solikka tortiladi.

Daromad soligining stavkalari tabakalashtirilgan xola bulib, umumiy tipdagi yuridik shaxslar uchun; 100 mln yenalik ustav fondiga ega bulgan yuridik shaxslar, 8 mln yenagacha 28 foiz va 8 mln yenadan yukorisi 37.5 foizlik stavkada solik undiriladi.

Kooperativlar uchun 27 foizlik stavka kullanyladi. Umumjamiyat axamiyatiga molik xizmatlar bilan band bulgan yuridik shaxslar xam 27 foizlik stavkada solik tulaydilar.

Tayanch so'z va iboralar.

1. soliqqa tortiladigan baza
2. solikli va soliqsiz to'lovlar
3. davlat byudjeti
4. maxalliy byudjet
5. byudjet parametrlari
6. qo'shilgan qiymat solig'i
7. aktsiz solig'i
8. yuridik shaxslardan olinadigan daromad(foyda) solig'i

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Soliqqa tortiladigan bazaning aniqlashning qanday usullari mavjud?
2. Davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar nima?
3. Soliqlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga ajratishning sababi ularning farqi?
4. To'g'ri va egri soliqning iqtisodiy mohiyati va ularning farqi?
5. Byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar va ularning soliqlarga qanday aloqasi bor?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,2,6,7,9,11,12,14,18.

Qo'shimcha adabiyotlar: 19,20,21,25,28,32.

3-mavzu: Prognozlashda yig'ma jadvallar tuzish uslubi (4 soat)

1. Soliqlarni prognoz qilishda yig'ma jadvallarning mazmuni va uni tuzishdan maqsad.
2. Yig'ma jadvallarning turlari.
3. Hududlar, korxonalar, soliq turlari bo'yicha yig'ma jadvallar tuzish.
4. Korxonalar faoliyati turlari, mulk shakllari va boshqa belgilariga ko'ra yig'ma jadvallar tuzish uslubiyoti va uni yanada mukammallashtirish yo'llari.

1. Soliqlarni prognoz qilishda yig'ma jadvallarning mazmuni va uni tuzishdan maqsad.

Soliq va yig'implarni to'lash yuridik shaxslardan pulsiz, jismoniy shaxslar tomonidan esa, naqd pul bilan va pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirildi.

Soliq to'lovchi soliqlar va yig'implarni ortiqcha to'lagan taqdirda soliq to'lovchining yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida qaytarib beriladi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Soliqlar va yig'im byudjetga quyidagi tartibda o'tkaziladi: asosiy summa; hisoblab chiqilgan pench; jarimalar.

Soliq ishini yuritish masalalariga to'liq amal qilgan holda va uni bajarish sharti bilan prognoz bo'limi tashkil qilishadi va unga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

Har bir soliq inspeksiyasida soliq to'lovchilarni hisoboti olib boriladi va hisoblangan va byudjetga o'tkazilgan soliq va to'lovlarni, moliyaviy jarimalarni va ko'rilgan tadbirlarni hisobini olib boradi.

Soliq tushumlari bashorat ko'rsatkichlarini nazorat qilish, boqimanda summalarini kamaytirishda, muddatida to'lanmagan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni, Davlat boji summalarini korxonalar va tashkilotlarning mol-mulki xisobidan undirish, ko'rilgan ishlarni kechiktirmasdan ho'jalik sudlariga uzatilishini ta'minlashda ular boshqarmaga kelayotgan statistik xisobotlarni tahlil qilish bilan cheklanmasdan, joylarga chiqib tekshirish o'tkazadilar. Zarur bo'lsa amaliy yordam ko'rsatadilar.

Soliq to'lovchilarning to'lagan summalari, kelib tushgan, qayd qilingan va qaytarib yuborilgan to'lovlar xisobi, aniqlangan qonunbuzarliklar soni, ko'rilgan jazo choralari va undirilgan jarimalar miqdori haqidagi ma'lumotnomalar ilova qilinadi.

Davlat byudjeti daromadlar hisobida quyidagi ishlar amalga oshiriladi. Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalarida va yuqori soliq organlarida davlat byudjeti daromadlar qismiga Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjet daromadlar qismiga asosan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan undiriladigan soliq va byudjet to'lovlari hisobini yuritish, bundan tashqari hujjatli tekshirishlar natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar va byudjet to'lovlari, ularga hisoblangan moliyaviy jarimalar hisobini yuritish, soliq qonunchiligini buzgan fuqarolarga qo'llanilgan ma'muriy jarimalarni hisobga olish, boshqa yig'implar va tushumlarning hisobini yuritishdan iborat.

2. Yig'ma jadvallarning turlari.

Davlat byudjetiga soliqlar va to'lovlarni hisobga olishda quyidagi hujjatlarga asoslanadi va hisobot tayyorlanadi:

- moliya bo'limlaridan va banklardan olingan soliq va byudjet to'lovlari ko'chirmalariga asosan;

- bank tomonidan tasdiqlangan to'lov topshiriqnomalari nusxalariga asosan;

- qat'iy hisobdagi to'lov hujjatlariga asosan:

Yuqoridagi to'lov hujjatlariga asosan moliya va soliq organlaridagi forma №25 jamlama reestrga soliq hamda byudjet to'lovlari tushiriladi.

Forma №25 reestr bo'yicha hisobga olinadigan soliqlar va yig'imlar tuman davlat soliq inspeksiyasidan ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning soliq hamda byudjet to'lovlari bo'yicha ochilgan shaxsiy varaqalari har bir soliq turi bo'yicha alohida yuritiladi.

Soliq to'lovchilarning shaxsiy hisob-varaqalari quyidagi hujjatlar asosida to'ldiriladi:

- Soliq to'lovchilar tomonidan to'ldirilgan yillik va chorakli bo'nak to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotnomaga asosan;

- Soliq to'lovchilarning soliq hisobotlariga, soliq to'lovlari hisob-kitoblariga, daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaga, to'lov topshiriqnomasi va boshqa soliq solish bo'yicha hujjatlarga asoslangan.

- Tekshirish dalolatnomalariga, soliq inspeksiyasi va nazorat organlarining bayonnoma va qarorlariga asosan.

Agarda tekshirish natijalari bo'yicha, ya'ni soliq inspeksiyasi va nazorat qiluvchi organlar xodimlari tomonidan qo'shimcha hisoblangan soliq'larga, moliyaviy va ma'muriy jarimalarga soliq to'lovchining har bir soliq turi uchun alohida shaxsiy varaqalari yuritiladi.

Forma № 25 jamlama reestrga asoslanib, Forma № 1-N (qisqa) kunlik va Forma № 2 (to'liq) hisobotlar, tuman davlat soliq inspeksiyalarida va yuqori soliq organlarida davlat byudjetining daromadlari qismiga tushadigan to'lovlar bo'yicha kunlik, oylik, choraklik va yillik haqiqiy tushum uchun hisobot tuziladi.

Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjet daromadlar qismi klassifikatsiyasiga asosan hamda soliq kodeksiga binoan quyidagi hisob varaqlarda soliqlar va yig'imlar hisobi yuritiladi:

- Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i kartochka №3 va №6 shakllarda;

- yuridik shaxslarning daromad (foyda) va mol-mulk solig'i kartochka shaklda;

- shuningdek kartochka №4 shaklda yangi daromad solig'i bo'yicha, qo'shma korxonalar bo'yicha, yagona soliq to'lovchilar bo'yicha, xususiy korxonalar soliqlari bo'yicha hisoblar olib boriladi.

- kartochka №9 shaklda qo'shma korxonalarining aktsiya, obligatsiya va qimmatli qog'ozlar bo'yicha olgan dividendlari hisobi, chet el yuridik shaxslarining Respublikamizda olgan daromadlari bo'yicha to'lovlar hisobi yuritiladi;

- Davlat tomonidan musodara qilingan tovar va moddiy qiymatliklar, egasiz mollar bo'yicha tushumlar hisobi kartochka №8 shaklda;

- ma'muriy va moliyaviy jarimalar hisobi forma №11 kitobida yoki №25 reestrda;

- jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i, mol-mulk solig'i va er solig'i hisobi №1 va №26 shaxsiy hisob daftarlarida olib boriladi.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida soliqlar bo'yicha hisoblarni va hisobotlarni takomillashtirish muhim muammolaridan biridir.

4. Hududlar, korxonalar, soliq turlari bo'yicha yig'ma jadvallar tuzish.

Ma'muriy boshqaruv tizimi sharoitida pul daromadlarining va yig'implarining taqsimlanishi va turkumlanishi, ularning markazlashgan va markazlashmagan fondlarda pul mablag'larining guruhlanishi direktiv rejalashtirish orqali aniqlanar edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish boshqaruv funktsiyasi sifatida, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning barcha tomonlarining umumiy shaklini qabul qila olmaydi. Bundan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish jarayonida hamda tovarlar va xizmatlar realizatsiyasida xukmron va aniqlovchi usul bo'lib – pul, baho, qiymat qonuni, talab va taklif qonunini o'z ichiga olgan bozor mexanizmi bilan tashkil qiladi.

Bozor mexanizmining bunday muhiti rejalashtirish elementlari ishtirokida ishlab chiqarish va almashuv natijalarini aniqlovchi prognoz uslubiyoti amal qilishini aniqlab beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning rivojlanishida moliyaviy rejalashtirishga talab kamaygani yo'q. U avvalgiday ishlab chiqarish fondlarining kengaytirilgan doiraviy aylanishini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga, moliya-xo'jalik faoliyatida samaradorlikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishga, korxonaning moliyaviy chidamkorligini va to'lovga qobiliyatini mustahkamlashga sharoit yaratib berishga qaratilgandir. Hozirgi paytda avvalgi direktiv rejalashtirish tizimi davriga qaraganda moliyaviy rejalashtirish sifatini oshirish maqsadga muvofiqdir, chunki bozor munosabatlarida o'z faoliyatining samarasizligi, shu bilan birgalikda moliyaviy rejalashtirishda noto'g'ri hisob-kitoblarni yuritishda javobgarlikni korxonaning o'zi tortadi.

Yangi xo'jalik yuritish sharoitida o'zining katta rolini saqlab qolgan moliyaviy rejalashtirish o'z navbatida qayta qurilgan bo'lishi lozim. Uning mazmuni va amaldagi shakllari xo'jalikning yangi iqtisodiy sharoitlari bo'lgan o'zgarishlari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda moliyaviy rejalashtirish bozorning kon'yukturasini hisobga olgan holda biror bir voqelikning bo'lish ehtimoli borligini va shu bilan birgalikda moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning holatining o'zgarishini hisobga olgan holda korxonaning faoliyati asoslarini ta'minlamog'i lozim.

Moliyaviy va xo'jalik mustaqilligini mavjud sharoitida korxonaning o'zi mustaqil tarzda o'zining rejalarini ishlab chiqadi va bunda uning yagona maqsadi-xo'jalikni yuqori samaradorlikka etkazishdir. Shuning uchun ham moliyaviy rejalashtirishda katta e'tiborni korxonaga o'zining ichki rezervlarini to'liq namoyon qilishga, ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanishga, moddiy mehnat va pul resurslardan unumli foydalanishga, ishlab chiqarishni to'g'ri va yaxshi tashkil qilishga va boshqalarga qaratilgandir.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq o'zgarishlar moliyaviy rejalashtirish usullarida o'z aksini topadi. Agar yaqin vaqt ichida bozorning konyukturasini va u

bilan bog'liq korxonaning amal qilishi to'g'ri va aniq hisob-kitob qilingan bo'lsa, unda korxonaning taraqqiyoti uzoq muddatli jarayonlar orqali faqatgina prognozlashtiriladi.

Shuning uchun ham moliyaviy rejalashtirish, bir tomondan yaqin vaqt ichida moliyaviy ko'rsatkichlarni aniq hisob-kitobiga va ularning belgilangan moliyaviy xujjatdagi balans bog'lanishiga qaratilsa, ikkinchi tomonda extimollik va ko'p variantlik xarakterga ega bo'lgan prognoz hisob-kitoblariga qaratilgandir.

Moliyaviy rejalashning yangi mazmuni bosh vositasini ham talab qiladi, ya'ni avval moliyaviy ko'rsatkichlarni hisob-kitobida foydalanilgan usullar qatorida, iqtisodiy matematik usullardan va modellashtirishdan keng foydalanish zarurdir.

Bir yil davomida qamrab olingan moliyaviy jarayonlar o'z aksini korxonaning moliyaviy rejasida topadi.

Moliyaviy reja avvalgidek daromadlar va xarajatlar balansi shaklida daromadlarning va yig'implarning kelib tushishi, mablag'larning sarflanishini aks ettiruvchi korxonalar moliya xo'jalik faoliyatining hamma tomonlarini aks ettiradi. Albatta, bunda balansning tuzilishi korxonalar faoliyatining barcha sohalarini bo'yicha ishlab chiqilgan, ya'ni ishlab chiqarish, maishiy, investitsion, ijtimoiy va boshqa faoliyatlari bo'yicha reja hisob-kitoblaridan foydalanishni talab etadi.

Daromadlar va harajatlar balansi bozor iqtisodiyoti sharoitida rioya qilish shart bo'lgan bir necha umumiy tamoyillari bo'yicha boshqarilishi kerak. Shuning uchun ham moliyaviy resurslardan foydalanishning aniq yo'nalishini aniqlayotgan paytda tushayotgan tushum darajasining farqini hisobga olish va xarajatlarni tanlash va bu orqali yuqori rentabellikni ta'minlash nazarda tutilmog'i lozim.

Uzoq muddatli sarf xarajatlarni tanlashda eng iqtisodli moliyalashtirish usullarni ko'zda tutmoq lozim.

Daromadlar va harajatlar balansini tuzayotgan paytda albatta korxonalar faoliyatiga kuchli ta'sir qiluvchi inflyatsiya jarayonini hisobga olish kerak. Ishlab - chiqarish xo'jalik faoliyatidan keluvchi foyda, ya'ni amortizatsiya ajratmalarining kelib tushishi, ishlab chiqarish sferasiga va ijtimoiy infratuzilmasiga keluvchi kapital qo'yilmalariga kelgan harajatlar, korxonalar uchun bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarga to'lovlar, rezerv fondiga badallar inflyatsiya ta'sirida bo'ladilar. Shuning uchun ham daromadlar va harajatlar balansida inflyatsiyaning o'sish indeksini hisobga olgan holda ularning korrektilrovkasini nazoratda tutmoq lozim. Korxonaning moliyaviy rejasida ko'rsatkichlarning umumiy doirasi bo'yicha reja hisob - kitoblarining yakuniy natijalari ko'rsatiladi. Bu ko'rsatkichlar turli hil moliyaviy resurslarning kelib tushishi va ulardan foydalanishning yo'nalishlarini xususiyatlaydi.

Korxonaning daromadlar va xarajatlar balansining mazmuni moliyaviy jarayonlarni aks ettirib, tarkibiy tuzilishi 4 ta bo'limdan iborat.

1 – bo'lim. "Daromadlar va mablag'larning kelib tushishi". Bunga barcha bankdan va davlatdan (byudjet va byudjetdan tashqari fondlar) kelib tushadigan mablag'lardan tashqari, korxonaning barcha moliyaviy resurslari kiradi. Bu bo'limning ko'rsatkichlari tarkibiga quyidagilar kiradi: asosiy faoliyatdan kelgan foyda, qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar va dividendlar, ilmiy tadqiqot xarakteridagi shartnoma bo'yicha ishlardan keladigan daromadlar, amortizatsiya

ajratmalari, hisobdan chiqarilgan mulkning sotilishidan tushgan mablag'lar va boshqalar.

2 – bo'lim: "Xarajatlar va mablag'larni ajratish". U o'zida ishlab chiqarishni kengaytirishga moliyaviy resurslardan foydalanishni, faoliyatning eng yaxshi natijalarini iqtisodiy rag'batlantirishni, operativ va boshqa xarajatlarni aks ettiradi. Bu bo'lim o'z ichiga qo'yidagilarni oladi: kapital qo'yilmalar, iqtisodiy qo'yilmalar, rivojlanish fondiga ajratmalar, qimmatli qog'ozlarni xarid qilishga ketgan xarajatlar, turli xil ajratmalar va boshqalar kiradi.

3 – bo'lim: "Korxonaning bank muassasalari bilan o'zaro kredit munosabatlari". Bunda korxonaning olgan ssuda bo'yicha qarzlari nazarda tutiladi, ularning qaytarilishi va kreditdan foydalanishi uchun foiz to'lovlari aks ettiriladi: Bu bo'lim 2 qismdan iboratdir: daromad qismida korxonaning olgan ssudalari aks ettiriladi, xarajat qismida – ularning vaqti bilan qaytarilishi va ulardan foydalanganlik uchun foiz to'lovlari aks ettiriladi.

4-bo'lim: "Korxonaning byudjet va byudjetdan tashqari fondlar bilan o'zaro munosabatlari". Bu bo'limga bir tomondan byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan mablag'larning kelib tushish tartibi aks ettiriladi.

Notijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilot va muassasalar o'zlarining moliyaviy rejalarini mustaqil ravishda ishlab chiqadilar. Bunda byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtirilgan muassasalar xarajatlar smetalarini tashkil qiladilar, o'zining talablariga nafaqat byudjet mablag'lari hisobiga, balki moliyaviy resurslarning boshqa xil turlari bilan javob bergan tashkilot, muassasalar xarajatlar va daromadlar smetalarini ishlab chiqaradilar. Tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarning moliyaviy rejalaridan smetaning asosiy farqi shundan iboratki, smetada xarajatlar to'liq ko'rsatiladi, daromadlar esa turli xil manbalarning qismlaridagina namoyon bo'ladi.

Shu munosabat bilan soliq to'lovlarini byudjet yoki byudjetdan tashqari fondlarga qay tarzda to'lanish usullarini ko'rib chiqish lozim.

Soliq qonunchiligiga asosan ular 3 usuldan iborat:

- Pulli, ya'ni naqd pulli yoki naqd pulsiz;
- Mol-mulk hisobiga to'lash (natura holda), shu jumladan valyuta mablag'larini va qimmatbaho qog'ozlarini;
- Mol-mulkni musodara qilish va debitorlik qarzlari hisobiga;

Ko'rsatib o'tilgan soliq to'lash usullarini to'lanishiga ko'ra ham guruhlash mumkin, ya'ni o'z ish haqi bilan mustaqil to'lash yoki uning majburiy undirilishi, soliq to'lovchi to'lovni soliq organlari qistoi bilan amalga oshiradi, masalan: soliq organlarining soliq boqimandalarini soliq to'lovchilarning mol-mulki yoki debitorlik qarzlari hisobiga qoplaydilar, (agar ular pul mablag'lariga ega bo'lmasa). Lekin aksariyat to'lovlar so'mdanaqdsiz hisob-kitob yo'li bilan amalga oshiriladi, ya'ni soliq to'lovchining bankdagi hisob-kitob raqamidan berilgan to'lov topshiriqnomasiga asosan shu bankdagi byudjet raqamiga o'tkaziladi.

Soliq to'lovlarining asosiy manbai yuridik shaxslarning daromadi hisoblanib, ular quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Avvalo qonunchilik asosida bilvosita soliqlar hisoblanadi;

- Keyin egri soliqlardan tashqari barcha umumdavlat soliqlari ham er va mol-mulk solig'i hisoblanadi;

- So'ngra soliq qonunchiligiga muvofiq foyda (daromad) solig'i hisoblanadi;

- Nihoyat boshqa mahalliy soliqlar va yig'imlar hisoblanadi.

Soliqlarni byudjetga o'tkazish uchun hisoblangan soliq summalarini yuqorida ko'rsatilgandek qo'llangan holda amalga oshirilishi kerak.

Demak soliqlarni byudjetga o'tkazish va hisobini olib borish to'g'ri tashkil etilgandagina byudjetga tushadigan mablag'lar barqarorlashadi.

4. Korxonalar faoliyati turlari, mulk shakllari va boshqa belgilariga ko'ra yig'ma jadvallar tuzish uslubiyoti va uni yanada mukammallashtirish yo'llari.

Soliq byudjet tizimining isloh qilinishi uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

1. Soliqqa tortish tizimini bir xillashtirish borasidagi ishlar;

2. Resurs soliqlari va to'lovlari borasida;

3. Soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish borasida;

4. Foyda solig'i borasida;

5. Qo'shilgan qiymat solig'i borasida;

6. Byudjetning daromadlarini mustahkamlash borasida muhim o'zgartirishlar va shu masalalar bo'yicha byudjet tasdig'ida keng miqyosida tahlil qilishni rejalashtirish va kelajakda amalga kiritish kerak.

Davlat xarajatlari siyosatining yaqin istiqboldagi asosiy yo'nalishi davlat sarflaydigan mablag'lardan foydalanishi samaradorligini oshirish va ularning aniq maqsad va manzilga yo'naltirish tamoyilidan iborat bo'ladi. Byudjet siyosatining makroiqtisodiy nisbatlarini tartibga solishning samarali vositasi ekanligini hisobga olib davlat byudjetining shakllanishida inflyatsiya darajasini pasaytirish asosida ishlab chiqarishning barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy qudratni yanada oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, moliyaviy resurslarni iqtisodiyotni rivojlantirishning ustivor yo'nalishlaridan to'plash vazifalari o'rtaga qo'yiladi.

Ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi, aholining turmush darajasini oshirish uchun shart-sharoitlarning yaratilishi byudjet siyosatining muhim vazifasidir.

Tayanch iboralar.

xududiy iqtisodiyot

moliyaviy prognozashtirish

xududni moliyaviy resurslari

soliqli va soliqsiz to'lovlar

byudjetni rejalashtirish

boshqariladigan soliqlar

biriktirilgan soliqlar

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Xududiy iqtisodiyot nima?
2. Xududni moliviy resurslariga nimalar kiradi?
3. Korxonalarni ma'lumotlari bo'yicha soliqlarni prognoz qilishda qaysi ma'lumotlardan foydalaniladi?
4. Korxonalarning daromad va xarajatlar balansining tuzilishi qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 2,3,6,7,9,10,11,12,15,17,18,25.

Qo'shimcha adabiyotlar: 20,23,27,28.

4-mavzu: Soliq to'lovchilar guruhlari bo'yicha soliq tushumlari tahlili (4 soat)

1. Soliqlarni prognoz qilishda soliq to'lovchilarni guruhlash.
2. Faoliyat turlariga qarab, korxonalarining soliq tushumlarini tahlil etish.
3. Buxgalteriya hisoboti asosida moliyaviy xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari. Korxonalar soliq tushumlariga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar.
4. Ayrim alohida ko'rsatkichlarning o'rtacha me'yoriy miqdorlardan farqlanish, sabablarini o'rganish. Jismoniy shaxslardan soliq tushumlari.
5. Hududlar (viloyat, shahar, tuman) bo'yicha soliq tushumlari tahlili.

1. Soliqlarni prognoz qilishda soliq to'lovchilarni guruhlash.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq to'lovchilarni ikki guruhga bo'linadi : yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar

Soliq to'lovchilar - qonun hujjatlariga ko'ra soliq to'lash majburiyati yuklangan jismoniy va yuridik shaxslar hamda to'lovchilarning boshqa toifalari.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida (13-modda) xilma-xil mulk shaklidagi birlashmalar, korxonalar va tashkilotlar qisqacha yuridik shaxslar deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasining asta sekin ijtimoiy himoyalangan erkin bozor iqtisodiyotiga o'ta borishi respublikada o'rta va kichik biznes faoliyatiga qulay sharoitlar yaratilayotganligi xilma-xil mulk shaklidagi: xususiy, kooperativ, shirkat, aksioner va qo'shma korxonalar orqali tadbirkorlikni rivojlantirishga keng sharoit yaratilmoqda. Buning hammasi soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxslar sonini ko'payishiga olib kelmoqda. 2001 yilda kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi o'sib 24,5 foizni tashkil etdi. Jami 250 mingdan ortiq yuridik shaxslar mavjud, shu jumladan 200 mingdan ortig'i kichik korxonalar va firmalardir.

Yuridik shaxs deb o'zining ixtiyorida, qaramog'ida, foydalanishida mulkka ega bo'lgan, o'zining majburiyatlarini shu mulk bilan qaytara oladigan, buxgalteriya balansi hamda bankda hisob schyotiga ega bo'lgan shaxslarga aytiladi. Yuridik shaxslarning statistika organlarida o'z faoliyat kodlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Soliq to'lovchi yuridik shaxslarni iqtisodiyotni tarmoq va sohalariga qarab sanoat, transport, qurilish, qishloq xo'jaligi, kommunal xo'jaligi, aloqa va boshqalar bo'lishi mumkin. Faoliyat turlariga qarab ishlab chiqarish, tayyorlov, vositachilik, birja, banka xizmatlari va boshqalar, turlarga bo'lish mumkin.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak yuridik shaxslar foydasiga soliqni to'lovchilari bo'lishi uchun quyidagi shartlarga ega bo'lishi zarur:

1. Biror faoliyatdan daromad (foйда)ga ega bo'lishi;
2. o'zining mulkiga ega bo'lishi;
3. Mustaqil buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;
4. Bankda hisob schyotiga ega bo'lishi zarur.

Shu ko'rsatkichlarning birortasi yo'q bo'lsa xam bunday yuridik shaxs soliq to'lovchi bo'la olmaydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foйда) solig'ining to'lovchilar mulkchilik shakliga qarab quyidagicha guruxlanadi:

- 1.Davlat mulki shaklidagi korxonalar.
- 2.Jamoa mulki shaklidagi korxonalar.
- 3.Xususiy korxonalar

Yuridik shaxslardan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, iqtisodiyotning tarmoq va sohalari bo'yicha quyidagi guruxlarga bo'linadi:

1. sanoat korxonalar
2. qurilish tashkilotlari
3. qishloq xo'jalik korxonalar
4. ta'minot sotish, vositachilik tashkilotlari
5. transport
6. banklar
7. sug'urta tashkilotlari
8. savdo korxonalar
9. umumiy ovqatlanish korxonalar
- 10.maishiy va kommunal xizmat korxonalar
- 11.madaniy-ma'rifiy, tomosha-ko'ngilochar muassasalar
- 12.medsina muassasalari
- 13.birjalar
- 14.aksionerlik jamiyatlari va sherikchiliklari
- 15.mas'uliyati cheklangan jamiyatlar
- 16.jamoa tashkilotlari
- 17.xorijiy firmalar, yuridik shaxs va jismoniy shaxslar ishtirokidagi qo'shma korxonalar.
- 18.kichik korxonalar
- 19.kooperativlar
- 20.xo'jalik yuritishning boshqa shaklidagi korxonalar.
- 21.Uzbekiston Respublikasida davlat byudjetiga tulanadigan solik va yigimlarning xal kiluvchi kismini yuridik shaxslar tulaydi.

3. Buxgalteriya hisoboti asosida moliyaviy xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari.

Korxonalar soliq tushumlariga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganidek: «...makroiqtisodiy nisbatlar, inflyatsiyani pasaytirish, pul xajmini va davlat byudjeta taqchilligini cheklash - bularning barchasi bozor mexanizmiga amal qilishning, iqtisodiy, moliyaviy barqarorlikning va sobitqadamlik bilan o'sishning muqarrar, eng muhim shartidir».²

Yuridik shaxslar tulaydigan soliklar va yigimlar tarkibi quyidagilardan iboratdir:

1.Umumdavlat (Respublika) byudjetiga tulaydigan soliklar va yigimlar xisobidan yuridik shaxslar tulaydigan soliklar:

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda)ga solik;

Kushilgan qiymat soligi;

Aktsiz soligi;

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun solik;

Ekologiya soligi;

Bojxona boji;

Davlat boji;

Kimmatli kozoqlarni ruyxatdan utkazish yigimi;

DAN yigimi;

Jarimalar;

Boshqa tulovlar.

2.Maxalliy byudjetga tulaydigan soliklar va yigimlarning xisobidan:

Mol-mulk soligi;

Er soligi;

Kichik biznes uchun yagona solik;

Infratuzilmani rivojlantirish soligi;

Savdo xukukini olish yigimi;

Tadbirkorlik bilan shugullanuvchi yuridik shaxslarni ruyxatdan utkazish yigimi.

Yuridik shaxslarni solikka asosiy zaruriyatlaridan biri bu davlat byudjetini mablag bilan ta'minlashdir.

Yuridik shaxslar o'zlariga yuklatilgan soliqlarni hisoblash va byudjetga o'z vaqtida, to'liq to'lash javobgarligini olganlar.

Ularning to'laydigan soliqlari asosan naqd pulsiz, ya'ni korxonalar, tashkilot, birlashmaning bankdagi hisob schyotlaridan mablag'ni o'chirib, respublika yoki mahalliy byudjet schyotlariga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi. Qoida bo'yicha har qanday yuridik shaxs o'z soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan vaqtda byudjetga to'liq o'tkazishga majburdirlar. Buning uchun ular soliq va boshqa to'lovlarning muddati kelgan kungacha pullarni o'tkazish hujjatlari bo'lmish to'lov topshirig'i, cheklarni yozib banklarga topshirgan bo'lishlari kerak.

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.- T.; «O'zbekiston», 1998.- 369 bet.

Agar to'lov topshiriqlari o'z muddatida yozilib banklarga topshirilmagan bo'lsa soliq idoralari o'zlarining inkasso-to'lov talabnomalari orqali undirib oladilar.

Har bir o'z vaqtida byudjetga o'tkazilmagan kun uchun o'tkazilishi kerak bo'lgan soliq summasi hisobidan 0,07 foiz penya hisoblanib soliqqa qo'shimcha ravishda byudjetga majburiy undiriladi. Albatta penya summasining ko'payishi korxonaning moliyaviy holatiga salibiy ta'sir ko'rsatadi. Peniya korxonaga uchun qo'shimcha soliqdir.

Yuridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to'lanadi. Biroq, ayrim yig'implar (davlat va bojxona bojlari) naqd pulli bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslar soliqlarini naqd pulsiz to'lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o'tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy xarajatlar tejaladi.

4. Jismoniy shaxslardan soliq tushumlari. Hududlar (viloyat, shahar, tuman) bo'yicha soliq tushumlari tahlili.

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bunday shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqorolari, fuqoroligi bo'lmaganlar va chet el mamlakatlari fuqorolari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarga bo'lingan. Davlat byudjeti daromadlarining 75 foizidan ortig'ini yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar tashkil etadi. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliq va yig'implar esa qarayib byudjet daromadining 25 foizini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning to'g'ridan-to'g'ri o'z daromadidan olinadi. Soliqlar va yig'implar asosan byudjetga naqd pul to'lash yo'li bilan o'tkaziladi, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatidan qat'iy stavkali soliq oldindan to'lab qo'yiladi.

Shunday ekan bu erda soliq to'lovchi jismoniy shaxs bilan soliq undiruvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri pul munosabatlari mavjud.

Shuning uchun jismoniy shaxslar soliqlarini undiruvchi inspektorlar o'ta madaniyatli, shirin so'z bo'lishi bilan birga jismoniy shaxslar soliqlarini hisoblash undirish tartib-qoidalarini, soliq qonunchiligini chuqur bilishi kerak. Shu shartlar bajarilgan taqdirda byudjetga jismoniy shaxslardan me'yorida soliq va yig'implar to'liq tushishligi ta'minlanadi.

Jismoniy shaxslar soliqlarini hisoblab chiqarish asosan ikki yo'l bilan olib boriladi.

1. Jismoniy shaxslarga daromadlar to'lovchi yuridik shaxslar o'zlarida mavjud bo'lgan hujjatlar asosida ularning soliqlarini hisoblaydilar.

2. Yuridik va jismoniy shaxslar taqdim qilingan ma'lumotnoma va xabarnomalar asosida soliq xizmati idoralari tomonidan hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga xo'jalik mehnat shartnomasi, fuqorolik-huquqiy shartnomalari bo'yicha ish haqi mukofot va boshqa qator daromadlar to'lovchi korxonaga, tashkilot, muassasa soliqlarini to'liq to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida byudjetga o'tkazib berish javobgarligini o'z zimmlariga oladilar. Fuqorolarning olgan daromadlari to'g'risida soliq idoralarga hamda fuqoroga bildirish va ma'lumotnoma yozib berish vazifasini ham yuridik shaxslarga yuklatilgan.

Yuqoridagi hujjatlar va o'zlaridagi yig'ilgan ma'lumotlar, tekshiruv dalolatnomalari asosida soliq idoralari jismoniy shaxslar uchun soliq hisobini tuzib, ularga soliq summasi va to'lov muddatlari ko'rsatilgan xabarnomalarni yuboradilar. Bulardan tashqari, yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlikning ayrim turlari bilan shug'ullanuvchilar qat'iy stavkasida daromad solig'ini to'laydilar.

Er solig'i, mol-mulk soliqlarini ham soliq idoralari qayta har yili hisoblab chiqib, jismoniy shaxslarga xabarnoma orqali etkazadilar. Xabarnoma olgan jismoniy shaxslar ko'rsatilgan muddatda barcha soliq va yig'implar summasini o'z vaqtida to'lashga majburdirlar. Shu erda fuqorolardan olinishi lozim bo'lgan biror bir soliq to'lanmay qolsa soliq idoralari javob beradi.

Shunday holatda er solig'i, mol-mulk solig'i uch yil to'lanmagan bo'lsa uni peniya hisoblanmasdan undiriladi.

Soliqlar va yig'implar o'z vaqtida to'lanmaganda «boqimanda» deb ataladi. Uning mazmuni muddatida to'lanmagan to'lovlardir. Ana shu boqimanda summasiga har bir to'lanmagan kun uchun 0,07 foiz penya soliq summasiga qo'shimcha hisoblanib undirib olinadi. Avvalo soliq summasi so'ng penya, so'ng jarimalar undiriladi. Boqimanda uzoq muddatga to'lanmasa fuqoroning mulki ro'yxat qilinib xalq sudiga beriladi. Chet elda esa soliqlar to'lab borishini og'zaki va yozma ogohlantirishlari, qarzlarni komissiyada ko'rib chiqish tajribalari mavjud.

Tayanch iboralar:

to'lov topshirig'i

penya

soliq javobgarligi

soliq sub'ektlari

rezident va norezidentlar

soliq imtiyozlari

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Soliq to'lovchilar kimlar va ular qanday guruhlanadi?
2. Mulkchilik shakliga qarab soliq to'lovchilar qanday guruhlanadi?
3. Rezident va norezident nima?
4. Soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan daromadlarga nimalar kiradi?
5. Soliq to'lovchilarning xuquq va majburiyatlariga nimalar kiradi?
6. Soliq to'lovchilarni ikki yoqlama soliqqa tortish qanday bartaraf etiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 2,6,7,9,11,12,17,18,19.

Qo'shimcha adabiyotlar: 19,20,21,22,24,24.

5-mavzu: Soliq to'lovlarining korxonalar moliyaviy holatiga ta'siri (2 soat)

1. Soliqlarni prognoz qilishda sub'ektlarning faoliyat turlariga qarab, soliqlar va to'lovlar ta'siri bo'yicha jadvallar tuzish.
2. To'g'ri va egri soliqlarning korxonalar faoliyatiga ta'sirini taxlili.
3. To'g'ri va egri soliqlarning korxonalar faoliyatiga ta'sirini o'rganish soliq yukidagi salmog'i.

1. Soliqlarni prognoz qilishda sub'ektlarning faoliyat turlariga qarab, soliqlar va to'lovlar ta'siri bo'yicha jadvallar tuzish.

Bevosita soliqlar salmog'ini kamaytirish hisobiga bilvosita soliqlar ulushini oshirish, soliq yukini ishlab chiqaruvchilar zimmasidan iste'molchilar zimmasiga o'tkazish bevosita soliqlar korxonalar hamda fuqarolarning moliya-xo'jalik faoliyatiga, ya'ni ularning daromadlari hajmiga bevosita ta'mir ko'rsatishi bilan bog'liq. Bevosita soliqlarning kamayishi bilan ishlab chiqarishning rivojlanishi rag'batlantiriladi, tegishli soliqqa tortish bazasi kengayib, byudjetga tushumlar ortadi. Bevosita soliqlar stavkalarini kamaytirish va bilvosita soliq'larga tortish bazasini kengaytirish orqali bunga erishish mumkin. Bundan tashqari, soliq stavkalarini yanada ko'proq pasaytirish yo'li bilan ayrim yo'nalishlar – eksport, xorijiy investitsiyalar va boshqalar rag'batlantiriladi.

Yuridik shaxslarning byudjetga tulaydigan soliklari tugri va egri solik'larga va mulk-resurs solik'larga bulinadi. Yagona davlat byudjeti daromadlari tarkibida ularning salmogi kuyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi.

2005 yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining jami daromadlarining 69 foizdan ortig'ini soliqlar tashkil etishi ko'zda tutilmoqda. (2-jadvalga qaralsin)

2 –jadval*

2005 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Kqrsatkichlar	Mln. sqm.	Jami daromadlarga nisbatan % hisobida
I. Davlatsiz maqsadli fondlar daromadlari-jami	3310854	69,98
1. Tqg'ri soliqlar	865830,2	18,30
1.1 Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'i	209331,4	4,42
1.2 Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromad solig'i	66992	1,42
1.3 Soliq tqlashning soddalashtirilgan shakliga qtgan mikrofirmalar va kichik korxonalardan olinadigan yagona soliq	80722	1,71
1.4 Jismoniy shaxslar daromad solig'i	465641,1	9,84

1.5 Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat'iy belgilangan soliq	43143,7	0,91
2. Bilvosita soliqlar, jami	1627909,5	34,41
2.1 Qo'shilgan qiymat solig'i	748938,2	15,83
2.2 Aktsiz solig'i	692628,9	14,64
2.3 Bojxona boji	66139,8	1,40
2.4 Yagona bojxona tqlovi	56869,3	1,20
2.5 Jismoniy shaxslar tomonidan iste'mol qilingan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun soliq	63333,3	1,34
3. Resurs tqlovlari va mulk solig'i	629770,4	13,31
3.1 Mol-mulk solig'i	109064,8	2,31
3.2 Er solig'i	87411,9	1,85
3.3 Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	333867,7	7,06
3.4 Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	13298	0,28
3.5 Ekologiya solig'i	86128	1,82
4. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlan-tirish va obodonlashtirish uchun soliq	52169,4	1,10
5. Boshqa daromadlar va soliqsiz tushumlar	135174,5	2,86
II. Moliya Vazirligi qoshidagi nobyudjet maktab ta'limi daromadlari fondi	146007	3,09
III. Davlat maqsadli fondlari daromadlari (Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya fondi, Respublika yql fondi, Davlat bandlik fondi, Davlat mulk qqmitasi maxsus schyoti)	1274001,1	26,93
Jami daromadlar	4730862,1	100,00

*- jadval O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini "O'zbekiston Respublikasining 2005 yilgi davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 610-sonli Qarori asosida tayyorlandi.

Ishlab chiqarish sektori zimmasidagi soliq yukini kamaytirish asosan korxonalar daromadini soliqqa tortish darajasini pasaytirish vositasida amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida korxonalar uchun belgilangan soliqlarning yuqori stavkalari ijobiy natijalar bermadi, ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni texnik jihatdan qayta qurollantirish uchun etarli mablag'larni yo'naltirish imkonini bermadi. Respublika hukumati buni hisobga olgan holda foyda solig'i stavkasini bosqichma – bosqich pasaytirish maqsadli siyosatini yuritib kelmoqda: 1995 yilda joriy etilgan davridan boshlab uning stavkasi 38 foizdan 2002 yilda 24 foizgacha yoki 14 foizlik punktga pasaytirildi, 2005 yilga kelib uni 15 foizgacha pasaytirildi.

2. To'g'ri va egri soliqlarning korxonalar faoliyatiga ta'sirini taxlili.

Ayni paytda oddiy ishlab chiqarish korxonasi atigi 5 ta asosiy soliq - foyda solig'i, QQS, mol-mulk, er va ekologiya soliqlarini to'laydi. Buning ustiga ularni hisoblab chiqarish va to'lash mexanizmini yanada soddalashtirish davom etmoqda. Xususan, **qo'shilgan qiymat solig'ini** to'lash mexanizmi ichki va ayniqsa tashqi soliqqa tortishda – mo'ljallangan joyiga qarab xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. QQS bo'yicha yagona stavkaning qabul qilinishi hisob va hisob-kitob jarayonlarini ancha soddalashtirdi. Bundan tashqari, hisobvaraqa fakturalar tizimining joriy etilishi soliq hisobi va hisoblab chiqarilishi ustidan nazoratga avtomatik tus berdi. Har yili unga doir bo'nak to'lovlari to'lash muddatlari miqdori qisqarib bormoqda.

Biroq bunda asosiy muammo - QQS to'lashdan ozod qilish muammosi hal etilmay qolmoqda. Bundan soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan biri – adolatlilik tamoyili buzilmoqda, chunki ushbu soliqni to'lamaydiganlardan mahsulot sotib oluvchi, mazkur soliq to'lovchilarining soliq yuki ortmoqda. Shu tariqa QQSni bixillashtirish va soddalashtirish masalasida kelgusida unga doir barcha imtiyoz va istisnolarni bekor qilish asosiy yo'nalish tusiga ega bo'ladi.

Foyda solig'i bo'yicha, yuqorida aytib o'tilganidek, yil sayin soliq yuki kamaytirilib borilmoqda. Bunda 2002 yilgi davlat byudjeti daromadlarida foyda solig'i salmog'i 11,3 foizni tashkil etdi, 2004 yilda 9,7 foiz darajasida bo'ldi. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq 2003 yilda 12,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2004 yilda 12,4 foizni tashkil qildi. Byudjet daromadlari tarkibida to'g'ri soliqlarning tutgan o'rnini tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy o'rinlarni yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i egallamoqda, yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini salmog'i esa tahlil qilinayotgan yillar ichida ham deyarli o'zgarmagan.

Fikrimizcha, foyda solig'i stavkasini yanada pasaytirish soliq undirishning quyi pog'onasiga yaqinlashib qolganligimiz tufayli maqsadga muvofiq emas. Ayni paytda xorijiy mamlakatlarda daromad (foyda) solig'i – korxonalarining barcha xarajatlari chegirilganda to'lanadigan korporativ soliq 18 foizdan 45 foizgacha boradi. MDH mamlakatlari orasida eng quyi stavka O'zbekiston va Rossiyada -24 foiz, Ukrainada -30 foiz. Olis xorijda eng quyi stavka Vengriyada -18 foiz, eng yuqori stavka Germaniyada -45 foiz.

2004-2005 yillarda mazkur soliq bo'yicha tushumlarni quyidagi yo'nalishlarda yanada takomillashtirish nazarda tutilmoqda:

- Qaytar tartibda soliq solinadigan daromadga kiritiladigan soliq solinadigan bazadan chegirmalarni kengaytirish hisobiga. Bunday xarajatlarning o'rtacha ulushi 20 foizdan 40 foizgacha etadi;
- 2002 yilda va 2004 yil uchun loyihada mahalliy byudjetga kelib tushadigan **infratuzilmani rivojlantirish solig'i** amal qiladi, 2002 yilda uning YaIMdagi ulushi 0,4 foiz darajasida yoki 28,4 mlrd. so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bunda bir marta foyda solig'i undirilgan korxonaning sof foydasi soliqqa tortish bazasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan bixillashtirish maqsadida kelgusida infratuzilmani rivojlantirish

solig'i stavkasini asta-sekin pasaytirish mumkin, deb hisoblaymiz (ayni paytda 8 foiz);

- Xolislik va adolatlilikni ta'minlash hamda soliqqa tortishdan qochish dalillarini bartaraf etish maqsadida daromad (foyda) solig'iga doir imtiyozlarni bekor qilish masalasini ko'rib chiqish. Bugungi kunda bunday imtiyozlar berish davlatga yiliga 10-12 mlrd. so'mga tushyapti.

Yuridik **shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish** respublikada sekin-asta xalqaro tizimga - birlamchi (tarixiy) qiymatdan soliq undirishdan qoldiq qiymatdan soliq undirishga o'tkazilgan. Asta-sekin stavka pasaytirilib, bazasiga ko'ra bir xil yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i va transport vositalariga solinadigan soliq birlashtirildi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliq joriy etilishi bilan bir paytda jismoniy shaxslarga solinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortiladigan bazasidan transport vositalari qiymati olib tashlandi.

Kichik korxonalar uchun soliq va yagona er solig'i kabi soliqqa tortishning soddalashtirilgan usullar joriy etilishi soliq mexanizmini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirishning boshqa muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Kichik korxonalar uchun yagona soliqning joriy etilishi aholi orasida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlarning borishi bilan shartlandi. U joriy etilgandan so'ng ikki yil davomida byudjetga to'lanayotgan summa qariyb 3 barobar ortdi. Soliqqa rejimlari va ularni qo'llash chog'ida soliq tushumlari (umumbelgilangan soliqlar, yagona soliq, yalpi daromad solig'i, yagona er solig'i) hajmlarining arkibiy tahlili ushbu toifadagi soliq to'lovchilarning respublika bo'yicha soliq tushumlari umumiy hajmidagi salmog'i ortgani va 2001 yilda 6,9 foizga etganini ko'rsatdi.

Kichik korxonalarni soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini tanlagan sub'ektlar sonining ko'payishi omillari tahlili soliq yukini qisqartirish maqsadida yirik va o'rta korxonalarni parchalash, ular bazasida bir qator mayda korxonalar yaratish (ishlovchilar soniga ko'ra kichik korxonalar mezonlariga mos keluvchi) hisobiga kichik biznes sub'ektlari soni ortayotganini ko'rsatdi.

Shu munosabat bilan soliq solishning soddalashtirilgan tizimini keng yoyish uchun Yaponiya, XXR, Rossiya, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda nazarda tutilganidek, qo'shimcha mezon-korxonalar balansida turgan mol-mulk va tushum hajmi qiymatini joriy etish masalasini ko'rib chiqish mumkin, deb hisoblaymiz.

Yagona er solig'i to'lovchilarning boshqa muammosi bor, bu soliq **qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun** soddalashtirilgan, tartibga soluvchi va resurs tejovchi soliq sifatida bo'lishi nazarda tutilgan edi. Biroq tahlil qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalari bazasida amaldagi qonun xujjatlariga ko'ra faqat yagona er solig'i to'lovchilari hisoblanuvchi turli tuzilmalar (jumladan, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari) ham tashkil topayotganini ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan, qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'lmagan faoliyat yurituvchi qishloq xo'jalik korxonalari uchun, agar ushbu boshq faoliyatdan tushgan tushum ulushi korxonalar daromadi umumiy summasida belgilangandarajadan ortiqni tashkil etsa, soliq to'lovchilarning tegishli toifasi uchun amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan soliqlarni to'lash tartibini belgilash taklif qilinmoqda.

Resurs soliqlari er, suv, er osti boylklari kabi muhim resurslarning tejalishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Bunda korxonalar manfaatlarini hisobga oladigan, resurslarning tejalishini ta'minlaydigan va bir vaqtning o'zida resurslarni tejoychi ishlab chiqarishlarni rag'batlantiradigan soliqlarning maqbul stavkalarini joriy etish muhim sanaladi.

Asosiy resurs tejoychi soliqlardan biri **er solig'i** (jumladan, yagona er solig'i) hisoblanadi. Amaldagi er solig'i stavkalari er boniteti darajasidan kelib chiqib belgilangan, bunda so'ngi paytlarda er solig'i stavkalarida (har yilgi indeksatsiyadan tashqari) sezilarli o'zgarish ro'y bermadi.

Ayni paytda o'z echimini kutib turgan ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, qishloq xo'jalik korxonalari va erlari tarkibidagi katta o'zgarishlar munosabati bilan sug'oriladigan erlarning yalpi inventarizatsiyasini o'tkazish va soliq stavkalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylaymiz.

Aylanma mablag'lar, asosiy fondlardan foydalaniish samaradorligiga, ularning o'z vaqtida yangilanishiga, mahsulot tannarxining kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi resurs tejaydigan boshqa soliqlar mol-mulk solig'i va ekologiya solig'i hisoblanadi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha, yuqorida aytib o'tilganidek, stavkalar pasaytirilmoqda, soliqqa tortishning adolatli ob'ekti-qoldiq qiymat belgilandi. Ayni paytda resurs tejaysh maqsadida o'rnatilmagan (foydalanilmayotgan) uskuna, shuningdek, tugallanmagan qurilishdan soliq undirish taklif etiladi, bu resurs tejayshni rag'batlantirish vositasining amal qilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, **ekologiya solig'i bo'yicha** korxonaning barcha xarajatlari, jumladan davr xarajatlarini ham mahsulot ishlab chiqarishda o'zini oqlamaydigan xarajatlarni kamaytirish maqsadida soliqqa tortiladigan bazaga kiritish taklif qilinadi.

Biz taxlil kilganda kurinib turibdiki yuridik shaxslar tulaydigan soliklar byudjet daromadlarining uchdan ikki kismidan ortigini tashkil etmokda. Bu soliklar davlat byudjeti xarajatlaringi moliyalashtirishda mustaxkamlikni uzviylikni ta'minlaydi. Ular asosan xar oyda va choraklarda uzluksiz tushib turganligi sababli byudjet xarajatlarini xam moliyalashtirishning uzluksiz, xal kiluvchi manbaiga aylangandir. Bu soliklarsiz byudjetni rejali moliyalashtirishning iloji yukdir. Shuning uchun ularning axamiyati byudjet daromadlarini shakllantirishda bekiyosdir.

Yuridik shaxslar soliklari pul muomalasini mustaxkamlashda xam katta axamiyatga ega. Tugri soliklar yuridik shaxslarning xarajlarga yunaltiradigan mablaglarini kiskartirib (masalan, investitsiyalarda) muomalaga chikishi lozim bulgan pullarni kamaytiradi. Masalan korxonaning 100 mln.sum daromadi bor. Agar undan 40 mln.sumi soliklar va yigimlar orkali byudjetga olinmasa, xamma 100 mln.sumni kapital xarajatlarga sarflar edi. Shu jumladan, 40 mln.sum taxminan ish xakiga ajratiladi. Solik summasi xissasiga teng bulgan ish xaki suummasi kiskarib muomalaga kam pul chikariladi.

Yuridik shaxslar tulaydigan egri soliklar esa muomalada yurgan ortikcha pullarni baxo oshirish yuli bilan byudjetga jalb kiladilarpul muomalasini mustaxkamlashda katta axamiyat kashf etadi. Soliklarning oshishi talabni kamaytiradi va taklifni oshiradi. Buesa emissiyani kamaytiradi. Yuridik shaxslardan solik undirish

jismoniy shaxslar va boshqa turdagi xujalik yurituvchi sub'ektlar (yuridik shaxslardan tashkari)dan solik undirishiga nisbatan kulayrokdir. Yuridik shaxslar soliklarni nakd pulsiz tulanishi va utkazish xujjatlari bilan davlat byudjetiga utkazilishi pul utkazishlarni tezlashtiradi, soliklarni teztushiradi, ijtimoiy xarajatlarni (pul tashish, pul pul tulas, pul saklash) iktisod kilinadi. Bu esa jamiyat mablaglarini tejaydi, ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Yukorida fikr yuritib utkanimizdek, yuridik shaxslarni solikka tortish davlat byudjetiga emas balki jamiyat iktisodiy xayotiga xam katta ijobiy ta'sir etishi kurinib turibdi.

Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni 2001 yilgi davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i 12,8 foizni tashkil etdi. Jismoniy shchaxslar daromadlarini soliqqa tortish aholi daromadlari darajasi kabi ijtimoiy masalalar bilan uzviy aloqadordir.

Jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq yukini kamaytirish va fuqarolar daromadlarini tegishli qonuniylashtirish maqsadida jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq shkalasi muntazam ravishda takomillashtirilmoqda. 1998 yildan boshlab 45 foizlik eng yuqori stavka bilan 5 darajali shkala qo'llanib kelgan. 2000 yilda eng kam oylik ish haqining 10 baravaridan oshuvchi daromaddan 40 foizlik eng yuqori stavka bilan 4 darajali shkala belgilandi.

Jismoniy shaxslar daromad solig'ini eng kam oylik ish haqini hisobdan chiqarmay hisoblab chiqarishning yangi uch darajali tizimiga o'tish hamda 2001 yildagi 36 foizlik stavkani 2002 yilda 33 foizgacha pasaytirish natijasida 2001 yilgi byudjet daromadlari tarkibida soliq salmog'i 2000 yilgiga nisbatan 1,4 fozlik punktga oshdi. Shu bilan birga 2002 yilda jismoniy shaxslar daromad solig'ining YaIMga nisbatan 3,3 foizgacha oshdi

Jismoniy shaxslar soliq yukini kamaytirish siyosati aholining, ayniqsa kichik va xususiy tadbirkorlik sohasidagi daromadlarini qonuniylashtirishga, byudjetga daromadlar tushumini yanada oshirishga yo'naltirilgan. Biroq shuni qayd etish lozimki, mazkur mexanizm jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash instituti mavjud bo'lgandagina samaraliroq ishlaydi. Aynan shchundan kelib chiqqan holda Prezidentning 2002 yil 5 sentyabrdagi PF-3127 – son Farmoniga muvofiq 2002-2005 yillarda respublikada jismoniy shaxslar jami daromadlarini yalpi deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutilmoqda. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish mazkur soliq stavkalarining o'sib borishini pasaytirish hisobiga aholining o'rta va yuqori daromadga ega guruhlari ortishini rag'batlantirish kontseptsiyasidan kelib chiqib amalga oshirilishi lozim. Bu hol o'rta va yuqori daromadga ega soliq to'lovchilarning qonunga zid operatsiyalar sohasidan qonuniy operatsiyalar sohasiga chiqishlariga imkon beradi.

Ishlab chiqarish sektori zimmasidagi soliq yukini kamaytirish asosan korxonalar daromadini soliqqa tortish darajasini pasaytirish vositasida amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida korxonalar uchun belgilangan soliqlarning yuqori stavkalari ijobiy natijalar bermadi, ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni texnik jihatdan qayta qurollantirish uchun etarli mablag'larni yo'naltirish imkonini bermadi. Respublika hukumati buni hisobga olgan holda foyda solig'i stavkasini bosqichma – bosqich pasaytirish maqsadli siyosatini yuritib

kelmoqda: 1995 yilda joriy etilgan davridan boshlab uning stavkasi 38 foizdan 2002 yilda 24 foizgacha yoki 14 foizlik punktga pasaytirildi, 2004 yilga kelib uni 20 foizgacha pasaytirish rejalatirilmoqda.

Bunda 2001 yilgi davlat byudjeti daromadlarida foyda solig'i salmog'i 11,3 foizni tashkil etdi, 2002 yilda 9,7 foiz darajasida bo'lishi prognoz qilinmoqda (2-jadval). Bundan tashqari, tovarlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida ayrim yuridik shaxslar, xususan quyidagilar uchun foyda solig'ining pasaytirilgan stavkalari belgilangan:

- bolalar assortimenti tovarlari va badiiy hunarmandchilik buyumlari, xotin-qizlar gigiena buyumlarini ishlab chiqaruvchilar;
- o'zi ishlab chiqargan tovarlarni EAVga eksport qiluvchilar;
- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar.

Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etilishni rag'batlantirish soliq siyosatining ustuvor jihatlaridan biri sanalib, ular investitsiyalarga bo'lgan keskin ehtiyoj muammosini ma'lum darajada hal etadi va joriy iste'mol uchun resurslarni oshirish imkonini beradi. Xorijiy investorlar uchun pasaytirilgan stavkalar va ayrim hollarda foyda solig'idan ozod qilishni nazarda tutuvchi foyda solig'iga tortish qulay tizimining yaratilishi qo'shma korxonalar sonining ortishiga olib keldi – so'nggi 5 yil ichida ularning soni ikki barobar ortdi va 3000 tadan oshdi.

Mahalliy mahsulot eksportini va mamlakatga erkin almashtiriladigan valyuta tushumlarini orttirish respublika iqtisodiy taraqqiyotining boshqa ustuvor vazifasi sanaladi. Mazkur vazifani muvaffaqiyatli hal etish uchun mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha bo'lganda mulkchilik shaklidan qat'i nazar eksportchi korxonaning foyda solig'i stavkasi 30 foizga pasaytiriladi, sotishning umumiy hajmida eksport ulushi 30 va undan ortiq foizni tashkil qilganda belgilangan stavka 50 foizga pasaytiriladi.

3. To'g'ri va egri soliqlarning soliq yukidagi salmog'i.

Soliqlarni bixillashtirish deganda biz bir xil soliqqa tortish bazasiga ega soliqlarni birlashtirish (yoki qo'shish)ni tushunasiz, bu esa soliq to'lovchilar va nazorat organlari uchun ayrim soliq jarayonlarini soddalashtirish imkonini beradi. Soliq kodeksida ularni umumdavlat va maxalliy soliqlarga aniq ajratish soliqlarni bixillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Bunady ajratish bilan bir qator samarasiz va bir-birini qaytaruvchi soliqlar – geologik qidiruv ishlariga ajratmalar (ular er osti boyliklaridan foydalanish solig'ini takrorlar edi), olib chiqishga solinadigan soliq (QQSning boshqa turi), o'rmondan tushgan daromad solig'i, turli yig'imlar bekor qilindi. 2002 yilda o'xshash soliqqa tortish bazasiga ega (sof foyda) ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va obodonlashtirish ishlariga yig'im birlashtirildi. Ushbu to'lovlarning birlashtirilishi mahalliy soliqlar va yig'imlar sonini qisqartirish imkonini berdi, shuningdek, ularga doir hisob-kitoblarni hisoblab chiqarish va taqdim etishni soddalashtirdi.

Ayni paytda oddiy ishlab chiqarish korxonasi atigi 5ta asosiy soliq - foyda solig'i, QQS, mol-mulk, er va ekologiya soliqlarini to'laydi. Buning ustiga ularni hisoblab chiqarish va to'lash mexanizmini yanada soddalashtirish davom etmoqda.

Xususan, **qo'shilgan qiymat solig'ini** to'lash mexanizmi ichki va ayniqsa tashqi soliqqa tortishda – mo'ljallangan joyiga qarab xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. QQS bo'yicha yagona stavkaning qabul qilinishi hisob va hisob-kitob jarayonlarini ancha soddalashtirdi. Bundan tashqari, hisobvaraqa fakturalar tizimining joriy etilishi soliq hisobi va hisoblab chiqarilishi ustidan nazoratga avtomatik tus berdi. Har yili unga doir bo'nak to'lovlari to'lash muddatlari miqdori qisqarib bormoqda.

Biroq bunda asosiy muammo - QQS to'lashdan ozod qilish muammosi hal etilmay qolmoqda. Bundan soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan biri – adolatlilik tamoyili buzilmoqda, chunki ushbu soliqni to'lamaydiganlardan mahsulot sotib oluvchi, mazkur soliq to'lovchilarining soliq yuki ortmoqda. Shu tariqa QQSni bixillashtirish va soddalashtirish masalasida kelgusida unga doir barcha imtiyoz va istisnolarni bekor qilish asosiy yo'nalish tusiga ega bo'ladi.

Foyda solig'i bo'yicha, yuqorida aytib o'tilganidek, yil sayin soliq yuki kamaytirilib borilmoqda. Bunda stavkani pasaytirish ma'lum darajada daromadlarni qonuniylashtirish va soliqning yig'ilishida aks etmoqda. Chunonchi, 26 foizlik stavka bilan butun 2001 yilda 143,3 mlrd. so'm yig'ildi, bu YaIMning 2,9 foizini tashkil etdi, 2002 yilning birinchi yarmida esa 24 foizlik stavka bilan davlat byudjetiga 82,0 mlrd. so'm kelib tushdi, bu ham YaIMning 2,9 foizini tashkil etadi. Ya'ni, stavkaning pasaytirilishiga qaramay, foyda solig'ining umumiy massasi kamaymaydi. Bunda barcha tushumlar umumiy massasida foyda solig'i ulushi soliq solinadigan bazani kengaytirish hisobiga hatto oshdi – 2002 yilda u 11,3 foizni tashkil etgan edi, 2004 yilning birinchi yarmida 11,8 foizni tashkil etdi.

Fikrimizcha, foyda solig'i stavkasini yanada pasaytirish soliq undirishning quyi pog'onasiga yaqinlashib qolganligimiz tufayli maqsadga muvofiq emas. Ayni paytda xorijiy mamlakatlarda daromad (foyda) solig'i – korxonalarining barcha xarajatlari chegirilganda to'lanadigan korporativ soliq 18 foizdan 45 foizgacha boradi. MDH mamlakatlari orasida eng quyi stavka O'zbekiston va Rossiyada -24 foiz, Ukrainada -30 foiz. O'lis xorijda eng quyi stavka Vengriyada -18 foiz, eng yuqori stavka Germaniyada -45 foiz.

2004-2005 yillarda mazkur soliq bo'yicha tushumlarni quyidagi yo'nalishlarda yanada takomillashtirish nazarda tutilmoqda:

- Qaytar tartibda soliq solinadigan daromadga kiritiladigan soliq solinadigan bazadan chegirmalarni kengaytirish hisobiga. Bunday xarajatlarning o'rtacha ulushi 20 foizdan 40 foizgacha etadi;

- 2002 yilda va 2005 yil uchun loyihada mahalliy byudjetga kelib tushadigan **infratuzilmani rivojlantirish solig'i** amal qiladi, 2002 yilda uning YaIMdagi ulushi 0,4 foiz darajasida yoki 28,4 mlrd. so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bunda bir marta foyda solig'i undirilgan korxonaning sof foydasi soliqqa tortish bazasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan bixillashtirish maqsadida kelgusida infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasini asta-sekin pasaytirish mumkin, deb hisoblaymiz (ayni paytda 8 foiz);

- Xolislik va adolatlilikni ta'minlash hamda soliqqa tortishdan qochish dalillarini bartaraf etish maqsadida daromad (foyda) solig'iga doir imtiyozlarni bekor

qilish masalasini ko'rib chiqish. Bugungi kunda bunday imtiyozlar berish davlatga yiliga 10-12 mlrd. so'mga tushyapti.

Yuridik **shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish** respublikada sekin-asta xalqaro tizimga - birlamchi (tarixiy) qiymatdan soliq undirishdan qoldiq qiymatdan soliq undirishga o'tkazilgan. Asta-sekin stavka pasaytirilib, bazasiga ko'ra bir xil yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i va transport vositalariga solinadigan soliq birlashtirildi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliq joriy etilishi bilan bir paytda jismoniy shaxslarga solinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortiladigan bazasidan transport vositalari qiymati olib tashlandi.

Kichik korxonalar uchun soliq va yagona er solig'i kabi soliqqa tortishning soddalashtirilgan usullar joriy etilishi soliq mexanizmini soddalashtirish, soliq yukini kamaytirishning boshqa muhim yo'nalishi hisoblanadi.

Kichik korxonalar uchun yagona soliqning joriy etilishi aholi orasida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlarning borishi bilan shartlandi. U joriy etilgandan so'ng ikki yil davomida byudjetga to'lanayotgan summa qariyb 3 barobar ortdi. Soliqqa rejimlari va ularni qo'llash chog'ida soliq tushumlari (umumbelgilangan soliqlar, yagona soliq, yalpi daromad solig'i, yagona er solig'i) hajmlarining arkibiy tahlili ushbu toifadagi soliq to'lovchilarning respublika bo'yicha soliq tushumlari umumiy hajmidagi salmog'i ortgani va 2001 yilda 6,9 foizga etganini ko'rsatdi.

Kichik korxonalarni soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini tanlagan sub'ektlar sonining ko'payishi omillari tahlili soliq yukini qisqartirish maqsadida yirik va o'rta korxonalarni parchalash, ular bazasida bir qator mayda korxonalar yaratish (ishlovchilar soniga ko'ra kichik korxonalar mezonlariga mos keluvchi) hisobiga kichik biznes sub'ektlari soni ortayotganini ko'rsatdi.

Shu munosabat bilan soliq solishning soddalashtirilgan tizimini keng yoyish uchun Yaponiya, XXR, Rossiya, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda nazarda tutilganidek, qo'shimcha mezon-korxonalar balansida turgan mol-mulk va tushum hajmi qiymatini joriy etish masalasini ko'rib chiqish mumkin, deb hisoblaymiz.

Yagona er solig'i to'lovchilarning boshqa muammosi bor, bu soliq **qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun** soddalashtirilgan, tartibga soluvchi va resurs tejovchi soliq sifatida bo'lishi nazarda tutilgan edi. Biroq tahlil qishloq xo'jalik ishlab chiqarish korxonalari bazasida amaldagi qonun xujjatlariga ko'ra faqat yagona er solig'i to'lovchilari hisoblanuvchi turli tuzilmalar (jumladan, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari) ham tashkil topayotganini ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan, qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'lmagan faoliyat yurituvchi qishloq xo'jalik korxonalari uchun, agar ushbu boshq faoliyatdan tushgan tushum ulushi korxonalar daromadi umumiy summasida belgilangandarajadan ortiqni tashkil etsa, soliq to'lovchilarning tegishli toifasi uchun amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan soliqlarni to'lash tartibini belgilash taklif qilinmoqda.

Resurs soliqlari er, suv, er osti boyliklari kabi muhim resurslarning tejalishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Bunda korxonalar manfaatlarini hisobga oladigan, resurslarning tejalishini ta'minlaydigan va bir

vaqtning o'zida resurslarni tejoychi ishlab chiqarishlarni rag'batlantiradigan soliqlarning maqbul stavkalarini joriy etish muhim sanaladi.

Asosiy resurs tejoychi soliqlardan biri **er solig'i** (jumladan, yagona er solig'i) hisoblanadi. Amaldagi er solig'i stavkalari er boniteti darajasidan kelib chiqib belgilangan, bunda so'ngi paytlarda er solig'i stavkalarida (har yilgi indeksatsiyadan tashqari) sezilarli o'zgarish ro'y bermadi.

Ayni paytda o'z echimini kutib turgan ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, qishloq xo'jalik korxonalarini va erlari tarkibidagi katta o'zgarishlar munosabati bilan sug'oriladigan erlarning yalpi inventarizatsiyasini o'tkazish va soliq stavkalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylaymiz.

Aylanma mablag'lar, asosiy fondlardan foydalaniish samaradorligiga, ularning o'z vaqtida yangilanishiga, mahsulot tannarxining kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi resurs tejaydigan boshqa soliqlar mol-mulk solig'i va ekologiya solig'i hisoblanadi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha, yuqorida aytib o'tilganidek, stavkalar pasaytirilmoqda, soliqqa tortishning adolatli ob'ekti-qoldiq qiymat belgilandi. Ayni paytda resurs tejash maqsadida o'rnatilmagan (foydalanilmayotgan) uskuna, shuningdek, tugallanmagan qurilishdan soliq undirish taklif etiladi, bu resurs tejashni rag'batlantirish vositasining amal qilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, **ekologiya solig'i bo'yicha** korxonaning barcha xarajatlari, jumladan davr xarajatlarini ham mahsulot ishlab chiqarishda o'zini oqlamaydigan xarajatlarni kamaytirish maqsadida soliqqa tortiladigan bazaga kiritish taklif qilinadi.

Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish va boshqa zaxiralar hisobiga soliq solinadigan bazani kengaytirish

Soliqlarning yig'iluvchanligi ikkita asosiy tarkibiy omilga bog'liq:

- Soliqqa tortish mexanizmlarini o'zgartirish hisobiga soliq solinadigan bazani kengaytirish;
- Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish.

Soliq solinadigan bazani kengaytirish, tadbirkorlar va aholi daromadlarini qonuniylashtirish maqsadida respublika hukumati tomonidan joriy yilda soliqqa tortish tizimida tub o'zgartirishlar qabul qilindi. Xususan, respublika Prezidentining 2002 yil 20 maydagi "Savdo va umumiy ovqatlanish sohasida soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PF-3076-son Farmoni bilan savdo sohasida soliqqa tortishning yangi tizimi-umumiy foydalaniladigan maydon birligi hisobidan Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan soliqning bazaviy stavkasidan kelib chiqib belgilanuvchi **kichik korxonalar uchun belgilangan daromaddan olinadigan yagona soliq tizimi** joriy etildi. Bundan tashqari, yalpidaromad solig'ini to'lovchi savdo korxonalarini uchun ilgari to'lanadigan soliqlar o'rniga **yalpi tushumdan yagona soliq** to'lash tizimi joriy etildi. Ayni vaqtning o'zida ulgurji savdo korxonalarini qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanishi belgilab qo'yildi. Yuqorida ko'rsatilgan o'zgartirishlar hisob tizimni ancha yaxshilaydi va savdo kabi murakkab sohada soliqlar yig'ilishi darajasini oshiradi.

Ayni paytda, bizning fikrimizcha, soliq ma'muriyatchiligi masalalarida, xususan, soliq organlari nazorat faoliyatini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishda ko'pgina zaxiralar mavjud. 2001 yilda o'tkazilgan yuridik shaxslarni 47172 hujjali tekshiruvlardan 31438 sub'ekda soliq qonunchiligi buzilishi aniqlandi (yoki holatlarning 66%ida), biroq fosh etilgan yashirilgan daromadlar va boshqa ob'ektlar hajmi undan avvalgi 2000 yildagiga qaraganda 74 foizni tashkil etdi. Bunda agar 2001 yilda barcha soliqlar bo'yicha jarima choralarini hisobga olmaganda 31056 mln. so'm qo'shimcha hisoblangan (2000 yilda 20748 mln. so'm), atigi 9180 mln. so'm undirilgan bo'lsa (2000 yilda 11631 mln. so'm), 2002 yil birinchi choragida 16326 mln. so'm qo'shimcha hisoblanishi darajasida (2001 yilning shu davrida 14327 mln. so'm qo'shimcha hisoblangan) atigi 1661 mln. so'm undirilgan. Shu tariqa 2000 yilda qo'shimcha hisoblab yozishlar bo'yicha undirishlar darajasi tushumlar umumiy massasining 1,6 foizini tashkil etdi, 2001 yilda esa 0,9 foizgacha tushib ketdi.

Qisqasi 2004 yilda tekshiruvlar sifatini yaxshilash hisobiga byudjetga tushumlar umumiy massasidan undirilgan qo'shimcha hisoblashlarning darajasi 1,6 foizgacha ko'tarilganda (2000 yil darajasi) 27,6 mlrd. so'm yoki qo'shimcha (2001 yiga nisbatan) 10-12 mlrd. so'm kelib tushadi.

Soliq to'lovchilarning to'lov intizomi ahvoli ustidan nazoratni kuchaytirish uchun amaldagi qonunchilikda muddati o'tgazilgan debitorlik qarzini yashirganlik uchun moliyaviy jazo choralarini nazarda tutish maqsadga muvofiq bo'lardi, deb hisoblaymiz. Bunday qonunbuzarlikka buxgalteriya hisobi yuritilishining buzilishi sifatida qarab, xo'jalik yurituvchi sub'ektga nisbatan moliyaviy jazo qo'llash taklif etiladi.

Biroq byudjetning daromad qismini ta'minlashning tahlili tijorat banklarining ayrim bo'limlarida yuqoridagi yo'riqnoma qoidalari buzilayotganligini ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan byudjet oldida qarz mavjud bo'lganda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ikkilamchi hisobvaraqlari bo'yicha debet aylanmalarini avtomatik tarzda to'sib qo'yuvchi kompyuter dasturini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

Bilvosita soliqlar tushumi tarkibi (foizlarda)

	QQS	Aktsizlar, jami	Bojxona boji	Tovarlarni olib kirganlik uchun jismoniy shaxslardan yig'im
2003	26,8	27,4	1,2	1,3
2004	25,3	24,0	1,4	1,1
2005 prognoz	27,5	26,8	1,9	1,2

Tayanch iboralar:

Yagona soliq

Resurs to'lovlari

Soliq stavkasi

Soliq ob'ekti

Soliq sub'ekti

Soliq to'lovchilar

Soliq imtiyozlari

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq to'lovchilarga qanday ta'sirlari mavjud?
2. Yagona soliqqa tortishning kichik korxonalar uchun qanday afzalliklari bor?
3. Soliq stavkalarini kim belgilaydi, nimalarga bog'liq? Soliq qaysi byudjetga tushadi?
4. resurs to'lovlari nima?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,2,6,7,9,12,24,25.

Qo'shimcha adabiyotlar: 24,25,32,34,40.

6-mavzu: Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'i bo'yicha o'rtacha stavkasini aniqlash (2 soat)

1. Turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda soliqqa tortiladigan baza va o'rtacha soliq stavkasini aniqlashning zarurligi.
2. Aniq ma'lumotlar asosida daromad (foyda) solig'i bo'yicha hisoblangan o'rtacha soliq stavkasining turli korxonalarda aniq stavka va haqiqatda foyda nisbatidagi farqlanish sabablarining tahlili.

1. Turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda soliqqa tortiladigan baza va o'rtacha soliq stavkasini aniqlashning zarurligi.

Yuridik shaxslarning tulaidigan soliqlar ichida ularning foydasiga solinadigan soliq byudjet daromadlari tarkibida katta o'rin egallaydi. Masalan, bu soliq salmog'i 1996-1998 yillarda 21-25 foizlarni egallagan, ya'ni byudjet daromadining qariyb to'rttdan bir qismini tashkil etgan .

Yuridik shaxslarning foydasiga soliq - bu korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar foydasining bir qismini byudjetga undirishdir.

Foyda solig'i to'lovchilari bo'lib, moliya yilida soliqqa tortiladigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar xisoblanadi.

Soliq ob'ektini to'liq va to'g'ri xisoblash uchun jami daromad tarkibini mukammal o'rganish zarur bo'ladi. Jami daromad tarkibiga yuridik shaxs tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat xaqlari sifatidagi pul va boshqa mablag'lar yoki qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi . Bunday daromadlarga :

a) maxsulot (ish, xizmat) sotishdan tushum. Unga:

- ortilgan maxsulot qiymatini to'lash uchun xisoblashish xujjatlarida ko'rsatilgan summa;

- buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, bajarilgan ishlar dalolatnomasida ko'rsatilgan summa;

- ko'rsatilgan xizmatni tasdiqlovchi xujjatlarda ko'rsatilgan so'mmalar kiradi;

Xarid, tayyorlovchi, ta'minlovchi korxonalarida daromad (foyda)ga soliq to'lovchilar uchun sotish tushumi deb sotilgan va sotib olingan tovarlar sotish qiymati o'rtasidagi farq xisoblanadi;

Vositachilik faoliyatidan (komission taqdirlash) daromad oluvchi korxonalar uchun tushum deb xamma bitimlar bo'yicha komision taqdirlash (protsentlar) so'mmalari xisoblanadi.

b) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk ob'ektlari, materillar va boshqa aktivlar sotishdan daromadlar kiradi.

v) protsentlar va dividendlar turida olingan daromadlar:

g) bepul olingan mulklar. Lekin bepul olish bir tizim ichiga kiruvchi korxonalar tomonidan bo'lsa daromad bo'lmaydi.

d) mulklarni ijaraga berishdan daromadlar;

s) royalti-intellektual mulklarning xuquqidan daromadlar: mualliflik xaqlari, patentlari, chizmalar, tovar belgilari, yangi moddelar .

j) bepul moliyaviy yordam.

z) kreditorlik va deponentlik qarzlarni xisobdan chiqarishdan daromadlar-so'rov muddati tugagan bo'lsa, umumiy so'rov muddati yuridik shaxslar uchun 3 yil qilib belgilangan.

i) ilgari chegirma qilingan qarzlarni, zararlar va umidsiz qarzlarni kamaytirishdan olgan daromadlar;

k) valyuta schyotlari bo'yicha ijobiy kurs farqlari;

l) favqulodda daromadlar;

m) xar-xil daromadlar; Tovar moddiy boyliklar zaxiralarini qayta baxolashdagi qo'shimcha so'mmalar soliqqa tortiladigan daromadga shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotila borilishi bilan qo'shib boriladi.

Korxonalar (tashkilotlar) maxsulotlarini haqiqiy tannarx baxosidan kam sotgandagina zararlar soliqqa tortiladigan daromadni kamaytirmaydi, eksportga erkin almashtiriladigan valyutaga maxsulot sotish bundan mustasnodir.

Ichki bozordan past baxoda o'z maxsulot (ish, xizmat)larini erkin almashtiriladigan valyutada sotuvchi korxonalar uchun soliqqa tortiladigan baza eksport maxsulotni sotishning haqiqiy baxosidan kelib chiqib xisobga olinadi.

Korxonalarining chet el valyutasida olgan daromadlari xam umumiy daromadlarga qo'shib soliqqa tortiladi. Bunda chet el valyutasida olingan daromad o'sha kundagi Markaziy bank belgilagan kurs bilan daromadga olinadi. Yuridik shaxslarning umumiy daromadlarini soliqqa tortishda qonunda belgilangan imtiyozlar qo'llaniladi.

Soliq imtiyozlari soliq mexanizmining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, soliq tizimida muhim o'rin tutadi. Soliq imtiyozlari vositasida soliqning rag'batlantirish va tartibga solish funksiyalari bajariladi.

Imtiyozlar soliqdan ozod qilishi, chegirtmalar va to'lov muddatlarini kechiktirish kabi usullarda bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga muvofiq soliq bo'yicha imtiyozlari quyidagi yo'nalishlarda berilgan:

1. Soliq to'lashdan ozod etish;
2. Yangi tuzilgan korxonalar uchun imtiyozlar;
3. Soliqdan vaqtincha ozod etish;
4. Soliq solish bazasini kamaytirish;
5. Ajnabiy sheriklarga imtiyozlar berish;
6. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari tonidan beriladigan imtiyozlar;
7. Soliqlardan qisman ozod etish;
8. Tovar eksportiga imtiyoz berish va boshqalar.

Davlat iqtisodiyotni biron-bir tarmog'ini rivojlantirishga rag'batlantirish uchun imtiyozlar tizimidan keng foydalanadi. Tarmoqni yoki biron faoliyat turini rivojlantirishda dastlab keng miqyosda imtiyozlar beriladi, keyinchalik rivojlanish izga tushgandan so'ng soliq imtiyozlarini qaytarib olish boshlanadi.

Respublikamiz soliq tizimida ham soliq imtiyozlaridan keng foydalanadi. Hozirgi paytda soliq bo'yicha imtiyozlardan asosan chet el investitsiyasini jalb etishda, kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishda, korxonalar va tashkilotlarni investitsion faoliyatini rag'batlantirishda va boshqa maqsadlarda keng

foydalanilmoqda. Yangi tashkil etilgan korxonalar, eksportga yo'naltirilgan tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar ham soliq bo'yicha imtiyozlar ko'zda tutilgan. Kodeksdan tashqari soliq imtiyozlari bo'yicha hukumatimiz tomonidan bir qator qonun va qarorlar, Prezident farmonlari qabul qilindi. Bu qaror va farmonlar asosida imtiyozlar tizimi amal qilmoqda.

Ma'lumki, yuridik shaxslar to'laydigan asosiy soliq turlaridan biri foyda solig'idir. Korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyatining natijasi bo'lgan foydadan byudjetga undiriladigan ushbu soliqning korxonalar faoliyatiga ta'siri katta. Demak, foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar korxonalar investitsion faoliyatiga ishlab chiqarishni kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar juda keng qamrovli bo'lib, ularni 4 ta yo'nalishga ajratish mumkin:

1. korxonalar foydasidan olinadigan soliqning soliqqa tortish ob'ekti bilan bog'liq imtiyozlar;
2. korxonalar foydasidan olinadigan soliqni to'lashdan to'liq ozod etish bilan bog'liq imtiyozlar;
3. soliqni to'lashdan vaqtinchalik ozod qilish bilan bog'liq imtiyozlar;
4. yangi korxonalar qayd etish bilan bog'liq va shunga o'xshash imtiyozlar.

Korxonalar foydasidan olinadigan soliqlar bo'yicha amalda bo'lgan imtiyozlar quyidagi faoliyatlarni rag'batlantirishga qaratilgan:

- ishlab chiqarishga ketadigan harajatlarni va uy-joy qurilishini moliyalash;
- yangi turdagi ishlab chiqarishlarni yaratish va mustahkamlash;
- tadbirkorlikning kichik shakllari;
- nafaqaxo'rlar va nogironlarni ish bilan ta'minlash;
- xayriya faoliyati;
- madaniy ijtimoiy va atrof muhitni muhofaza qilish sohalarini rivojlantirish.

To'rt xil shaklda soliq imtiyozi berilishi mumkin:

Birinchidan: bu soliq krediti bo'lib, bunda aksariyat hollarda foydadan olinadigan soliqdan chiqarib tashlanadigan chegirma tushuniladi.

Ikkinchidan: foydaning soliq olinadigan summasini kamaytirish.

Uchinchidan: soliqlardan butunlay ozod qilish.

To'rtinchidan: kamaytirilgan soliq stavkalarini belgilash.

Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar juda keng qamrovli bo'lib, xalq xo'jaligi tarmoqlarining asosiy sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar faoliyatini rag'batlantirishda muhim xizmat qiladi.

Shayxontoxur tumanida qancha korxonalar foyda solig'i bo'yicha imtiyozga ega va ularning soni jami korxonalar sonida qanday salmoqqa ega.

Shayxontoxur tumanida yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'idan imtiyozga ega korxonalar xaqida ma'lumot.

	2002 yil	2003 yil	2004 yil
hamma korxonalar soni	665	770	868
jami imtiyozdan foydalanuvchilar soni	45	47	47

	shundan:			
)	soliqdan butunlay ozod	11	26	26
)	soliqto'lashdan vaqtinchalik ozod	25	29	28
)	soliq bo'yicha boshqa turdagi engilliklar	18	14	16
	Daromad(foyda) solig'i to'lovchi korxonalar	286	236	167

*** - Jadval ma'lumotlari Shayxontoxur tumani Davlat soliq inspeksiyasining 2-shakldagi hisobotidan olindi.**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 31-32 moddalariga ko'ra yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq bo'yicha quyidagi imtiyozlar berilgan:

31 - modda yuridik shaxslarni daromad (foyda) solig'idan ozod qilish deb nomlangan va uning quyidagi bandlariga ko'ra yuridik shaxslar ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadlarida daromad (foyda) solig'idan ozod qilinadi:

11) yangi tashkil qilingan dehqon (fermer) xo'jaliklari va xususiy korxonalar qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlashdan, xalq iste'moli tovarlari, binokorlik materiallari ishlab chiqarishdan olgan daromadlari (foydalari) bo'yicha ro'yxatdan o'tgan vaqtidan e'tiboran ikki yil muddatga;

12) Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida yangi tashkil etilgan, turizm faoliyati bilan shugullanadigan yuridik shaxslar tuzilgan paytdan boshlab birinchi daromad orttirgunga qadar, lekin uzogi bilan ro'yxatdan o'tgan vaqtidan e'tiboran uch yilgacha. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida turistik faoliyat bilan shugullanuvchi yuridik shaxslar foyda olgan birinchi yili ellik foiz, ikkinchi yili etmish besh foiz, uchinchi yildan boshlab yuz foiz miqdorda soliq to'laydi;

13) quyidagilar olgan daromadlari (foydalari) yuzasidan:

a) patent egasi (litsenziar) sanoat mulki ob'ektlaridan o'z ishlab chiqarishida foydalanishdan, shuningdek bularga litsenziya sotishdan olgan daromadi yuzasidan - amal qilish muddati doirasida foydalana boshlagan sanadan e'tiboran:

ixtirolar va selektsiya yutugidan patent bo'yicha - besh yil davomida;

ixtirolardan dastlabki patent bo'yicha - uch yil davomida; selektsiya yutugidan guvohnoma bo'yicha - uch yil davomida; sanoat namunasidan patent bo'yicha - uch yil davomida; sanoat namunasidan dastlabki patent bo'yicha - ikki yil davomida;

b) litsenziat (litsenziya shartnomasi narsasidan foydalanish huquqini olgan shaxs) sanoat mulki ob'ektlaridan foydalanishdan olgan daromadi yuzasidan - foydalana boshlagan sanadan e'tiboran:

ixtirolar va selektsiya yutugidan patent bo'yicha - besh yil davomida;

ixtirolardan dastlabki patent bo'yicha - uch yil davomida;

selektsiya yutugidan guvohnoma bo'yicha - uch yil davomida;

sanoat namunasidan patent bo'yicha - uch yil davomida;

sanoat namunasidan dastlabki patent bo'yicha - ikki yil davomida;
foydali modeldan guvohnoma bo'yicha - ikki yil davomida;
tovar belgisi va xizmat belgisidan - bir yil davomida (litsenziar mahsulotini ishlab chiqarganda);

14) chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilib, eksportga yo'naltirilgan va importning o'rnini bosadigan mahsulotlar chiqaradigan korxonalar:

agar ishlab chiqarish hajmining yigirma besh foizdan ortigi bolalarbop mahsulotlardan iborat bo'lsa, ishlab chiqarish boshlangan paytdan e'tiboran besh yil muddatga. Keyingi yillarda soliq amaldagiga nisbatan ikki baravar kamaytirilgan stavka bo'yicha undiriladi;

agar chet el sarmoyasining ulushi korxonalar ustav fondining ellik foizi va undan ko'pini tashkil etsa, ishlab chiqarish boshlangan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga;

15) ustav fondida chet el sarmoyasining ulushi ellik foiz va undan ko'pini tashkil etadigan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari - ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga yo'naltiriladigan daromadi (foydasi) bo'yicha;

16) O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarga kapital mablaglar sarflaydigan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari, ro'yxatdan o'tgan vaqtdan e'tiboran dastlabki etti yil davomida;

17) qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish va ularni qayta ishlashga (uzum va mevalardan vinolar, o'tkir ichimliklar tayyorlashdan tashqari), xalq iste'moli tovarlari va binokorlik materiallari, tibbiyot asbob-uskunalar, qishloq xo'jaligi, engil va oziq-ovqat sanoati uchun mashinalar va asbob-uskunalar ishlab chiqarishga, ikkilamchi xom ashyo va maishiy chiqindilarni tayyorlash hamda qayta ishlashga ixtisoslashgan, ustav fondidagi chet el kapitali o'ttiz foizdan ortiq bo'lgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar - ro'yxatdan o'tgan vaqtdan e'tiboran ikki yil davomida;

18) posyolkalar, qishloqlar va ovullar hududlarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha yangi tashkil etilayotgan korxonalar mahsulot ishlab chiqarishni boshlagan paytdan e'tiboran uch yil muddatga. Keyingi yillarda soliq amaldagiga nisbatan ikki baravar kamaytirilgan stavka bo'yicha undiriladi; (O'zr 29.08.1998 y. N 681-I-son Qonuni taxrirdagi band)

19) yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar (savdo, vositachilik, ta'minot, sotish va tayyorlash faoliyati bilan shugullanuvchilaridan tashqari) tashkil etilgan (ro'yxatdan o'tkazilgan) paytdan e'tiboran birinchi yili belgilangan stavkaning yigirma besh foizi miqdorida va ikkinchi yili ellik foizi miqdorida soliq to'laydilar. Keyingi yillarda daromad (foйда) soligi belgilangan stavka bo'yicha to'liq miqdorda to'lanadi;

20) xususiy tijorat banklari tashkil etilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga, bo'shatib olingan mablaglarni moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga va infrastrukturani rivojlantirishga yo'naltirgan holda; (O'zr 30.08.1997 y. N 485-I-son Qonuniga muvofiq kiritilgan band)

23) qishloq joylarda yangi tashkil etilayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish boshlangan paytdan e'tiboran uch yil muddatga. Bu muddat o'tganidan so'ng keyingi ikki yil mobaynida

mazkur qo'shma korxonalar uchun soliq stavkasi amaldagi stavkaning ellik foizi miqdorida belgilanadi; (O'zr 12.05.2001 y. 220-II-son Qonuni taxriridagi kichik band)

24) mahsulotini eksport qiluvchi, barcha mulk shaklidagi korxonalar o'zi ishlab chiqargan mahsuloti (bajargan ishi, ko'rsatgan xizmatlari) eksportidan erkin almashtiriladigan valyutada olgan, shu jumladan vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, kontsernlar, uyushmalar va kompaniyalarning, shuningdek birjalarning tarkibiy bo'linmasi bo'lgan ixtisoslashtirilgan tashqi savdo birlashmalari va firmalari orqali eksportga mahsulot etkazib berganlik uchun olgan daromadlari yuzasidan. Mazkur imtiyoz savdo-vositachilik korxonalariga nisbatan, shuningdek ro'yxati qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan tovarlarni erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qiluvchi ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan tatbiq etilmaydi; (O'zr 12.05.2001 y. 220-II-son Qonuni taxriridagi kichik band)

yuqoridagi moddada yangi tashkil etilgan korxonalarga berilgan imtiyozlar avvaldan amal qilib turgan yuridik shaxslar, ularning filiallari va tarkibiy bo'linmalari negizida tuzilgan yuridik shaxslarga (chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalardan tashqari), shuningdek korxonalar huzurida tuzilgan yuridik shaxslarga nisbatan, basharti ular korxonadan ijaraga olingan asbob-uskunalarda ishlayotgan bo'lsalar, qo'llanmaydi.

Ushbu moddaning, 11, 12, 14, 17 - 20-bandlarida nazarda tutilgan yuridik shaxslar belgilangan imtiyozli davrning bir yili o'tguniga qadar tugatilgan taqdirda, soliq summasi ularning butun faoliyat davri uchun to'liq miqdorda undirib olinadi. (O'zr 30.08.1997 y. N 485-I-son Qonuni taxriridagi qism)

Korxonalar hisobot yilining yakunlari bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti hajmini oshirishdan olgan erkin almashtiriladigan valyutaga teng tushumlarining summasi daromad (foyda) soligi to'lashdan ozod qilinadi. Ushbu imtiyoz vositachilik tashkilotlariga nisbatan, shuningdek eksport qilinadigan xom-ashyo tovarlari: paxta tolasi, lint, neft, neft mahsulotlari, elektr energiyasi, gaz kondensati, tabiiy gaz, qimmatbaho, rangli va qora metallar, ip gazlama ishlab chiqaradigan korxonalarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliq solinadigan daromadning (foydaning) kamaytirilishi deb nomlangan 32-moddaga ko'ra ishlab chiqarishning rivojlantirish maqsadida yuridik shaxslarning soliq solinadigan daromadi (foydasi) quyidagi summaga kamaytiriladi:

Yuridik shaxslarning soliq solinadigan daromadi (foydasi) quyidagi summaga kamaytiriladi:

-investitsiyalarga (asosiy ishlab chiqarishni rivojlantirish, kengaytirish va rekonstruktsiya qilishga), shuningdek investitsiyalar uchun olingan kreditlarni uzishga yo'naltiriladigan xarajatlar summasiga, hisoblangan eskirishdan to'liq foydalanish sharti bilan, biroq soliq solinadigan daromadning (foydaning) ellik foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda;

-Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning daromadlari bo'yicha soliq solinadigan baza zaxira fondi ustav fondining yigirma besh foiziga etguniga qadar daromadning (foydaning) yigirma foizigacha miqdorda zaxira fondiga o'tkaziladigan ajratmalar summasiga kamaytiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga muvofiq, taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugagunigacha saqlab qolinadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek ishlab chiqarishning rivojlantirish maqsadida yuridik shaxslarga kamaytirilgan soliq stavkalari shaklida imtiyoz berilishi mumkin.

Soliklarning stavkalari daromad (foyda, mol-mulk) ning byudjetga soliq sifatida utkazilishi lozim bulgan muayyan ulushidir.Ular, odatda, daromad(mol-mulk)ning summasiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Boshkacha ta'rif berish xam mumkin: soliq stavkasi bu soliqqa tortiladigan birlikka soliq mikdoridir.

Bu xolatni yuridik shaxslardan olinadigan daromad(foyda) solig'i stavkalari misolida ko'rishimiz mumkin:

Yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq stavkalarini xar yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tasdiqlaydi va o'zgarib turishi mumkin.

Soliqni 2005-yil uchun yangi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini "O'zbekiston Respublikasining 2005 yilgi davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 610-sonli Qarori ko'ra quyidagicha belgilangan:

4-jadval*.

2005 yil uchun yuridik shaxslardan olinadigan daromad(foyda) solig'i stavkalari.

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i STAVKALARI

N	To'lovchilar	Soliq solinadigan daromadga (foydaga) nisbatan % da soliq stavkalari
1	Yuridik shaxslar (2-4-bandlarda nazarda tutilganlaridan tashqari)	15
2	Auksionlar o'tkazishdan, gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shuningdek norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
4	Bolalar uchun tovarlar, ayollar gigiena buyumlari hamda badiiy hunarmandchilik mahsulotlari)* ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar	10
5	O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 2 baravar pasaytiriladi

*-jadval O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 28- dekabrda 610-sonli Qaroriga asosan tayyorlangan.

Yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq stavkalarini xar yili o'zbekiston Respublikasi Vazirlari Maxkamasi tasdiqlaydi va o'zgarib to'rishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalariga quyida sanab o'tiladigan shart-sharoitlarga muvofiq keladigan va ustav faoliyatida o'zi ishchilab chiqaradigan maxsulotlar va (yoki) ishlab chikaradigan mahsulotlariga servis xizmatlari ko'rsatish xo'jalik faoliyatidan olinadigan tushum umumiy xajmining 60 (oltmish) foizdan ortigi to'g'ri keladigan xorijiy, shu'ba va kushma korxonalar kiradi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar kuyidagi shart-sharoitlarga muvofiq kelishi lozim:

* ustav kapitalining mikdori 300 ming AKSh dollariga teng bo'lgan summadan kam bo'lishi mumkin emas;

* korxonalar ishtirokchilaridan biri albatta-xorijiy yuridik shaxs bo'lishi kerak;

- xorijiy investitsiyalar ulushi korxonalar ustav kapitali (fondi) ning kamida 30 (o'ttiz) foizini tashkil etishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiradigan soliq to'lovchi - norezident O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan, doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lgan ana shunday daromadlar (foyda) ga nisbatan nazarda tutilgan tartibda umumiy belgilangan stavka bo'yicha soliq to'lovchi hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadlarida xorijiy yuridik shaxsning doimiy muassasasi deganda O'zbekiston Respublikasi xududida har qanday yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida vakillik funksiyalarini amalga oshirayotgan yuridik shaxslar orkali daromad olish yuzasidan faoliyatni amalga oshirishi tushuniladi.

Yuridik shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlar to'lov manbaida 15 (o'n besh) foizlik stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Yuridik shaxslarning daromadga (foydaga) solig'i xisobi chorak, yarim yillik, to'qqiz oylik va yillik davrlarga yil boshidan o'sib boruvchi miqdor bilan tuziladi.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya xisobi va xisobotlari asosida mustaqil aniqlanadi. Bunda ular soliq qonunchiligi ,shu jumladan adliya vazirligi tomonidan 29 dekabr 1997 yilda tasdiqlangan 382 son yo'riqnoma asosida xisoblab chiqiladi.

Soliq xisobi o'tgan davrlar (chorak, 6-oy, 9-oy, yil) uchun tuziladi. Biroq bunak (avans) to'lovlarni bu soliqdan aniqlash uchun esa soliq to'lovchilar chorak boshidagi oyning 5-sanasiga qadar o'zlari joylashgan tuman soliq idoralariga tegishli chorakda kutilayotgan daromadlar va soliq stavkasidan kelib chiqib joriy to'lovlar (avans) summasini belgilovchi dalolatnoma topshiradilar.

2. Aniq ma'lumotlar asosida daromad (foyda) solig'i bo'yicha hisoblangan o'rtacha soliq stavkasining turli korxonalarda aniq stavka va haqiqatda foyda nisbatidagi farqlanish sabablarining tahlili.

Mulkchilikning turli shakllarini tashkil topishi ijtimoiy jarayonlarining demokratizatsiyalashuvi, soliq tizimi orqali boshqarishni ahamiyatini oshirgan holda, soliq tizimini takomillashtirishda asosiy e'tiborni uning boshqaruv bilan bog'liq vazifalari samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Soluk yukini pasaytirish siyosatini amalga oshirish xar yili foyda soligi stavkasini pasaytirishda uz aksini topmokda. Ammo, stavkadan tashkari soliq yukining pasayishiga, foyda soligini xisoblash mexanizmining aniklab olinishi xam ta'sir kursatadi.

Amaldagi soliqqa tortish mexanizmini taxlil kilish shuni kursatmokdaki, bu xolat foydani soliqqa tortishni oshirmokda.

Xozirgi vakt da soliq tulashdan oldingi foyda xisobidan tiklanadigan xarajatlar ruyxatiga, asoslanmagan xolda soliq yukini oshiradigan ishlab chikarish xarakteriga ega bulgan xarajatlar kiritiladi.

Foydaga soliq stavkasini pasaytirish vositasi bilan amalga oshiralgan fiskal ogirlikni pasaytirishga xozirgidek yondashuv bilan bir katorda soliqqa tortiladigan foydani xisoblash mexanizmini umumbelgilangan tartibga olib borish choralarini kurish kerak.

Foydani soliqqa tortishda xar-xil kategoriyadagi soliq tulovchilarga bir xil yondashishni kayta kurib chikish kerak, mos ravishda barcha soliq tulovchilar uchun foydani soliqqa tortishning yagona bazasini belgilab, amaldagi foyda va daromad soligini xisoblash mexanizmini bir xillikka olib kelish kerak .Zararlarni kuchirish buyicha jaxon tajribasida umumbelgilangan normalar xorijiy va ayrim Vatanimiz tovar ishlab chikaruvchilari uchun belgilangan bir kator imtiyozlarni bekor kilishga imkon beradi, teng sharoit yaratadi va soliq tulashdan kochish xolatlarini kiskartadi. Xorijiy investidlarni ragbatlantirish nuktai nazaridan, ikkilanish paydo kiladigan keng soliq imtiyozlaridan kura xalkaro umumbelgilangan yondashuvlar asosida soliq imtiyozlaridan foydalanish maksadga muvofikdir.

Jaxon iktisodietidagi asosiy tamoyil- korxonalarini subsidiyalashdan ular faoliyatini soliq mexanizmi orkali ragbatlantirishga utishdir. Shu munosabat bilan saksoninchi-tuksoninchi yillarning boshida kuppina rivojlangan davlatlarda utkazilgan soliq isloxlari ayniksa e'tiborga loyikdir. Aynan usha davrda fiskal vazifani chetga chikarib, soliqqa tortishning ragbatlantiruvchi vazifasi birinchi uringa chikdi. Birinchi navbatda bu narsa kichik korxonalar uchun muximdir- okilona soliqqa tortish ularga ish urinlari sonini oshirish, tovarlar va xizmatlar ishlab chikarishni kupaytirish imkonini beradi.

Jaxon amalietida kichik va urta biznesni ragbatlantirish uchun firmalar tomonidan foydani yangi uskunalari kurilish, ilmiy-tadkikot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashga sarflashni ragbatlantiruvchi soliq imtiyozlarini kullash keng tarkalgan. Foyda xisobidan soliqqa tortilmaydigan, belgilangan tartibdagi fondlarni shakllantirishga ruxsat berish keng kullanadi.

Har bir mamlakat o'ziga xos soliq tizimiga ega, ammo ularning birontasi boshqasining tartiblaridan nusxa ko'chirmaydi. Umuman olganda nusxa ko'chirish ta'qiqlanmaydi, ammo boshqalarning yutuqlaridan o'z xususiyatlariga moslab foydalangan holda, o'z yo'lidan borish eng yaxshi ish ekanligi jahon tajribasi ko'rsatib turibdi.

Korxonalar innovatsion faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik tashabbuslarini rag'batlantirish maqsadida, horijiy davlatlarda investitsion soliq kreditidan (ishlab chiqarishni kengaytirish, asosiy vositalarni moliyalashtirish bo'yicha soliq krediti berish) muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda.

Investitsion soliq krediti ilmiy texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va rekonstruktsiya qilishda o'z mablag'larini kengaytirishni rag'batlantirishga qaratilgan yoki asosiy fondlarni moliyalashtirish maqsadida kapital qo'yilmalarni uzluksiz ravishda ko'paytirib borilishi lozim bo'lgan tarmoqlarga to'g'ridan-to'g'ri subsidiya bo'lib xizmat qiladi. Lekin, shunga qaramasdan investitsion soliq krediti tezlashtirilgan amortizatsiya kabi normal xo'jalik faoliyati yuritayotgan korxonalariga berilishi mumkin.


Past rentabellik ko'rsatkichga ega bo'lgan korxonalar, investitsiya soliq krediti berilganda yana ham moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Chunki, muddati kelganda nafaqat soliq bo'yicha taqdim etilgan kreditning to'liq hajmi, balki, unga yana qo'shimcha foiz bilan qaytarilish lozim bo'ladi. Bu esa, korxonalariga soliq to'lovlari muddatining biroz kechiktirilishini hisobga olmaganda, ularning davlat byudjetiga to'lovlar hajmini ma'lum miqdorda oshiradi.

Soliqlar vositasida korxonalar taraqqiyotiga ta'sir etishda yuridik shaxslardan olinadigan daromad(foйда) solig'i bo'yicha imtiyozlar tizimidan foydalanish korxonalar iqtisodiy faolligining umumiy darajasini oshirish va ishlab chiqarishning ayrim sohalarini rag'batlantirish uchun muhim qurol bo'lib xizmat qiladi. Mazkur masala, ayniqsa, xorijiy investorlar ishtirokidagi qo'shma korxonalar taraqqiyotining boshlang'ich bosqichida yanada kuchliroq ahamiyat kasb etadi.

Soliq imtiyozlari yordamida korxonalarni moddiy va pul resurslaridan foydalanishdagi huquqlarini kengaytirish, soliq og'irligini pasaytirish va byudjet daromadlarini muvofiq ravishda korxonalar daromadlarini oshirish evaziga kuchaytirish orqali erishish mumkin. Bundan tashqari, soliq tizimining samarali amal qilishini, soliqqa tortish og'irligini korxonalar xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalariga taqqoslash orqali baholash mumkin.

Ammo 70-yillardan boshlab, foydani soliqqa tortish buyicha boshkacha nazariy endashuv (keyinchalik esa amaliy endashuv) yuzpgp keldi. Bunda amerikalik iktisodchi A.Laffer ishlab chikkan "taklif iktisodieti" katta axamiyat kasb etdi.Laffer gipotetik egri chizigida soliq stavkasini kamaytirish byudjet muvozanatini saklash, xattoki, soliq tushumlarini kupaytirish imkonini xam berishini belgilab berdi.Pasaytirilgan soliq stavkalari jamgarish va investitsiyaga sharoit yaratadi,milliy maxsulot va daromadning keskin kupayishiga turtki buladi.

A.Laffer va boshka "taklif iktisodieti" nazarietchilarining bu goyalari amaliyga tez tadbik etildi.A.Laffer 1974 yil oxirida AKSh xazinasini uchun foyda soligiga pasaytirilgan stavkalarni kullash, ishlab chikarishni kullab-kuvvatlashini va shu asosda davlatni tashvishga solib kuygan inflatsiyani xatlab utish mumkinligini taklif etdi.



Rasmdagi vaziyatdan ko'rinib turibdiki, A. Leffer egri chizig'i davlat byudjeti daromadlarining soliq stavkasi darajasiga (o'lchamiga) bog'likligini ko'rsatadi. Undan soliq stavkalarining o'sishi ma'lum bir kritik (maksimal) nuqtaga (0; m) etgunga qadar davlat byudjeti daromadlarining o'sishiga (ortishiga) olib kelishi (M nuqtasi) mumkinligini aniqlash qiyin emas.

Ana shu kritik (maksimal) nuqtadan so'ng soliq stavkalarining yana oshirilishi (ko'tarilishi) teskari natijalarga olib keladi: korxonalar olingan foydani kanday qilib bo'lsa ham soliqdan «qochirish», uni yashirib qolish yo'llarini qidira boshladilar (afsuski, bu «yo'llar»ni qidirib topadilar ham), ishlab chiqarish va investitsiyalar hajmi qiskaradi. ALefferning fikricha, soliq stavkalari maksimal darajasining (kritik nuqtasidagisining) pasaytirilishi (kamaytirilishi) tadbirkorlikni (jumladan, xususiy tadbirkorlikni ham) rivojlanishi uchun yaxshi, qulay vaziyatni vujudga kelgiradi. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarishning rivojlanishiga, investitsiyalarning o'sishiga, banddikka erishishga, daromadlarning ko'payishiga va nihoyat davlat byudjetida soliq tushumlarining ortishiga olib keladi. Bu pirovardida byudjet taqchilligining qisqarishi va inflyatsion jarayonlarning susayishi demakdir.

Shunday ekan, tadbirkorlik faoliyatini jonlantirish vazifasini soliq «zulmi»ni engillatish orqali hal qilish lozim. Soliqqa tortish stavkasining pasaytirilishi ishlab chiqarishning o'sishiga va bu esa, o'z navbatida, kelajaqqa soliq tushumlarining vaqtinchalik kamayishini kompensatsiya qilinishiga (qayta tiklanishiga) olib keladi. Inflyatsiyasiz ishlab chiqarishning o'sishiga, eng avvalo, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari va soliqqa tortishning progressivligini oqilona manipulyatsiya qilish hisobiga erishiladi.

Angliyada kichik biznesni soliqqa tortish tartibi uz xususiyatlariga egadaromadlar va xarajatlar ezuvi ular kaysi davrga taallukligidan kat'i nazar, fakat xakikatdagi tushum va tulovga kura amalga oshiriladi. Ushbu malakatda kichik firmalar binolar va uskunalarga berilgan dastlabki 50 ming funt sterling investitsiyalardan soliq tulashdan ozod kilingan. Kichik korxonalar uchun korporativ soliq stavkasi yirik korxonalarinikidan 25 foiz kamrok.

Kichik va urta korxonalar shuningdek, ular kolok xududlarga kuchib utatganlarida foyda soligidan imtiyozlar beriladi.

Italiyada kichik biznes soliqlar tushidan ozod bulish xisobiga yiliga 100 milliard liraga yakin foyda kuradi.Kichik korxonalar ilgor texnologiyalarni xarid kilish xarajatlarining 25 foizigacha soliq imtiyozlaridan foydalanadilar.Ilmiy tadqiqot ishlari xarajatlarining 30 foizi soliq tushidan ozod kilinadi.Maxsulot sifatini oshirishga doir soliq tuloqlari va xarajatlari kamaytiriladi.Ushbu mamlakatning janubida yangi tashkil etilgan kichik sanoat korxonalari 10 yil davomida daromad va maxalliy daromad soliqlarini tulamaydilar.Janubiy tumanlarga reinvestitsiya kilinuvchi xar kanday foyda maxalliy daromad soligidan ozod kilingan.

Niderlandiyada soliqqa oid ragbatlantirish birinchi navbatda yangi tashkil etilgan korxonalar va elgiz tadbirkorlarga nisbatan kullnadi.Avvalgilari uchun faolyatlarining dastlabki 6 yili davomida soliqlar tushida zararlarini xisobdan chikarishni kuzda tutuvchi boshlangich yukotishlar uchun cheklanmagan kompensatsiya(badal) kuzda tutilgan.

Yaponiyada kichik korxonalar uchun korporatsion soliq stavkasi 42 dan 30 foizgacha pasaytirilgan.Zaxira fondlarni tashkil etishga va uyushmalarga tulanadigan badallarga yunaltirilgan mablaglar soliqlardan tulik ozod etiladi.

Solik konunchiligi xorijiy amaliytdagi barcha zamonaviy tamoyillarni xisobga olib shakllangan O'zbekistonda avval-boshdanok kichik xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni ragbatlantiruvchi keng imkoniyatlar kuzda tutilgan edi.Chunonchi, yangi tashkil etilgan dexkon(fermer) xujaliklari va xususiy korxonalar kishlok xujalik maxsulotlarini etishtirish va kayta ishlashdan,xalk iste'moli tovarlari,binokorlik materiallari ishlab chikarishdan olgan daromadlari(foydalari) buyicha ruyxatdan utgan vakitdan e'tiboran dastlabki ikki yil muddatga daromad(foyd) soligini tushidan ozod etiladilar (Solik kodeksi,31-moddasi birinchi kismining 11-bandi).

Xususiy korxonalar daromad(foyd) soligini xisoblashda yuridik shaxslar uchun belgilangan tartib buyicha soliqqa tortiladigan baza asosiy ishlab chikarishni rivojlantirish,kengaytirish va kayta tiklash, jixozlash, shuningdek, investitsiya kreditlarini tushga yunaltirilgan summaga kamaytiriladi – xisoblangan eskirishdan tulik foydalanish, ammo soliqqa tortiladigan daromad(foyd)ning 30 foizidan ortik bulmasligi sharti bilan kamaytiriladi(Solik kodeksi, 32-moddaning birinchi kismi).

Bulardan tashkari mamlakatimizda kichik korxonalar uchun soliqqa torishning soddalashtirilgan tizimini joriy kilinganligi va boshka bir kator soliq turlari uchun xam imtiyozlarni kullanilishi soliqqa tortishning jaxon amaliyati tamoyillardan keng foydalanilaetganligidan dalolat beradi.

Iktisodietni erkinlashtirish sharoitida foyda soligi buyicha imtiyozlar kiskartirilishi davlatning iktisodietni u eki bu sektoriga ta'sirini pasaytiradi. Bu xolatda ustunlik bozor kuchlarining munosabatlariga utadi.Nazariy jixatdan bunday endashuv soliqqa tortishning betaraflik (neytrallik) printspi bilan boglanganligini kursatadi.

Xozir rivojlangan mamlakatlarda foyda (daromad) ni soliqqa tortishda beriladigan imtiyozlar sezilarli pasaygan.

Utgan asrning 90 –yillari boshlarida yapon ekspertlari ayrim rivojlangan mamlakatlarda berilgan imtiyozlar natijasida foyda soligi tushumi kiskarganligini

kursatib berishgan. Masalan, AKSh da byudjetga tushadigan foyda soligi summasining 20 foizi, Angliyada esa 25 foizi, Germaniyada 16 foizi va Yaponiyada 4 foizgacha tushmasligini isbotlashgan.

Tayanch iboralar:

o'rtacha stavka
me'yoriy foyda
soliq imtiyoz
Tovar aylanmasi

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Yuridik shaxslarning daroadlri nima uchun soliqqa tortiladi?
2. Qanday korxonalar yuridik shaxslardan olinaidgan daromad (foyda) solig'i to'lovchilari bo'la oladi?
3. Soliqqa tortish ob'ekti nimalardan iborat?
4. Soliq stavkalarini kim belgilaydi, nimalarga bog'liq? Soliq qaysi byudjetga tushadi?
5. Yalpi daromad solig'ini hisoblash uchun qanday ko'rsatkichlar kerak? Soliq qaysi davr uchun hisoblanadi?
6. Yalpi daromad solig'i qaysi muddatda byudjetga o'tkaziladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,2,6,7,9,12,17,18,19.

Qo'shimcha adabiyotlar: 22,24,23,26,27,36.

7-mavzu: Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan baza va o'rtacha soliq stavkasini aniqlash (2 soat)

1. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani va oborotlarni aniqlash.
2. Soliqqa tortilmaydigan oborotlar.
3. Qo'shilgan qiymat solig'ining prognoz qilishda unga ta'sir qiluvchi omillar

1. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani va oborotlarni aniqlash.

Qo'shilgan qiymat solig'i o'zida ishlab chiqarishning barcha bosqichida yaratiladigan qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga chegirib olishni aks ettiradi. Qo'shilgan qiymat esa sotilgan tovarlar, ishlar va xizmatlar qiymati hamda ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga kiritilgan material xarajatlar farqi orqali hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish va taqsimlashning barcha bosqichi orqali oxirgi iste'molchi zimmasiga yuklanadi. Oxirgi iste'molchi bu soliqni tovar-xarid bahosining bir qismi sifatida to'laydi va uni qoplash imkoniyatiga ega emas.

Qo'shilgan qiymat tarkibiga quyidagilar kiradi: foyda, ish xaqi, amortizatsiya summasi, kredit uchun foizlar, mehnat xaqi fondiga nisbatan 40% li (xar xil) ijtimoiy, bandlik fondiga ajratma, aktsiz summasi, ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan soliqlar (er, mol-mulk solig'i, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i va suv to'lovi). Qo'shilgan qiymat solig'i stavka yuqorida ko'rsatib o'tilganlar summasiga nisbatan qo'llanilib hosil bo'lgan summa tovar narxi o'sishiga qar bir ishlab chiqarish bosqichida qo'shilib boraveradi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari bo'lib O'zbekiston Respublikasi xududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ulanuvchi yuridik shaxslar, tovarlar importi bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar xisoblanadi.

**2002-2004 yillarda Toshkent shahar A.Ikromov tumani bo'yicha
qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar to'g'risida
MA'LUMOT.**

	Mulchilik shakliga qarab soliq to'lovchilarning guruhlanishi	2002 YIL		2003 YIL		2004 YIL	
		Soliq to'lovchilar soni	haqiqatda tushgan tushum (ming so'm)	Soliq to'lovchilar soni	haqiqatda tushgan tushum (ming so'm)	Soliq to'lovchilar soni	haqiqatda tushgan tushum (ming so'm)
1	Davlat mulki shaklidagi korxonalar	206	1378814.0	210	1360477.5	183	2225351.2
2	Jamoa mulki shaklidagi korxonalar	627	2638499.0	471	6607200.3	494	6855457
3	Xususiy korxonalar	491	108126.3	315	98334.7	237	500919.3
	JAMI	1324	4125440.2	996	8066012.5	914	9581727.5

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki A.Ikromov tumani bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar soni yildan yilga kamayib bormoqda, jami soliq to'lovchilar soni 2002 yilda 1324 ta bo'lgan bo'lsa, 2003- yilda 996 tani, 2004- yilda esa 914 tani tashkil qilgan. Mulchilikni yuqoridagi 3 ta shaklida ham soliq to'lovchilar sonini kamayganini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablari soliq to'lovchilarning xo'jalik yuritishning boshqa shakllariga o'tib ketishi bilan izohlanadi. Lekin shu bilan birga qo'shilgan qiymat solig'idan tushgan tushumning salmog'i yildan yilga ortib bormoqda.

QQS ob'ekti bo'lib tovarlar (ishlar,xizmatlar) sotish va import tovarlar oboroti xisoblanadi, QQS dan ozod bo'lganlar va maxsulotlardan o'z ishlab chiqarish maqsadlari uchun foydalanishdan tashqari. Tovarlarni (ishlar,xizmatlar) oboroti deb maxsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarni yuklash (ortish) tushuniladi. Uch xil sotish turi mavjud: tovarlar,ishlar va xizmatlar. Tovarlarni sotishda soliq ob'ekti bo'lib o'zi ishlab chiqargan, chetdan sotib olgan xamma tovarlar sotish oboroti tushuniladi. Soliqqa tortish maqsadida is'temol belgilanishiga va qiymatga ega bo'lgan xamma narsa (tovar,maxsulot,ko'chmas mulk, imoratlar va inshootlar qo'shib, elektroenergiya va issiklik energiyasi , gaz,suv va b. Xisoblanadi. Ishlar sotishda soliq ob'ekti bo'lib bajarilgan qurilish-mantaj ,ta'mirlash, ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik, texnologik, loyiha- qidiruv, restavratsiya va boshqa ishlar qiymati xisoblanadi. xizmat sotishda soliq ob'ekti bo'lib xizmatlar qiymati xisoblanadi.

-yo'lovchi va yuk transporti xizmati qiymati shu jumladan, gaz, neftni yo'naltirish (tashish), elektr, issiklik energiya uzatish, tovarlarni ortish, tushirish, qayta ortish va saqlash xizmatlari kiradi.

-mulklarni va ko'chmas mulklarni ijaraga berish xizmati qiymati, shu jumladan lizing xizmati kiradi.

-vositachilik xizmati;

-aloqa, maishiy, uy-joy kommunal xizmati;

-reklama xizmati ;

-ma'lumotlarni saralash va informatsion ta'minlash xizmati ;

-boshqa xizmatlar;

Bulardan tashqari soliqqa tortiladigan oborotlarga quyidagilar kiradi:

-korxonaning ishbilarmonlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan o'z istemoli uchun korxonada ichidagi tovarlar va xizmatlar sotish oboroti , shu jumladan o'z xodimlariga .

-boshqa korxonalar yoki jismoniy shaxslarga shu jumladan o'z xodimlariga bekorga yoki qisman to'lash bilan beriladigan oborotlar;

-buyumlarni garovga sotish oboroti o'z ichiga garovchiga garovda ta'minlashni bajarmagandagi oborotlari qo'shib kiradi.

Soliqqa tortiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) summasi QQSni qo'shmasdan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga qo'llaniladigan baxosi va ta'rifi qiymati bilan aniqlanadi. Ammo, aktsiz osti tovarlari bo'yicha soliqqa tortiladigan oborotni aniqlashda unga aktsiz summasi xam qo'shiladi.

Tovarlar(ishlar, xizmatlar)ni qo'ldan qo'lga bepul berilganda soliqqa tortiladigan oborot summasi korxonada qaror topgan baxo va ta'rif (QQSsiz) darajasida aniqlanadi, biroq tovarlarni ishlab chiqarish (sotib olish) xarajatidan kam bo'lmagan miqdorda, asosiy vositalar bo'yicha – ularning qoldiq qiymatidan kam bo'lmagan miqdorda aniqlanadi. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tekinga berilayotganda QQS to'lovchisi bo'lib ularni berib yuborayotgan korxonalar xisoblanadi. Asosiy vositalar korxonalar tizimining ichida tekinga berilsa soliqqa tortiladigan oborotga qo'shilmaydi, ya'ni yuqori tashkilotning buyrug'i bilan taqsimlansa.

Maxsulot (ish, xizmatlarni) xaqiqiy tannarx baxosidan past sotuvchi korxonalarda soliqqa tortish maqsadida maxsulot sotilayotganda qaror topgan baxo qabul qilinadi, lekin shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning ishlab chiqarish (sotib olish) xaqiqiy xarajatidan kam bo'lmasligi shart.

Tovarlarini natural xaq tarzida berilganda yoki kassa orqali o'z xodimlariga tannarx baxosidan past qilib sotilganda soliqqa tortiladigan oborot tovarlarni (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarishning xaqiqiy xarajatidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi. o'zi ishlab chiqqan tovarlar korxonada ichida tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarga foydalanilsa soliqqa tortiladigan oborotni aniqlash uchun ularning xaqiqiy tannarxi olinadi.

Xomashyo va materiallar egasining tovarini ishlab berganda soliqqa tortiladigan oborot bo'lib ularning qayta ishlov qiymati (xarajatlar va foyda qo'shib, aktsiz osti tovarlar bo'lsa aktsiz summasi xam qo'shib) xisoblanadi. Uzoq ishlab chiqarish tsikliga ega bo'lgan korxonalar uchun (qurilish, qurilish-mantaj, ta'mirlash-qurilish, proekt-qidiruv va ilmiy- tekshirish) soliqqa tortiladigan oborot bo'lib

xisoblashish xujjatlarida to'lash uchun ko'rsatilgan bajarilgan va byurtmachilar tomonidan tasdiqlangan qiymat xisoblanadi. Bu erda ishlarni bajarish jarayonida baxolarning transport va boshqa xizmatlarning ta'rifini oshishi yoki kamayishini xisobga olib tuzilgan shartnoma baxosidan kelib chiqiladi.

2. Soliqqa tortilmaydigan oborotlar.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliqqa tortilmaydigan oborot xam mavjud.

Bunday oborotga quyidagilar kiradi:

1. Korxonaning bir shoxobchalaridan ikkinchi shoxobchalariga sanoat ishlab chiqarish maqsadlari uchun yarim fabrikat ,bajarilgan ishlar va xizmatlar oboroti sotilganda (zavod ichi oboroti).

Bu shaxobchalar xisob schyotiga ega bo'lmaydi va bosh korxonaning balansida turadi.

2. Kooperativ, xo'jalik jamiyatlari va o'rtoqliklari, korxonaning boshqa ta'sischi o'rtasida korxonani tugatilishi munosabati bilan ular o'rtasida mulklar taqsimlangandagi oborotlar . Bu xolat tugatilayotgan korxonaning mulki boshqa shaxslarga sotilganda ta'luqli bo'lmaydi.

Xisoblashish xujjatlari to'langandan so'ng tovarlar qaytarilsa QQS summasiga o'zgartirishlar kiritiladi shu shart bilanki bir yil ichida so'rov talabi muddatiga rioya qilingan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini yagona 30% qilib belgilangan edi. Keyinchalik kiritilgan qo'shimchalar va o'zgarishlarga muvofiq 25% qilib belgilangandi, 1993 yilning 1 sentyabridan boshlab 1994 yilning iyunigacha korxonalar ixtiyorida qoladigan qo'shilgan qiymat soliq miqdori stavkasining 6% ni tashkil etdi, qolgan qo'shilgan qiymat solig'ining 19% stavkasi byudjetga o'tkazila boshladi. Korxonalar 1994 yil 1 iyundan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini 20% miqdorida to'lay boshladilar va korxonalar ixtiyorida qoladigan qo'shilgan qiymat solig'ining 6% ni bekor qilindi».

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 20% ga tushirilishi yuzaki olib qaralganda iqtisodiy jihatdan engillik berilganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 20% ga tushirish hisobiga tovar bahosini ma'lum darajada pasaytirish ko'zda tutilgan edi. Afsuski bu ham inflyatsiya tufayli ko'zda tutilgan natijani bermadi. Oxiri oqibatda Vazirlar Maxkamasini qaroriga binoan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1996 yilning 1 yanvaridan boshlab 17% qilib belgilandi. 1997 yilning 1 yanvariga kelib ayrim aholining birinchi navbatdagi iste'mol tovarlari bo'yicha ushbu soliq miqdori 10% boshqa tovar va xizmatlar uchun 18% darajasida o'rnatiladi.

1998 yilning 1 yanvaridan eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun 10% boshqa tovar va xizmatlar uchun 20% darajada o'rnatiladi. 1999 yilning 1 yanvaridan esa eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun 15% o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 31- dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2000 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjetining prognozi to'g'risida»gi 554-sonli Qaroriga asosan 2000 yil 1

yanvardan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan daromad(foyda) solig'ining stavkasi 33 %dan 31 %ga tushirildi va byudjet daromadlarini balansini ta'minlash uchun eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini 1999 yildagi 15 foizlik stavkasi 200 yil uchun 20% qilib belgilandi.

2000 yildan QQSdan soliq stavkasi Soliq kodeksida ko'rsatilgan 20% dir.

2000 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston xududidiga byudjet tashkilotlarining buyurtmasi va mablag'i xisobiga keltiriladigan asbob – uskunalar tovarlar (ishlar, xizmatlar) QQSdan ozod etilgan.

Belgilangan soliq stavkasiga qarab QQS summasi ikki usulda aniqlanadi.

1. $Ist.QQSqSO \cdot N : 100$

bu erda : Ist.QQS –istemolchilardan undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'i, SO-soliqqa tortiladigan oborot ,

N-soliq stavkasi.

Bu tartib deyarli xamma maxsulotlar (ishlar, xizmatlar) oborotiga qo'llaniladi.

2. O'z ichiga QQS summasi qo'shilgan baxo va ta'riflarda sotilgan tovarlar (ishlar,xizmatlar) sotilganda soliq quyidagi shaklda aniqlanadi:

$IstQQSqTQQQS \cdot N : (Nq100)$

TQQQS-QQSni o'z ichiga oluvchi tovar qiymati. QQS dan ozod bo'lgan korxonalar yoki tovarlar bo'yicha QQS dan ozod bo'lgan yuridik shaxslar erkin (shartnomaviy) baxo va ta'riflarga QQS summasini qo'shmaydilar.

Shunday xolat yagona soliq to'lovchi kichik korxonalariga, yalpi daromad solig'i to'lovchi savdo tashkilotlariga va yagona er solig'i to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarga xam taaluqlidir.

Ikkinchi gurux stavka-nolli stavkadir. Nolli stavkada quyidagilar soliqqa tortiladi:

1. mustaqil xamdo'stlik davlatlarini o'z ichiga olib eksportga erkin almashtiriladigan valyutalarda tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotilsa, agar xukumatlararo tuzilgan shartnomalarda boshqacha shartlar belgilanmagan bo'lsa:

2. qishloq xo'jaligi korxonalariga ishlab chiqrish qishloq xo'jalik maqsadlariga mineral o'g'itlar va yog'-moylash materiallari ortilsa;

3. chet el diplomatik va unga tenglashtirilgan vakolatxonalarining rasmiy foydalanishga tavarlar(ishlar, xizmatlar) sotilganda, shu vakolatxonalarining diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining shaxsiy istemoli uchun ,ular bilan birga yashovchi oila a'zolarini xam qo'shib (agar ular o'zbekiston fuqorosi bo'lmasa) ular O'zbekistonda doimo yashamasa chet el mamlakati xam shunday printsip qo'llasa nolli stavka qo'llaniladi.

Nolli stavkada soliqqa tortiladigan korxonalar QQSni «0» stavkada xisoblaydi va material resurslarni sotib olib ishlab chiqarishda foydalangan QQS summasini xisobga oladi.(zachyot).

Ya'ni bunday maxsulot ishlab chiqaruvchilar QQSni maxsulot etqazuvchiga xam,byudjetga xam to'lamaydilar chunki «0» stavkada sotadilar. Demak,nolli stavka degani QQSdan tamomila ozod etilgan demakdir. Ana shu xolat bilan nolli stavka sotib olgan materiallarini ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shuvchi QQSdan imtiyoz oluvchi korxonalardan farq qiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan imtiyozlar turi quyidagilardir:

1. to'liq ozod bo'ladigan yuridik shaxslar.

2. ozod etiladigan tovarlar.

3. ozod etiladigan ishlar va xizmatlar.

Soliq to'lashdan to'liq ozod etiladigan yuridik shaxslarga:

1. qishloq xo'jalik tovar maxsuloti ishlab chiqariuvchi yagona er solig'i to'lovchilar;

2. yagona soliq to'lovchi kichik korxonalar;

3. yalpi daromadga soliq to'lovchi savdo tashkilotlari.

4. «Nuroniy» jamg'armasi va uning birlashmalari

5. umumiy ishlovchi xodimlar sonidan kamida 50% ini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar. Bu imtiyoz vositachilik, ta'minlov-sotuv va tayyorlov tashkilotlari faoliyatiga taaluqli emas. Soliqdan ozod bo'ladigan tovarlar va maxsulotlarga quyidagilar kiradi:

1. Protez-ortopediya buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar maxsuloti, nogironlar uchun inventarlar va ularga ortopediya –protez xizmatlari ko'rsatish, davolash muassasalari qoshidagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining maxsulotlari;

2. qo'riqlash bo'yicha davlat vakolatchisi tomonidan sotiladigan nodir metallar oboroti.

3. nashriyot, gazeta va jurnallarning matbaa korxonalarining asosiy faoliyati maxsulotlari va xizmatlari;

4. Respublikada ishlab chiqilgan qurilish materiallari yakka tartibdagi quruvchilariga sotilganda;

5. Xususiylashtirilgan mulklar qiymati, tabiiy ofat, qurolli to'qnashuvlar, baxtsiz xodisalar ro'y berganda yordam ko'rsatish tariqasida olib kelingan mulklar, gumanitar yordam ko'rsatishga mo'ljallab keltirilgan tovarlar;

6. Bolalar tovarlari assortimenti va ayollar gigienasi maxsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ishlab chiqarish korxonalarini 5 yilga soliqdan ozod etiladi. Sharti shu tovarlarni sotish baxolarini 1998 yil bazali darajasidan 15% kam qilib sotadilar.

O'zbekiston Respublikasi qizil yarimoy jamiyati, O'zbekiston teatrlar faoliyati uyushmasi, "Sog'lom avlod uchun" Xalqaro mexr-shafqat fondi, "Nuroniy" fondi korxonalarining tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga xisoblangan QQS summasi shu fondlar va uyushmalarning ustav vazifalarini bajarishga sarflansa byudjetga to'lanmaydi.

Shu fondlarning korxonalarini bo'lib ta'sisчилari tomonidan ularning ustav fondlari 100% tashkil etsa xisoblanadi. QQSdan ozod bo'lgan korxonalar boshqa, faoliyatidan soliq to'lasalar shu faoliyat turlari bo'yicha aloxida xarajatlar va faoliyat natijalarini xisobotini olib boradi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining yuqorida aytib o'tilgan stavkalari va imtiyozlari soliq summasini xisoblashda xisobga olinadi malakaviy bitiruv ishimizning keyingi savolida ana shu tartibni ko'rib chiqamiz.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash paytida soliqqa tortiladigan baza bo'lib yangidan yaratilgan qiymat ya'ni tovar maxsuloti bilan shu tovarni ishlab chiqarish

uchun ishlatilgan xom ashyolar qiymati o'rtasidagi farq hisoblanadi. Bunday soliqqa tortiladigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda har xil metodlardan foydalanishga imkon yaratadi (berilgan bir xil stavkada).

Xalqaro amaliyotga ko'ra QQS byudjetga to'lanadigan summasini aniqlash 3 ta har xil usul bilan aniqlanadi.

1. Hisobdan chiqarish usuli.

Ushbu usulga ko'ra korxonalar byudjetga to'laydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini sotib olingan tovarlar qiymatini sotgan tovarlar qiymatidan chiqarib tashlab farqni aniqlaydi va bu farqga soliq stavkasini ko'paytirish yo'li bilan aniqlaydi.

2. Hisobga olish usuli.

Hisobga olish usuli yoki schet-faktura usuli Evropa birligiga kiruvchi barcha davlatlarda va qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan boshqa ko'pgina davlatlarda qo'llanib kelinmoqda.

Ushbu usulga ko'ra korxonalar byudjetga to'laydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini sotib olingan tovarlar (xizmatlar) uchun to'langan soliq summasini sotilgan tovarlarga (xizmatlarga) hisoblangan soliq summasidan chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlaydi.

3. Yig'ish usuli .

Ushbu usulga ko'ra korxonalar byudjetga to'laydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini yangidan xosil qilingan qiymatlar komponentlari, ish xaqqi, ijara xaqqi, foizlar va sof foidalarni yig'ib, xosil bo'lgan summani soliq stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida Soliq Kodeksiga ko'ra byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish usulidan foydalangan holda aniqlanadi. Lyokin bu usulga ba'zi o'zgartirishlar kiritilgan holda qo'llanib kelinmoqda.

Bu o'zgartirishga ko'ra byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi korxonalar hisobot oyidagi ishlab chiqarishga va muomalaga ishlatilgan hamda ishlab chiqarish harajatlariga kiritilgan xom ashyo materiallarni schet fakturaga asosan sotib olingan paytida to'langan QQS summasini hisobot oyida sotilgan tovarlarga hisoblangan QQS summasidan chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlaydi.

Korxonalar o'zlari ro'yxatdan o'tgan soliq inspeksiylariga QQS xisobini xar oyda xisobotdan so'ngi oyning 15 sanasiga qadar, yillikda yillik moliyaviy xisobotlar topshirgan muddatda topshiradilar.

Korxonalar QQSni soliq xisobi topshirgan kundan kechiktirmay tegishli davrdagi (oy) xaqiqiy sotish oborotidan kelib chiqib to'laydilar.

Korxonalar o'tgan oyda to'langan QQS summasi 50 karrali minimal ish xaqqidan oshgan taqdirda oxirgi oylik xisobidagi soliq summasining oltidan bir miqdorida un kunlik (bunak) to'lovlarni (15,25 va keyingi oyning 5 sanasiga) to'laydilar. Keyinchalik oyning 15 sanasiga qayta xisobni xaqiqiy sotish oborotidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 26- dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2001 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va

Davlat byudjetining prognozi to'g'risida"gi 500-sonli Qaroriga asosan 2001 yil 1 yanvardan boshlab pudrat qurilish tashkilotlari qo'shilgan qiymat solig'i avans to'lovlari bekor qilindi. Ular uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha xisob kitoblarni taqdim qilish va soliqni to'lash muddati oylik qilib belgilandi. Ular qo'shilgan qiymat solig'ini xar oyda o'sib boruvchi yakun bo'yicha xisobot oyidan keyingi oyning 15- sanasidan kechikmay to'lashadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining xisob-kitobi quyidagicha bo'ladi.

«Orzu» OTAJning 2004 yil uchun QQS xisobi.

shartli

№	Ko'rsatgichlar	oborot	QQS stavkasi	QQS summasi
1.	Sotib olingan xomashyo, materiallar, komplekt buyumlar, yokilg'i, ishlar, xizmatlar	772074. 5	20	15441.5
2.	Ortib yuborilgan tovarlar (ishlar,xizmatlar) qiymati .jami	269660. 3	20	53932.1
3.	shu jumladan -QQSga tortilmagan oborot			
4.	-nolli stavka bo'yicha soliqqa totish			
5.	-KKSga 20%li stavkada			
6.	Xisob bo'yicha xisoblangan QQCsummasi (2-1)			38960.6
7.	Xisobot davrida to'langan bo'nak to'lovlar			4582.1
8.	Avvalgi xisob bo'yicha xisoblangan QQS summasi (avvlg'i xisobning 3 katori)			
9.	QQS summasi:			-
10.	qo'shimcha xisoblendi			-
11.	Kamaytirishga tegishli			7365.1

Agar xisob bo'yicha chiqqan soliq summasi o'n kunliklar bo'yicha to'langan summadan kam chiqsa farqi kelgusi oylar to'loviga o'tkaziladi.

Agar korxonalarining boshqa soliqlar va yig'implardan qarzi bo'lmagan taqdirda, soliq va yig'implarni ko'p to'lab yuborgan bo'lsa korxonaning yozma arizasiga binoan unga 30 kun ichida qaytariladi yoki kelgusi to'lovlar xisobiga yotqiziladi.

Yangi tuzilgan korxonalar yoki ilgari soliq to'lamagan korxonalar soliqni birinchi oyda xaqiqiy sotish oborotidan kelib chikib to'laydilar. Keyingi oylarda soliq umum tartib bo'yicha to'lanadi.

Agar korxonalar bir tekis maxsulot (ishlar,xizmatlar) ishlab chiqarmasa yoki keyingi oyda soliqqa tortiladigan oboroti bo'lmasa birinchi o'n kunlik xisoblangan to'lovlarga qadar davlat soliq inspeksiyalariga yozma xabar berib qo'yishlari kerak.

Kutilayotgan oborot keyingi xisobot davrida kamaysa arizada ko'rsatilgan oborotdan kelib chiqib va kutilayotgan soliq summasidan xisoblanadi.

Barcha maxsulot va ish, xizmatlarni bajaruvchilar kushilgan kiymat soligini tulaydilar eki ozod buladilar, ba'zi bir guruxdagi xujalik sub'ektlariga esa kushilgan kiymat soligi tulash urniga aloxida soliqqa tortish tartibi joriy kilinadi.

3. Qo'shilgan qiymat solig'ining prognoz qilishda unga ta'sir qiluvchi omillar.

Kushilgan qiymat soligidan ozod kilinishi, aloxida soliqqa tortish tartibi joriy kilinishi xujalik sub'ektlari moliyaviy faoliyati uchun uziga xos ikki xususiyatga egadir. Chunki ular xujalik sub'ektlarining moliyaviy faoliyatiga turlicha ta'sir kiladi. Birinchi xususiyati shundaki kushilgan qiymat soligidan ozod kilingan, aloxida soliqqa tortish tartibi joriy kilingan xujalik sub'ektlari uz tovar va xizmatlarini sotganda ushbu tovar va xizmatlar tannarxiga ishlab chikarish materiallarini sotib olishda tulaetgan kushilgan qiymat soligi kiradi va baxosiga avtomat ravishda kuyilgan buladi, xamda boshka ishlab chikarish uchun ishlab chikarish tannarxining elementi sifatida uzida aks ettiradi.

Kushilgan qiymat soligidan ozod kilinishi, aloxida soliqqa tortish tartibi joriy kilinishi xujalik sub'ektlari moliyaviy faoliyatiga ta'sirining xususiyati shundaki kushilgan qiymat soligidan ozod kilingan tovar va xizmatlarni sotib olaetgan kushilgan qiymat soligi tulovchi ruyxatida turgan xujalik su'bekti uzi tomonidan ishlab chikaraetgan maxsulotlar uchun soliq kreditidan foydalana olmaydilar. Shu tufayli ishlab chikaruvchiga kushilgan qiymat soligini tulashda maxsulotlarni sotishda xisoblangan soliq va maxsulotlarni sotib olishda tulagan soliq orasidagi farkni tulamay, balki sotish oborotidan xisoblangan soliqni tulik tulashga majburlanadi. Buning natijasida kushilgan qiymat soligiga tortish zanjirida soliqdan ozod kilingan bulinma tushib kolishi tufayli kushilgan qiymat soliqqa bir necha marotaba tortiladi va soliq tulash ogirligi keyingi bulinma zimasiga tushadi. Chunki u soliqdan ozod kilingan maxsulotlarni uz ishlab chikarishi uchun ishlatadi. Kanchalik kushilgan qiymat soligidan ozod kilingan maxsulotlar va ishlab chikaruvchilar kupaysa, kushilgan qiymat ikki eki undan ortik marta soliqqa tortilishi extimoli kupaya boradi.

Solikdan berilgan imtiezlar ta'sirini xujalik faoliyatini va maxsulot baxosi antimonopol konunlari bilan tartibga solinadigan korxonalarda xam kurish mumkin. Bu korxonalar shaxarda passajir tashish bilan shugullanadigan korxonalar, uy-joy kurulishi bilan shugullanadigan korxonalar bulishi mumkin. Bu korxonalar soliq konunchiligi bilan soliq imtiezlari berilgan. Bu korxonalar maxsulot va xizmatlar baxosini oshira olmaydi. Natijada kushchilgan qiymat soligi buyicha kilingan moddiy xarajatlar korxonalar foydasigda eki ularning zararini kupayishiga olib keladi. Xalkaro soliq konunchiligida bu kabi salbiy xolatlari oldini olish maksadida soliq imtiezalari kamaytirilmokda. Lekin mamlakatimizda bu jaren teskaricha rivojlanmokda. O'zbekiston Respublikasida 1991 yilda kabul kilingan «Korxonalar, birlashmalar, va tashkilotlardan soliqlar» konuniga kura kushilgan qiymat soligidan soliq imtiezlari 28 ta bulgan bulsa, Solik kodeksi kabul kilinishi munosabati bilan ularning soni 38 taga etdi. Kushilgan qiymat soligidan berilgan imtiezlardan foydalanishi taxlil kilinganda 2002 yilda ushbu soliq turidan tushgan tushumning 10 foizini tashkil kiladi³. Bundan kurinib turibdiki soliq imtiezlari korxonalar uchun samara bermaydi.

Tayanch iboralar:

Qo'shilgan qiymat solig'i

³ Uzbekiston Respublikasi DSK ining taxlili ma'lumotlari buyicha

Soliq stavkasi
Nolli satavka
Soliq ob'ekti
Soliq imtiyozlari
Import mahsulotlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i
Bojxona yuk deklaratsiyasi
Schyot-fakturalarda qqsni aks ettirish

Tekshirish uchun savollar:

1. Qo'shilgan qiymat solig'i qanday tushunchani bildiradi? Evropa davlatlari amaliyotida QQSni hisoblashni qanday usullari mavjud?
2. QQSni qanday shaxslar to'laydi va soliq ob'ekti nimani bildiradi? Soliqqa tortiladigan oborot qanday aniqlanadi?
3. Soliqqa tortimaydigan oborotlar ham mavjudmi?
4. QQS stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday bo'ladi?
5. QQSdan ozod etiladigan qanday yuridik shaxslar mavjud? Qanday tovarlar va mahsulotlar (ishlar xizmatlar) QQSdan ozod bo'ladi?
6. Schyot-fakturalar qanday to'lg'aziladi va unda QQS qaysi punktlarda ko'rsatiladi?
7. Byujetga to'lanadigan va hisobga olinadigan QQS summasini aniqlash tartibi qanday? QQSni to'lash va hisobotni taqdim etish tartibi qanday?
8. Import tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha soliq to'lovchilar kimlar? Import tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud va soliqni to'lash tartibi, muddati qachon amalga oshiriladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,2,6,7,9,12,13,17,18,19.4,25.
Qo'shimcha adabiyotlar: 19,20,23,25,28.

8-mavzu: Soliq tushumlarining prognozi (4 soat)

1. Soliq tushumlarini prognozlash va uning vazifalari.
2. Prognozning ehtimolligi va istiqbolga qaratilganligi.
3. Prognoz hisoblari uchun asos bo'luvchi manbalar.

1. Soliq tushumlarini prognozlash va uning vazifalari.

Prognozlash, moliyaviy siyosatni amalga oshirishda paydo bo'layotgan sharoitlarni yaxshilab o'rganib va ko'rib chiqishga imkon yaratadi, ichki va tashqi sharoitlarni inobatga olgan holda tahlil qilib, korxonani moliyaviy va bozor sharoitida faoliyatini mustahkamlashga kelajakdagi moliyaviy strategiyani aniqlaydi.

Korxonada taraqqiyoti sharoitlarini tashkil etishda boshlang'ich bo'lib – **prognozashtirish** (yoki istiqbolni belgilash) maydonga chiqadi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Birinchidan, aktsiya kursini, qurilishga berilgan litsenziyalarni buyurtmalarini hajmini, asbob uskunalarni etkazib berish kabi bozor ko'rsatkichlarni sinchiklab kuzatish. Tegishli statistik qatorlar ko'pincha umumiy o'zgarishlar to'g'risida ogohlantiradi.

Ikkinchidan, prognozashtirish modellarining har biri iqtisod sohasining u yoki bu tomonini ilmiy tavsifini bergan holda foydalanishni mo'ljallaydi. Model ichiga dinamik (o'zgarishlarga boy) ko'rsatkichlar ham kiritiladi, shu qatorda fiskal amaliyotida yuz berishi mumkin (ehtimoli) bo'lgan o'zgarishlar ham e'tiborga olinadi.

Natija bo'lib, kelgusi yilga iqtisodiy o'sish, mehnat va kapital bozorlarning ahvolini prognozi bo'lishi kerak.

Kon'yunkturaviy prognoz baholari siyosatchilarga kerak bo'lgani kabi, tadbirkorlar uchun investitsiyalar, mahsulotni ishlab chiqarish hajmi va boshqa ko'rsatkichlar to'g'risida mo'ljall bo'ladi.

Soliqlarni prognoz qilish – vazifalar ishlab chiqish va qabul qilish tizimining asosiy elementidir. Soliqni prognoz qilishning asosiy vazifasi – byudjet vazifalarining sifatli va sonli parametrlarini va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining kelajak uchun dasturini qonuniy tartibda ishlab chiqilgan va qabul qilingan soliq kontseptsiyalaridan kelib chiqib iqtisodiy asoslangan holda ta'minlashdan iborat. Bu vazifa bir moliya yili uchun ham (joriy soliqni prognoz), uzoqroq kelajak uchun ham (soliqni prognoz qilish) hisob-kitob qilinadi. Shunga bog'liq holda soliqni rejalashtirish va taktikasi va uning strategiyasi farqlanadi.

Soliq bo'yicha joriy byudjet vazifalarini ishlab chiqishda, choraklik soliq tushumlarini aniqlashda taktik vazifalar echiladi. Ularning echimi soliqqa tortish bo'yicha strategik maqsadlarni o'rnatish va tadqiq qilish uchun huquqiy makon yaratadi. Bu holda soliqni prognoz qilish joriy soliq majburiyatlarini bajarish bo'yicha olingan xisobot vatahliliy ma'lumotlari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanadi. Bu ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash joriy yildagi soliqqa tortishning pozitiv va negativ ko'rinishlarini, uning investitsiyalash

darajasiga, tarmoqlardagi tarkibiy o'zgarishlarga, hududlar, korporatsiyalar va fuqarolar daromadlariga ta'sirini baholashga yo'l ochib beradi.

Soliq taktikasi byudjet klassifikatsiyasi bo'yicha daromadlari moddalari tarkibini ishlab chiqish, soliq boshqaruvi va nazoratini amalga oshirish borasida hokimyat va boshqaruv organlarining kompleks amaliy faoliyatlarini aks ettiradi. Taktik qadamlarning sifatli tarkibi barcha darajadagi byudjetlarning to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi. Byudjet soliq munosabatlariga soliqlar orqali operativ aralashish metodini qo'llab soliq ma'muriyati soliq qonunbuzarliklarining oldini oladi va byudjetlarni soliq tekshiruvlari jarayonida aniqlangan to'lanmagan soliqlar orqali to'ldiradi. Y'kuniy natijada butun soliq tizimining, uning soliq guruhlarining va alohida soliqlarning muvofiqligi aniqlanadi. Bularning hammasi qabul qilingan soliq kontseptsiyasining optimalligi yoki soliq kodeksiga o'zgartirishlar kiritish lozimligini ko'rsatib beradi. Joriy yildagi soliq majburiyatlarining bajarilish borasidagi soliq munosabatlari tarkibini tahlil qilib o'rganish soliqlarni strategik rejalashtirish (prognoz qilish)ning samarali chiqishi uchun muhim shart bo'lib xizmat qiladi.

Soliqlarni strategik prognoz qilish boshqaruv nazariyasi va amaliyotida muhim o'ringa ega. U barcha etakchi mamlakatlarda iqtisodiy oldindan ko'ra bilish metodi sifatida qo'llaniladi.

O'rta muddatli kelajak uchun soliq prognozlarni ishlab chiqish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Hududlar mulki daromadlilikini baholash (hududlar moliyaviy ta'minlanganligi koeffitsientlari va byudjet samaradorligi qo'llaniladi), hududlarning ixtisoslashgan tarmog'larini texnik tiklashga, yangilashga talabini baholash, mehnat haqi holati, hudud resurs bazsini, hududning iqtisodiy import operatsiyalarida ishtiroki, ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura sifati transport magistrallari bilan ta'minlanganligi va hakoazolarni baholash. Bu ma'lumotlar hududning yalpi daromadini, uning iqtisodiy, moliyaviy va soliq potentsiallarini metodik hisoblashda ma'lumot bazasini tashkil qiladi.

2. Hududning iqtisodiy o'sishini hisobga olgan holda soliq tushumlari hajmini prognoz qilish. Bu ma'lumotlar barcha darajadagi byudjetlarning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, zero bularda hududlarning subsidiya, subventsia, dotatsiya va transfert moliyalashtirish kderal resurslarga bo'lgan talablari ancha aniq aks etishi mumkin. Hudud potentsialini bilish soliqqa tortishning imtiyozli rejimini ancha aniq shakllantirish imkonini beradi. Bu soliq qonunchiligini takomillashtirish masalalarini qilishda muhim.

3. Hudud iqtisodiyotining resurslar tarkibi va mol-mulki turlarini umumqamrovli inventarizatsiya qilish. Hududiy mulkdan foydalanishdan olinadigan va ichki ehtiyojni qondirishga qaratiladigan vositalar ulushini aniqlash.

4. byudjet defetsiti miqdorini, inflyatsiya darajasini, baho indeksini, bozor indikatorlarini hisoblab chiqarish.

Soliqlarni prognoz qilishni moliyaviy menejmentning bazaviy elementlaridan biri sifatida ko'rib chiqish to'liq o'rinli. Bu holda moliyaviy menejment keng ma'noda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Umumdavlat moliyaviy menejmenti tarkibida asosiy o'rinlardan

birini byudjet-soliq menejmenti egallaydi. Boshqaruv faoliyatining bu tizimi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, uning (byudjet-soliq, soliq islohotlari va boshqa) departamentlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va boshqa boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Umumdavlat soliqlari bo'yicha soliqni prognozlashtirishning maqsadi umumdavlat fondi bo'lgan byudjetda markazlashtirish uchun moliyaviy resurslar hajmini soliq to'lovchilar bo'yicha aniqlash. Ushbu resurslarni rejalashtirishda hokimiyat organlari eng avval mumkin bo'lgan iz'yatiyaning maksimal yuqori darajasiga mo'ljal qilishadi. Ushbu jarayon jamiyat rivojlanishi darajasida umumdavlat ehtiyojlarining o'sib borishi hisob-kitobiga asoslanadi. Moliyaviy ehtiyojlarning o'sib borishning ob'ektiv ekanligi A.Valner tomonidan asoslangan, bu esa shunday nomli qonunni shakllantirdi. Bu qonun davlat xarajatlarining ko'p sabablarga ko'ra doimiy o'sish tendentsiyasini aniqladi. Bu sabablar quyidagilar: aholi sonining o'sishi, noishlab chiqarish sohasida, xizmat ko'rsatish sohasida talablarning o'sishi, aholining bilim darajasining o'sishi va shu kabilar. Bu xizmat odatda korporatsiyalar tomonidan ko'rsatilmaydi, ko'rsatilganda ham ularning narxlari shunchalik hqori bo'ladiki, bu xizmatlardan fuqarolarning chegaralangan qismigina foydalana olishi mumkin.

Ma'lum reja davriga soliqlar bo'yicha aniq vazifalarni ishlab chiqish bir qator bir-biriga bog'liq faoliyatlarni o'z ichiga oladi:

- ❖ O'tgan davrda iqtisodiyotda yuz bergan tendentsiyalarni hisobga olib soliq rejimi variantlarini izlash;
- ❖ Optimal soliqqa tortishning variantlarini, ularning soliq guruhlari, moliya-xo'jalik faoliyatlari tiplari, soliq to'lovchilar guruhlari, alohida hududlar va boshqalar bo'yicha ranjirovaniyasini baholash;
- ❖ Bo'lg'usi soliq rejimlari variantining afzalliklarining asoslanishi;
- ❖ O'tgan yilgi byudjetning bajarilishida o'tkazilgan tajribalarning ma'lumotlarini hisobga olib soliqdan tushumlar loyihasini hisoblash;
- ❖ byudjet klassifikatsiyasining mos moddalari bo'yicha hukumat va parlament tomonidan qabul qilingan majburiyatlarini muhokama qilish, byudjet daromadlarini yakuniy ovoz berish orqali mos qonunlarni aniqlashtirish va qabul qilish.

Bu faoliyatlar ichida eng muhim rolni g'oshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun ma'lumotlar yig'ish va qayta ishlashning tahliliy bosqichi o'ynaydi. To'plangan va qayta ishlangan materialning ishonchli va to'liqligi byudjet soliq me'yor va qoidalarining keyingi takomillashtirilishi uchun dastlabki bazasini tashkil qiladi.

2. Prognozning ehtimolligi va istiqbolga qaratilganligi

Umumdavlat faoliyatini ifodalovchi moliya rejalariga davlat byudjeti, davlat sotsial sug'urta byudjeti, davlat mulkiy va shaxsiy sug'urtasi moliya rejasi hamda territorial va davlatning moliya mablag'larini ko'rsatuvchi yig'ma moliyaviy mablag'lari kiradi. Bu moliyaviy rejalarda davlat byudjeti alohida o'rin tutadi. Davlat byudjetida davlat bilan turli mulk formasiga ega bo'lgan korxonalar, xo'jalik tashkilotlarining moliyaviy munosabatlari aks etadi. Uning daromad qismida daromadlarni kelib tushish manbalari ko'rsatiladi; xarajat qismida esa mablag'larning sotsial-madaniy tadbirlarga, halk xo'jaligiga, aholini ijtimoiy himoyalashga,

boshqaruvga, mudofaaga va boshqalarga sarflanishi aks ettiriladi. Davlat byudjetining yana bir muhim ahamiyati shundaki, u boshqa moliya rejalaridan farq qilib qonun tariqasida tasdiqlanadi. Moliya rejaları tizimida sohalar moliya rejaları asosiy o'rinni egallaydi va bu erda daromadlar va xarajatlar balansi muhim rol o'ynaydi. Hozirgi paytda korxonalar moliyaviy rejaları biznes rejalar deb yuritilmoqda.

Har qaysi reja mo'ljallangan davr uchun daromadlar va harajatlar, moliya va kredit tizimlarining zvenolari o'rtasidagi aloqalar (ijtimoiy sug'urtaga ajratma badallari, byudjetga to'lovlar, bank krediti uchun to'lov va boshqalar) aniqlanadi.

Istiqbollashtirish xalq xo'jalik rejalashtirishining ilmiy-analitik etapidir.

Uning xo'jalik rejalashtirish ishlab chiqarishdagi bosh masalasi – bu ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlaridagi ilmiy tahlil, ro'yobga chiqqan holatga va xo'jalikni rivojlantirishdagi vujudga kelgan muammolarga baho berish barcha mavjud bo'lgan rivojlantirish yo'nalishlarini belgilashdan iboratdir.

Istiqbollashtirish usullari quyidagicha turkumlanishi mumkin:

1. Istiqbol maqsadiga ko'ra – konfirmativ va rejaifikatsion (operativ, taktik va strategik);
2. Prognozning belgilanishiga ko'ra – umumiy va maxsus belgilangan istiqbollarga, boshqaruv istiqbollarga;
3. Tasdiqlash darajasiga ko'ra – intuitiv va mantiqiy;
4. Natijalarni ifodalash shakliga ko'ra – sifat va miqdoriy istiqbollarga;
5. Muddatga ko'ra-uzoq muddatli, o'rta muddatli va qisqa muddatli istiqbollarga.

Ma'muriy boshqaruv tizimi sharoitida pul daromadlarining va yig'implarining taqsimlanishi va turkumlanishi, ularning markazlashgan va markazlashmagan fondlarda pul mablag'larining guruhlanishi direktiv rejalashtirish orqali aniqlanar edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish boshqaruv funktsiyasi sifatida, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning barcha tomonlarining umumiy shaklini qabul qila olmaydi. Bundan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish jarayonida hamda tovarlar va xizmatlar realizatsiyasida xukmron va aniqlovchi usul bo'lib – pul, baho, qiymat qonuni, talab va taklif qonunini o'z ichiga olgan bozor mexanizmi bilan tashkil qiladi.

Bozor mexanizmining bunday muhiti rejalashtirish elementlari ishtirokida ishlab chiqarish va almashuv natijalarini aniqlovchi prognoz uslubiyoti amal qilishini aniqlab beradi.

Bozor iqtisodiyoti o'zining bosh omillari bilan amal qiladi, ya'ni tovarlar, ishchi kuchi, ssuda kapitallari bahosi bevosita tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab va taklif nisbatiga bog'liqdir. Bozorni o'rganish, uni tashkil qilish va rejalashtirishning elementlarini boshqarish marketing mazmunini tashkil qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida iqtisodiy islohotning amal qilishi boshqaruvning muhim va bosh funktsiyasi sifatida rejalashtirish o'rin egallaydi. Moliyaviy rejalashtirish bozor iqtisodiyoti talabalarini hisobga olgan holda yangi o'ziga xos belgi va tomonlariga ega bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning rivojlanishida moliyaviy rejalashtirishga talab kamaygani yo'q. U avvalgiday ishlab chiqarish fondlarining kengaytirilgan doiraviy aylanishini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga, moliya-

xo'jalik faoliyatida samaradorlikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishga, korxonaning moliyaviy chidamkorligini va to'lovga qobiliyatini mustahkamlashga sharoit yaratib berishga qaratilgandir. Hozirgi paytda avvalgi direktiv rejalashtirish tizimi davriga qaraganda moliyaviy rejalashtirish sifatini oshirish maqsadga muvofiqdir, chunki bozor munosabatlarida o'z faoliyatining samarasizligi, shu bilan birgalikda moliyaviy rejalashtirishda noto'g'ri hisob-kitoblarni yuritishda javobgarlikni korxonaning o'zi tortadi.

Yangi xo'jalik yuritish sharoitida o'zining katta rolini saqlab qolgan moliyaviy rejalashtirish o'z navbatida qayta qurilgan bo'lishi lozim. Uning mazmuni va amaldagi shakllari xo'jalikning yangi iqtisodiy sharoitlari bo'lgan o'zgarishlari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda moliyaviy rejalashtirish bozorning kon'yukturasini hisobga olgan holda biror bir voqelikning bo'lish ehtimoli borligini va shu bilan birgalikda moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning holatining o'zgarishini hisobga olgan holda korxonaning faoliyati asoslarini ta'minlamog'i lozim.

Moliyaviy va xo'jalik mustaqilligini mavjud sharoitida korxonaning o'zi mustaqil tarzda o'zining rejalarini ishlab chiqadi va bunda uning yagona maqsadi-xo'jalikni yuqori samaradorlikka etkazishdir. Shuning uchun ham moliyaviy rejalashtirishda katta e'tiborni korxonada o'zining ichki rezervlarini to'liq namoyon qilishga, ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanishga, moddiy mehnat va pul resurslardan unumli foydalanishga, ishlab chiqarishni to'g'ri va yaxshi tashkil qilishga va boshqalarga qaratilgandir.

Turli darajadagi byudjetlarga soliq tushumlarining aniq miqdorini hisoblashda uchta printsipl muhim ko'rsatma katta ahamiyat kasb etadi.

1. Soliq to'lovchilarning byudjet bilan o'zaro munosabatlarining pozitiv va negativ ko'rinishlarini sinchiklab o'rganish, bu munosabatlarni rivojlantirish qonunchiligini o'rnatish.
2. Butun soliq tizimining, uning alohida elementlarining va alohida soliqlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatga va aksincha ta'sirlarning namoyon bo'lishi maqsadida byudjet-soliq tizimida omilli tahlil o'tkazish.
3. Oldindan kutilmagan iqtisodiy, moliyaviy, byudjet va soliq vaziyatlarining, soliq to'lovchilar maqsadlari va byudjet maqsadlari o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi sodir bo'lish ehtimollariga tahliliy baho berish. Bu hollarni yaxshilash yoki butunlay bartaraf etish kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

1. Prognoz hisoblari uchun asos bo'luvchi manbalar.

Soliq idoralarida soliq tushumlarini prognoz qilish ishlarini tashkil etishni o'rganishdan oldin soliq ishlarini yuritish masalalarini chuqur o'rganish talab qilinadi.

Soliq tushumlarini prognoz qilish hisob-kitoblarning quyidagi 3 turi ajratib ko'rsatiladi. Bular:

- 1) Korxonada ma'lumotlari bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilish.
- 2) Haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib soliq tushumlarini prognozlash
- 3) Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha soliq tushumlarini prognozlash.

- Korxonalar ma'lumotlari bo'yicha – soliq tushumlarini va boshqalar byudjetga to'lanadigan to'lovlarni prognoz qilishda hisob-kitoblar har bir korxonalar bo'yicha alohida-alohida amaldagi soliqqa tortish bo'yicha qonun hujjatlari yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlarga asosan soliqlarni to'lash muddatlariga qarab oylik, choraklik, yarim yillik muddatlarga asosan ishlab chiqiladi.

Har bir korxonalar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, byudjetga to'langan soliqlar to'g'risidagi (hisobot) ma'lumot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, valyuta mablag'lari harakati to'g'risidagi (hisobot) ma'lumot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, moliyaviy iqtisodiy holat bo'yicha hisobot va boshqa hisobotlarni soliq organlariga topshirish talab etiladi. Ushbu xujjatlar soliq idoralari tahlil etiladi va prognozlash uchun asosiy xujjat bo'lib hisoblanadi.

Korxonalar ma'lumotlari bo'yicha soliq tushumlarini prognoz hisob-kitoblari soliq idoralari va korxonalar tashkilotlar mutaxassislari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

2. Haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib soliq tushumlarini prognoz qilish statistika, moliya idoralari ma'lumotlari, shuningdek byudjetga haqiqatda kelib tushgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib soliq tushumlarini prognoz qilishda byudjetga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hajmiga ta'sir qiluvchi quyidagi omillar hisobga olinadi:

- a) Pul mablag'lari inflyatsiyasi
- b) Mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish hajmini o'sish yoki kamayish sur'ati;
- v) Xodimlar ish haqini o'sish yoki kamayish sur'ati;
- g) Asosiy fondlar va mol-mulk qiymati;
- d) byudjetga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'sishi hamda kamayishi;
- e) Mahalliy hokimiyat organlari va moliya organlari tomonidan prognoz qilinayotgan davr uchun byudjetning asosiy ko'rsatkichlari.

Asosiy manbalar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumining o'zgarishi, shuningdek soliqqa tortish bo'yicha yangi manbalarning mavjudligini hisobga-olib amalga oshiriladi.

3. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilish soliqlarni 5 ta asosiy manbasi bo'yicha amalga oshiriladi va ular quyidagi soliqlardan iborat:

1. Qo'shilgan qiymat solig'i;
2. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i;
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.
4. Aktsiz solig'i
5. Mol-mulk solig'i va resurslar solig'i olingan ma'lumotlar asosida soliqlar va tushumlarni byudjetga tushishi prognoz hisob-kitoblari uchun asosiy ko'rsatkichlar nomli shakl to'ldiriladi va hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Hisob-kitoblar asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha jumladan, aholining turmush darajasi, pul mablag'lari qadrsizlanishi, mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish hajmini o'sishi yoki kamayishi sur'ati, baho indeksi va

iqtisodiyotning rivojlanishdagi boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Haqiqatda olingan ish haqi bo'yicha ma'lumotlar bank muassasalaridan olinadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning byudjetga tushishi prognoz hisob-kitoblari quyidagilar asosida ishlab chiqiladi:

Soliqqa tortish bo'yicha amaldagi qonun hujjatlar va yo'riqnomalar;

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan daromad klassifikatsiyalari;

O'zbekiston Respublikasi hukumati viloyatlar qaror va buyruqlari;

Soliq to'lovchilar bo'lmish yuridik va jismoniy shaxslarning inventarizatsiya ma'lumotlari;

Ish haqi, debitor va kreditorlik qarzlari bo'yicha ma'lumotlar;

Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining shahar va tuman bo'limlarini iqtisodiy statistik ma'lumotlari

Aholi turmush darajasi pul mablag'lari inflyatsiyasi, ishlab chiqarish hajmini o'sishi va kamayishi va baho indeksini hisobga olgandagi asosiy ko'rsatkichlar.

Soliq tushumlarini prognoz hisob-kitoblarini metodologik asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasi davlat Soliq Qo'mitasi kollegiyasi tomonidan tasdiqlangan metodik ko'rsatmalar;

Amaldagi soliqqa tortish bo'yicha yo'riqnomalar va moliya organlarining ko'rsatmalari hisoblanadi.

2002 yil uchun soliq tushumlarining prognoz hisob-kitoblari choraklarga bo'lingan holda quyidagilarni hisobga olib amalga oshiriladi:

1. Korxonalar, tashkilotlar, vazirliklar va idoralarning hisob-kitoblari; shuningdek korxonalarni byudjet bilan hisob-kitoblari bo'yicha va shaxsiy hisob varaqlaridagi ma'lumotlar shular bilan birga kamerali tekshirish va balans hisoboti ko'rsatkichlari.

2. Aktsiz solig'i bo'yicha (korxonalar ma'lumotlari asosidagi) hisob-kitoblar;

3. Daromad (foyda) solig'i

4. Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan soliqlar.

5. Tuman, shahar moliya bo'limlari statistika va banklar ma'lumotlari;

6. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitoblar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha aktsiz solig'i, resurs to'lovlari va boshqa soliq to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi o'zgargan taqdirda quyida tegishli tuzatishlar kiritiladi.

a) Korxonalar bo'yicha

b) Hudud (tuman, shahar) bo'yicha

v) Manbalar bo'yicha alohida hisob kitoblar qilinadi.

Hudud (tuman,shahar) bo'yicha prognoz hisob kitoblari variantda ishlab chiqiladi. Bular:

1. Korxonalar ma'lumotlari bo'yicha prognozlash hisob kitoblari

2. Haqiqiy erishilgan daraja bo'yicha prognozlash hisob-kitoblari korxonalarda hujjatli kompleks va tanlama tekshirishlar bo'lishi mumkin. Bu tekshirishlar

korxonalarni keyingi davrlarda to'lashi kerak bo'lgan soliq summasini haqiqiy erishilgan darajada prognozlash uchun asos bo'ladi.

Tayanch iboralari:

Moliyaviy rejalashtirish

Istiqbollashtirish

Matematik modellashtirish

Taqqoslash usuli

Korxonalar moliya-biznes rejasi

Normativ

Balans

Iqtisodiy o'sish

Tekshirish uchun savollar:

1. Soliq tushumlari deganda nimani tushunasiz?
2. Soliq tushumlari prognozi qanday amalga oshiriladi?
3. Soliq tushumlarini prognoz qilishning qanday usullari mavjud?
4. Xaqiqiy darajadan kelib chiqib soliq tushumlari qanday prognoz qilinadi?
5. Korxonalar ma'lumotlari asosida soliq tushumlari qanday prognoz qilinadi.
6. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 2,3,7,9,11,12,14,17.

Qo'shimcha adabiyotlar: 18,20,21,22,25,26,35,38,42.

9-mavzu: Iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanish imkoniyatlari (2 soat)

1. Prognoz davri va prognoz turlari.
2. Prognozga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar.
3. Prognozlashda iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olish.

1. Prognoz davri va prognoz turlari.

Bozor iqtisodiyoti rejalashtirishdan to'liq voz kechmaydi, chunki reja rasmiylashtirilgan boshqaruv echimining namoyon bo'lishidir. Ammo, bozor iqtisodiyoti rejali iqtisodga qaraganda ancha egiluvchan, topqir va bunda unga prognozlar va programmalarni tahlil qilish yordam beradi.

Bunda esa moliyaviy resurslarni istiqbollashtirish hamda moliya boshqaruvi jarayonida ulardan foydalanishning o'zaro aloqalari o'rtasidagi muammo kelib chiqadi.

Rejali iqtisodiyot sharoitida, moliyaviy rejalashtirishga xos bo'lgan direktiv va qo'shib yozishlar xarakteriga ega bo'lgan turli xil rejalarning amal qilish paytida, moliyaviy istiqbollashtirish rad etilmagan. Mamlakatimizda istiqbollarning turli xillari ishlab chiqilgan edi: demografik, tibbiy resurslarning, ilmiy-texnik taraqqiyotining, moliyaviy resurslarning va boshqalarning. Bunda taraqqiyotni rejalashtirishning muddati o'sib borar edi, ya'ni 5 yillikning va undan ham ortiq muddatlarga. Taraqqiyotni rejalashtirish programmalar bilan to'ldirilib borilar edi. Ammo istikbollarga va qisman programmalarga bo'lgan umumiy munosabat asos sifatida namoyon bo'lmas edi. Agar bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda dasturli usul rejalashtirish qatorida amal qilsa, rejali iqtisodiyotda, dasturlar degan mulohaza yuritilar edi.

Bugungi kunda soliq fani byudjetga soliq tushumlarining hajmini rejalashtirish uchun maxsus metodikalar yaratmagan. Amaliyotda soliqlarni rejalashtirishda hammaga ma'lum va keng qo'llaniladigan an'anviy metodlardan foydalaniladi: balansli, tajribali baholash, korrelyatsiya, ranjirovaniya, xronologik qatorlar qurish, omilli tahlil.

Statistik tadqiqotlarni aalga oshirishda xozirgi kunda foydalanilayotgan metodlarni bir necha guruhlariga ajratishimiz mumkin:

1) Ko'p o'lchamli metodlar, birinchi navbatda omilli va klasterli tahlil. Asosida ko'p sonli bir-biriga bog'liq o'zgaruvchilar yotuvchi qarorlarni asoslash uchun bu metodlar qo'llaniladi. Masalan, yalpi mahsulot hajmini ishlab chiqarishning texnik darajasiga bog'liq holda aniqlash;

2) Regressiv va korrelyatsion metodlar soliq xizmati faoliyatini tavsiflovchi o'zgaruvchi guruhlarining o'zaro aloqasini o'rnatish uchun qo'llaniladi;

3) Immitatsion metodlar marketing vaziyatiga ta'sir etuvchi o'zgaruvchilar oddiy tahliliy echimlar mantiqiga mos kelmaganda qo'llaniladi;

4) Statistika nazariyasida yaratilgan qarorlar qabul qilish metodlari. Bularga o'yinlar nazariyasi, yalpi xizmat ko'rsatish, stoxastik dasturlash metodlari kiradi. Stoxastik tavsiflash uchun soliq to'lovchilarning soliq siyosatidagi o'zgarishlarga bo'lgan reaksiyasidan foydalaniladi. Narxlar tarkibi, tovarlar taklifi va soliq intizomi

holati to'g'risidagi farazlarni statistik sinash uchun ushbu metodlarning ikkita asosiy yo'nalishini ajratish mumkin. Masalan, bu soliq to'lovchilarning soliq qonunlariga rioya qilish darajasi, ishlab chiqarishning o'sishi va pasayishini va soliq tushumlari xajmi o'zgarishining ta'sirini tadqiq qilish. Antagonistik o'yinlar metodlari soliq to'lovchilar bilan soliq ma'muriyati o'rtasidagi munosabatlardagi ojiz joylarni aniqlash imkonini beradi.

5) Operatsiyalarni tadg'qiq qilishning determinlash-tirilgan metodlari, birinchi navbatda chiziqli va chiziqsiz dasturlashtirish. Bu metod ko'p bir-biriga bog'liq o'zgaruvchilar mavjud bo'lib, ularda optimalini tanlab olish zarur bo'lganda qo'llaniladi. Bu metodlar statistik tahlilning tarkibiy qismi yoki tahlilning mustaqil vositasi sifatida qo'llaniladi. Bu metodlarning ilovalaridan biri bo'lib soliq inspektorlarining optimol ish bilan ta'minlash darajasini tanlash, soliq ishchilarining mutaxassislik migratsiyasini minimallashtirish va boshqalar hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlangan (metodlar) tadqiqotlar va rejalashtirish metodlari fandagi ma'lum metodlarni tamomlamaydi, ular 65 dan ko'p. Bu metodlarning hammasi u yoki bu tarzda maxsus dasturlash vositalarini qo'llaydi. Soliq tadqiqotlarini kompyuterlashtirish soliqqa tortish bazasini tanlashda mo'ljallashga, barcha darajadagi byudjetlar bajarilishi jarayonida vujudga keladigan soliq vaziyatlarining mumkin bo'lgan maksimal sonini hisoblash.

Nazariy jihatdan rejalashtirish metodini tanlash soliq yoki soliq guruhining turiga, soliq to'lovchining turiga bog'liq emas. Bunda soliq rejalashtirish ishlab chiqishdan avval qo'yilgan maqsad muhim hisoblanadi. Amaliy jihatdan u yoki bu soliqlarni rejalashtirish metodini tanlash soliq majburiyatining texnik jixozlanganligi va ishchilarning malakasi darajasiga bog'liq. Davlat soliq xizmatini informatizatsiyalash tizimi 1997 yilda shakllandi va barqaror faoliyatda yuritilmoqda. Ijobiy natijalarga soliq xizmati tarkibiy qismlarini avtomatlashtirishning informatsion-mantiqiy modellarini qo'llash bilan erishildi.

Hozirda Davlat soliq xizmatida qo'llanilayotgan "Soliq" avtomatlashtirilgan informatsion tizimlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Soliq xizmati faoliyatining tezligini ta'minlaydi;
- Soliq to'lovchilar hisoblari bo'yicha ma'lumotlarning ishonchliligi va nazorat faoliyatlarining natijalarining ishonchliligini oshiradi;
- Soliq va buxgalteriya xisobotlarini yaxshilaydi;
- Soliq tushumlari dinamikasining chuqurlashtirilgan tahlilini o'tkazish imkonini beradi va soliq to'lovchilar tarkibi o'zgarishini va iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisobga olib prognozlash ishlarini tashkil qilish uchun ma'lumotlar bankini shakllantirish imkonini beradi;
- Soliq ma'muriyatining barcha bo'g'inlarini barcha doiradagi soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlanishi uchun sharoit yaratadi;
- Qog'ozli xujjatlar aylanishini qisqartiradi va tahliliy ishlarni o'tkazishga vaqt bo'shatadi;
- Kelajak uchun soliq tizimini ishlab chiqish maqsadida boshqaruv qarorlari sifatining yuksalishiga va tezlikning takomillashishiga imkon yaratadi.

Avtomatlashtirilgan informatsion tizimlarni AIT qo'llab alohida soliq bo'yicha va o'xshash soliqlar guruhi bo'yicha soliq tushumlari xajmini rejalashtirish mumkin. AIS ga o'xshab tashkil etilgan maxsus kompyuter dasturlari soliq va soliq guruhlari tarkibi bo'yicha kodlashtirilgan. Bu joriy va kelajak uchun soliqlarni rejalashtirish imkonini beradi.

2. Prognozga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar.

O'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan barcha moliya rejalari yig'indisi moliya rejalari tizimi deb yuritiladi. Bu moliya rejalari tizimi teritorialarda, xududlarda pul mablag'larini taqsimlashni, pul fondlarini tashkil etish va ulardan foydalanishni, takror ishlab chiqarish jarayonida moliyaning alohida zvenolari rolining ifodalanishini o'z ichiga oladi.

Moliyaviy rejalashtirish jarayonida bir necha hil rejalar tuziladi.

Umumdavlat faoliyatini ifodalovchi moliya rejalariga davlat byudjeti, davlat sotsial sug'urta byudjeti, davlat mulkiy va shaxsiy sug'urtasi moliya rejasi hamda territorial va davlatning moliya mablag'larini ko'rsatuvchi yig'ma moliyaviy mablag'lari kiradi. Bu moliyaviy rejalarda davlat byudjeti alohida o'rin tutadi. Davlat byudjetida davlat bilan turli mulk formasiga ega bo'lgan korxonalar, xo'jalik tashkilotlarining moliyaviy munosabatlari aks etadi. Uning daromad qismida daromadlarni kelib tushish manbalari ko'rsatiladi; xarajat qismida esa mablag'larning sotsial-madaniy tadbirlarga, halk xo'jaligiga, aholini ijtimoiy himoyalashga, boshqaruvga, mudofaaga va boshqalarga sarflanishi aks ettiriladi. Davlat byudjetining yana bir muhim ahamiyati shundaki, u boshqa moliya rejalaridan farq qilib qonun tariqasida tasdiqlanadi. Moliya rejalari tizimida sohalar moliya rejalari asosiy o'rinni egallaydi va bu erda daromadlar va xarajatlarning balansini muhim rol o'ynaydi. Hozirgi paytda korxonalar moliyaviy rejalari biznes rejalari deb yuritilmoqda.

Har qaysi reja mo'ljallangan davr uchun daromadlar va harajatlarning, moliya va kredit tizimlarining zvenolari o'rtasidagi aloqalar (ijtimoiy sug'urtaga ajratma badallari, byudjetga to'lovlar, bank krediti uchun to'lov va boshqalar) aniqlanadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasida qisqartirilgan shaklda-moliyaviy rejadan foydalaniladi. Moliyaviy reja daromad va harajat qismlarida (mayda va o'rta korxonalarda hamda boshqa shakllarda) bu daromadlar va harajatlarning balansidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning rivojlanishida moliyaviy rejalashtirishga talab kamaygani yo'q. U avvalgiday ishlab chiqarish fondlarining kengaytirilgan doiraviy aylanishini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga, moliya-xo'jalik faoliyatida samaradorlikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishga, korxonaning moliyaviy chidamkorligini va to'lovga qobiliyatini mustahkamlashga sharoit yaratib berishga qaratilgan. Hozirgi paytda avvalgi direktiv rejalashtirish tizimi davriga qaraganda moliyaviy rejalashtirish sifatini oshirish maqsadga muvofiqdir, chunki bozor munosabatlarida o'z faoliyatining samarasizligi, shu bilan birgalikda moliyaviy rejalashtirishda noto'g'ri hisob-kitoblarni yuritishda javobgarlikni korxonaning o'zi tortadi.

Yangi xo'jalik yuritish sharoitida o'zining katta rolini saqlab qolgan moliyaviy rejalashtirish o'z navbatida qayta qurilgan bo'lishi lozim. Uning mazmuni va amaldagi shakllari xo'jalikning yangi iqtisodiy sharoitlari bo'lgan o'zgarishlari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Tadqiqotning (rejalashtirishning) yuqoridagi yo'nalishlari bo'yicha olingan natijalari soliq tarkibini, uning elementlarining ratsionalligi (ya'ni, to'lovchi, soliq ob'ekti, stavkasi, imtiyozlar va boshqalarning ratsionalligi) va joriy davrda aholi daromad solig'i bo'yicha qo'llanilayotgan kontseptsiyani mos ravishda baholash imkonini beradi. Zaruriyat tug'ilganda Ushbu soliqning elementlarining to'g'irlanishi mumkin: soliqqa tortish progressiyasi, stavkalar va daromadlar nisbati, soliqqa tortilmaydigan minimum, imtiyozli to'lovlar va shu kabilar.

Tegishli omilli tahlil rejalashtirilayotgan davrda qo'llanilayotgan har bir soliq bo'yicha amalga oshiriladi. Soliqni rejalashtirishning boshqa metodikalarini qo'llash qo'yilgan vazifaning qiyinligiga u yoki bu darajada bog'liq bo'ladi. 1996 yilga qadar barcha soliq ma'muriyatlari tomonidan soliq tushumlarini aniqlashda eng oddiy yondashish – erishilgan natijaga qarab rejalashtirish qo'llanilgan. 1996 yil Soliq AITga o'tish boshlandi. Bu hududiy soliq idoralarining texnik jixozlanishi, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash jaxon texnologiyasi bilimlarining tarqatilishi, progressiv tekshiruv komplekslaridan foydalana olish va malakalarni hosil qilish va boshqa ko'p narsalar qilinishini taqozo etadi.

Avtomatlashtirilgan soliqni rivojlantirishga o'tish-qimmatli va ko'p mehnat talab qiladigan lekin jaxon iqtisodiy tizimiga kirishga intilayotgan mamlakat uchun ob'ektiv zaruriy jarayondir.

3. Prognozlashda iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olish.

Moliyaviy ko'rsatkichlarning ham istiqbolli ham rejali hisob-kitoblari turli xil usullardan foydalanishni taqozo etadi: shulardan eng muhimlariga quyidagilar kiradi: ekstrapolyatsiya usuli, normativ (me'yoriy), matematik modellashtirish, taqqoslash usullari kiradi.

Ekstrapolyatsiya usuli moliyaviy ko'rsatkichlarning dinamikasini namoyon qilishda, ularni aniqlash, hisob-kitoblarda ko'rsatkichlarning joriy davridagilardan foydalanadi.

Normativ (me'yoriy) usul o'rnatilgan iqtisodiy norma va normativlardan foydalanishni talab etadi.

Matematik modellashtirish usuli real iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda turli moliyaviy modellarni tuzishdan iboratdir.

Taqqoslash usuli ilmiy-texnik, iqtisodiy, madaniy va boshqa omillarning jahon masshtabidagi rivojlanish tizimi bilan o'zaro taqqoslashdan iboratdir.

Taktik va strategik rejalashtirish maqsadlarining echimi shuningdek quyidagilarga imkon beradi: soliq jarayonini nazorat faoliyati bilan butunlay qamrab olish, soliq to'lovchilar o'rtasida keng metodik ishlarni tashkil etish.

Soliqlarni rejalashtirishda risk darajasi hisobga olinadi. Oldindan kutilmagan yoki baholanayotgan boshqa omil ta'siri natijasida haqiqiy kelib tushadigan soliq tushumlari rejadagidan 2-3 punktga farq qilishi oldindan rejada ko'zda tutiladi. Bu

byudjet xarajatlari bo'yicha reja vazifalarini imkon qadar yuqori bajarishni ta'minlaydi.

Rejadagi soliq majburiyatlarini bajarilishida qabul qilingan soliq kontseptsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Uni tayyorlashda nafaqat milliy soliq qonunchiligini, balki halqaro tajribani ham hisobga olish muhimdir.

Byudjetga soliq tushumlarini rejalashtirishda faqatgina maxsus organlarga qatnashmaydi. Soliqqa tortishning kelajakda rivojlanishi yo'nalishlarini ishlab chiqishda olimlar jamoalari, Davlat soliq xizmatining mutaxassislari va real soliq prognozlarini bilan qiziquvchi shaxslar qatnashadi. Soliq jarayonini demokratiyalashtirishning yangi va ijobiy omili unda jamoat tashkilotlarining ishtirok etishi bo'ldi. Soliqqa tortish bozorning va davlatchilikning demokratik asoslari tashkil topgan sharoitlarda barcha darajadagi byudjetlarning shakllanishi to'g'risida yangicha masala qo'yadi. O'z o'rnida umumdavlat soliqni rejalashtirish jarayoniga, uning korporativ menejment bilan tashkiliy aloqasining o'rnatilishiga bo'lgan qarashlar, yondashishlar ham yangicha bo'lishi lozim. Ularning iqtisodiy qiziqishlarining qarama-qarshi bo'lishiga qaramay strategiyasi bitta mamlakat doirasida bir butun barqaror iqtisodiy asos yaratish.

Byudjet-soliq siyosatida alohida region va hududlar rivojlanishini prognoz qilishi va baholash birinchi darajali bo'lib boradi. Davlat va korporativ qiziqishlar bu erda kesishadi. Banklarning filiallari tarmog'ini, moliyaviy sanoat guruhlarini, chet el sho'ba korxonalarini mustahkamlash uchun regionlardagi moliyaviy resurslar etarliligi asos bo'ladi. Davlat uchun esa hududlar moliyaviy bazasining mustahkam bo'lishi qayta taqsimlash jarayonlarining yaxshilanishi, pul vositalarining transfert ko'rinishidagi oqimlarini kamayishi, ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga imkoniyat yaratadi.

Tayanch iboralari:

Iqtisodiy ko'rsatkichlar
Xududning moliyaviy resurlari
Pul vositalarining transferti
Iqtisodiy axborot tizimlari
Biriktirilgan soliqlar
iqtisodiyotni boshqarish usullari

Tekshirish uchun savollar:

1. Xududning moliyaviy resurlari nima?
2. Prognoz qilishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan qaysilarini bilasiz?
3. Iqtisodiy axborot tizimlari nima?
4. iqtisodiyotni boshqarishni qanday usullari mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,2,6,7,9,11,12,17,19.

Qo'shimcha adabiyotlar: 18,22,23,34,42.

10-mavzu: Jismoniy shaxslar daromad solig'ini prognozlash (4soat)

1. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini prognozlash ko'rsatkichlari tarkibi.
2. Xodimlar soni, mehnat haqining o'rtacha miqdori. Ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillar.
3. Inflyatsiya darajasi hisobi. Mehnatga haq to'lashning inflyatsiya darajasiga nisbatan koeffitsenti.
4. Jismoniy shaxslar daromad solig'i prognoz summasini hisoblash tartibi.
5. Prognoz summasining ehtimollik darajasi.

1. Jismoniy shaxslar daromad solig'ini prognozlash ko'rsatkichlari tarkibi.

Jismoniy shaxslar tulaydigan soliklar ichida, amalda eng kup tarkalgani, jaxondagi xamma davlatlarda mavjud bulgan shaxsiy da-romad soligi xisoblanadi. «Shaxsiy daromad soligi bu aloxida shaxsning solikka tortilishi lozim bul-gan daromadiga solinadigan solikdir. U davlat daromadlarining eng muxim manbalaridan biri; rivojlangan mamlakatlarda solik tushumla-rining karayib 30% uning xissasiga tugri keladi.

Shaxsiy daromad soligini XVIII asrning oxirida paydo bulgan deb taxmin kilish mumkin. Buyuk Britaniyada daromad soligi 1798 yil-da kabul kilingan erdam va badallar tugrisidagi konun bilan jo-riy etilgan. Frantsiyada bevosita solikka tortish tizimi Frantsuz in-kilobidan sung tarkib topgan. 1830 va 1870 yillardagi isloxotlar jaraenida bu tizim xozirgi vaktdagi daromadlarni solikka tortish shakli sifatida ravnak topdi. AKShda daromad soliklari fakat 1913 yilda joriy etildi.

Shaxsiy daromad soligini undirish tizmida keyingi yigirma yil ichida kuyidagi uzgarishlar yuz berdi:

1. Umumiy kursatkichlar (erning kiymati, turmush darajasi, boyluk va xakazo) urniga aloxida solik tulovchining amalda olgan daromadi solikka tortiladigan baza bulib koldi.

2. Daromad toifalarining (ish xaki, ijara xaki, olingan foizlar va xakozo) aloxida tarzda solikka tortilishi yalpi daromad-ni solikka tortish shakli bilan almashdi. (Angliya-Amerika mamlakat-lari guruxida).

3. Solikni uz-uzining xisoblashiga utish amalga oshirilmokda.

Kursatilgan uzgarishlar iktisodietdagi tuzilmaviy uzga-rishlar va ijtimoiy karashlardagi uzgarishlar va ijtimoiy karashlar-dagi uzgarishlar evaziga sodir buldi.

Boshka soliklarning undirilishiga nisbatan shaxsiy daromad soligining undirilishining adolatligini, uning taksimotdagi no-tekislikni birmuncha silliklashtirish kobilyatini, davlat daromadlarining manbai sifatidagi kayishkokligini, narxlarga oid uzaro nis-batlardagi yanglishishlarga juda kam ta'sir kilishini va boshkalarni odatda shaxsiy daromad soligining afzalliklari katorida kursatishadi

Uzbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan soliklar ichida eng asosiysi fukorolardan olinadigan daromad soligi xisob-lanadi. Bundan avval xam aytib utganimizdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solik tizimida asosiy urinni egallaydi.

Soliq tizimi respublika byudjet tizimining tarkibiy kismi bulib, davlatga undiriladigan soliq va yigimlarning, shuningdek ularni undirish shartlari va usullarining majmuidir. U davlat xarajatlarining katta kismini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga da'vat etalgan va takror ishlab chikarish jarayoniga va ijtimoiy munosabatlar soxasiga ta'sir kursatishning iktisodiy usullarini amalga oshirish uchun foydalaniladi. Xozirda byudjet daromadlarining asosiy qismi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar xisobiga tashkil qilinadi. Soliq tushumlarining asosiy qismini yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar tashkil qiladi, lekin yildan-yilga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining xissasini ortib borayotganligini ham ko'rishimiz mumkin. **Jismoniy shaxslarning daromad solig'i** hajmiga ko'ra ikkinchi o'rinda turuvchi bevosita soliq tushumi hisoblanadi. 2001 yilgi davlat byudjeti daromadlarida uning salmog'i 12,8 foizni tashkil etdi, prognozlariga ko'ra 2002 yilda u 12,4 foizni tashkil etadi (2-jadval). Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish aholi daromadlari darajasi kabi ijtimoiy masalalar bilan uzviy aloqadordir.

Jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq yukini kamaytirish va fuqarolar daromadlarini tegishlicha qonuniylashtirish maqsadida jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan soliq shkalasi muntazam ravishda takomillashtirilmoqda. 1998 yildan boshlab 45 foizlik eng yuqori stavka bilan 5 darajali shkala qo'llanib kelgan. 2000 yilda eng kam oylik ish haqining 10 baravaridan oshuvchi daromaddan 40 foizlik eng yuqori stavka bilan 4 darajali shkala belgilandi.

Jismoniy shaxslar daromad solig'ini eng kam oylik ish haqini hisobdan chiqarmay hisoblab chiqarishning yangi uch darajali tizimiga o'tish hamda 2001 yildagi 36 foizlik stavkani 2002 yilda 33 foizgacha pasaytirish natijasida 2001 yilgi byudjet daromadlari tarkibida soliq salmog'i 2000 yilgiga nisbatan 1,4 foizlik punktga oshdi. Shu bilan birga 2001 yilda jismoniy shaxslar daromad solig'ining YaIMga nisbatan 3,3 foizgacha oshdi

2. Xodimlar soni, mehnat haqining o'rtacha miqdori. Ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillar.

Jismoniy shaxslar soliq yukini kamaytirish siyosati aholining, ayniqsa kichik va xususiy tadbirkorlik sohasidagi daromadlarini qonuniylashtirishga, byudjetga daromadlar tushumini yanada oshirishga yo'naltirilgan. Biroq shuni qayd etish lozimki, mazkur mexanizm jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash instituti mavjud bo'lgandagina samaraliroq ishlaydi. Aynan shundan kelib chiqqan holda Prezidentning 2002 yil 5 sentyabrdagi PF-3127 – son Farmoniga muvofiq 2002-2005 yillarda respublikada jismoniy shaxslar jami daromadlarini yalpi deklaratsiyalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutilmoqda. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish mazkur soliq stavkalarining o'sib borishini pasaytirish hisobiga aholining o'rta va yuqori daromadga ega guruhlari ortishini rag'batlantirish kontseptsiyasidan kelib chiqib amalga oshirilishi lozim. Bu hol o'rta va yuqori daromadga ega soliq to'lovchilarning qonunga zid operatsiyalar sohasidan qonuniy operatsiyalar sohasiga chiqishlariga imkon beradi.

Hozirgi paytda moliyaviy rejalashtirish bozorning kon'yukturasi hisobga olgan holda biror bir voqelikning bo'lish ehtimoli borligini va shu bilan birgalikda moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning holatining o'zgarishini hisobga olgan holda korxonaning faoliyati asoslarini ta'minlamog'i lozim.

Jismoniy shaxslar daromad solig'idan tushumlar rejasining shakllanishi misol sifatida ko'rib chiqamiz. Mos kompyuter dasturiga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

1. Soliq to'lovchilar tarkibining demografik o'zgarishi (potentsial to'lovchilar umumiy soni, ular yosh tarkibi, migratsiya xarakteridagi o'zgarishlar).
2. Fuqarolar daromadlarining o'sishi (kamayishi) tendentsiyasi.
3. Oziq-ovqat va boshqa zaruriy tovar va xizmatlarning jon boshiga to'g'ri keladigan iste'molini aniqlash.
4. Aholining kapital jamg'arishiga intilishi tendentsiyasini aniqlash.
5. To'lovga qobil taklifning o'sish va pasayish grafigini tuzish.
6. Fuqarolar vositalarni xarajat qilishlari chegarasini va soliq to'lashdan qochishga intilishlarini aniqlash omili sifatida hududning tovar Bilan ta'minlanishini o'rnatish.
7. Prognozashtirilayotgan soliqning stavkasi oshirilishi (pasaytirilishi)ning ijtimoiy natijasini baholash.

2. Inflyatsiya darajasi hisobi. Mehnatga haq to'lashning inflyatsiya darajasiga nisbatan koeffitsenti.

Soliq kodeksiga muvofik moliya yilida solinadigan daromadga ega bulgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni tulovchilardir. Ikki va undan ortiq erda ishlab daromad oluvchi, yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi, shuningdek mol-mulkidan daromad oluvchi jismoniy shaxslar soliqni deklaratsiya bo'yicha to'laydilar.

Soliqqa tortish maqsadlarida, jismoniy shaxslar- deganda Uzbekistan Respublikasining fukarolari, boshqa davlatlarning fukarolari, shuningdek fukaroligi bulmagan shaxslar tushuniladi (O'zbekiston Respublikasi FK 16-moddasi).

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan un ikki oygacha bulgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan kuprok muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs Uzbekistan Respublikasining rezidenti deb karaladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bulgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashkaridagp faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bulmagan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi xududidagi faoliyatdan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasidan tashkarida tulangan jismoniy shaxslarning daromad soligi summalari O'zbekiston Respublikasida soliqni tulashda O'zbekiston Respublikasining xalkaro shartnomalariga muvofik xisobga olinadi. Xisobga olinadigan summalar miqdori jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasida amal kilayotgan stavkalar bo'yicha xisoblab chikarilgan daromad soligi summasidan oshmasligi lozim.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi bilan Soliq kodeksiga muvofik belgilanadigan chegirmalar urtasidagi fark sifatida hisoblangan soliq solinadigan daromad soliq solish ob'ektidir.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq tulovchi olishi lozim bulgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshka mablaglar, shu jumladan:

- mexnatga xak tulash shaklida olinadigan daromadlar;
- jismoniy shaxslarning mulkiy daromadi;
- jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromad kiradi.

Mexnatga xak tulash shaklida olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarning mexnat shartnomasi bo'yicha kilingan ishlardan va fukarolik xukukiy shartnomalar bo'yicha oladigan daromadlari kiradi. Mexnatga xak tulash shaklida olinadigan daromadlarga quyidagilar ham kiradi:

1) xodimlarga sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati bilan bunday tovarlarni (ishlar, xizmatlar) xarid kilish narxi yoki ularning tannarxi urtasidagi manfiy fark;

2) ish beruvchi tomonidan xodimlarning chikimlarini koplash uchun kilingan, ularning faoliyati bilan boglik, bulmagan xarajatlar;

3) xodim ish beruvchiga tulashi kerak bulgan, ammo ish beruvchining karori bilan xisobdan chikarilgan karz summalari;

4) ish beruvchi o'z xodimlarining xayoti va sogligini ixtiyoriy sugurtalash badallarini tulash uchun kilgan xarajatlar;

5) ish beruvchining jismoniy shaxsdan ushlab kolinishi kerak bulgan tulovlar yuzasidan tulagan summasi;

6) ish beruvchining o'z xodimlarining bevosita yoki bilvosita daromadlarini tashkil etadigan boshka xarajatlari.

Xodimlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi belgilagan me'yorlar doirasida beriladigan xizmat safari tulovlarining summalari jami yillik daromadga kiritilmaydi.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga foizlar, dividendlar bo'yicha olingan daromad, mol-mulknii ijaraga berishdan keladigan daromad kiradi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadga tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, daromad olish maksadida tavakkal kilib, o'z mulkiy javobgarligi ostida yakka tartibda amalga oshiradigan, konun xujjatlarida takiklanmagan boshka faoliyatdan keladigan barcha tushumlar kiradi.

Jismoniy shaxslarning tatsbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan soliq solinadigan daromadlarni aniklash vaktida mazkur yalpi daromadni olish (topish) uchuch kilingan xarajatlar, majburiy tulovlar, chikimlar va ajratmalar chegirib tashlanadi. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan chegirib tashlanishi lozim bulgan xarajatlar, majburiy tulovlar, chikimlar va ajratmalarni aniklash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi. Jismoniy shaxslarning shaxsiy iste'mol bilan boglik bulgan xarajatlari tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan chegirib tashlanmaydi.

Soliq kodeksiga 53-moddasiga muvofiq, moliyaviy jazo choralari va xisoblangai penyalar summalari jami daromaddan chegirib tashlanmaydi.

Jismoniy shaxs moliya yili davomida har bir ishlab daromad olgan oy uchun eng kam ish haqining bir baravari mikdorida chegirma kilish xukukiga ega. Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni stavkalari davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Jismoniy shaxslarning mexnatga xaq to'lash shaklidagi daromadlaridan soliq murakkab progressiv stavka bo'yicha undiriladi. Bunda soliq solinadigan daromad xajmi o'sib borgani sari, soliq stavkasi ham progressiv ravishda o'sib boradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni aniq stavkalari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shaxar xokimiyatlari tomonidan belgilanadi.

Rezident jismoniy shaxslarning doimiy muassasa bilan borlik bulmagan holda O'zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromadlariga ularni tulash manbaida chegirmalarsiz soliq solinadi. Tulov manbaida soliq solish, to'lov O'zbekiston Respublikasi ichida yoki uning tashkarisida amalga oshirilganidan kat'i nazar, amalga oshiriladi.

Soliq Kodeksiga asosan jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan imtiyozlar ikkiga bo'linadi:

1. Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari.

2. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliقدan ozod qilish.

Soliq kodeksining 58-moddasida muvofik jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari keltirilgan.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliقدan ozod qilish Soliq kodeksining 59-moddasida keltirilgan va u ikkiga bo'linadi:

1) Soliq to'lashdan to'la ozod qilish.

2) Soliq to'lashdan qisman ozod qilish.

Jismoniy shaxslarning imtiyozlarga bulgan xukuki ular xisobot yili uchun tegishli xujjatlarni takdim etganida vujudga keladi.

Ushbu imtiyozlar jismoniy shaxslarning asosiy va o'rindoshlik asosida ishlayotgan ish joylarida daromad solig'ini ushlab qolayotganida xisobga olinishi shart.

3. Jismoniy shaxslar daromad solig'i prognoz tushumini hisoblash tartibi.

O'zbekiston rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari bo'yicha soliq tulovchi xisoblanadi.

Chet ellik jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi xududida O'zbekiston Respublikasining xalkaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlarni xisobga olgan xolda Soliq kodeksiga muvofik soliq solinadi. Chet ellik jismoniy shaxslardan soliq va yigimlarni undirish tegishli chet davlatda O'zbekiston Respublikasining jismoniy shaxslariga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar kurilgan xollarda uzaro kelishuv asosida tuxtatilishi yoki cheklanishi mumkin. Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chogida bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq tulovchilar xamda boshka shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va yigimlarni tulash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq xakidagi izoxlarning kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

Soliq kodeksiga muvofik asosiy bulmagan ish joyidan (O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek uning xududidan tashkaridagi manbalardan) daromad olgan rezident jismoniy shaxs doimiy istikomat joyidagi soliq organiga xisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay jami yillik daromad xakida deklaratsiya takdim etadi. Tamom bulgan takvimiy yilda fakat asosiy ish (xizmat, ukish) joyida mexnat vazifalarini bajarishdan daromad olgan jismoniy shaxslar shu yil uchun olingan daromadlar xakida deklaratsiya takdim etmaydilar.

Chet ellik jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasiga kelgan kunidan e'tiboran bir oy mobaynida muljallangan daromadlar xakida deklaratsiya topshiradi. Chet ellik jismoniy shaxsning faoliyati takvimiy yil mobaynida tuxtagan va u O'zbekiston Respublikasidan chikib ketadigan bulsa, amalda olingan daromadlar xakida junab ketishdan kamida bir oy oldin deklaratsiya takdim etilishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi jismoniy shaxs olingan daromadlar va kilingan xarajatlar tug'risidagi deklaratsiyani belgilangan tartibda kuyidagi muddatlarda takdim etadi:

- shunday daromadlar paydo bulgan kundan e'tiboran birinchi oy utganidan keyin besh kun ichida;

- xisobot yilidan keyingi yilning 15 yanvarigacha.

O'zbekiston Respublikasidagi jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyati tuxtatilgan takdirda, soliq organi soliq tulovchidan kamrok bulgan davr uchun xisobotlar, soliq bo'yicha xisob-kitoblar xamda daromadlar turrisidagi deklaratsiyani takdim etishni yozma xabarnoma topshirish yuli bilan talab kilishi mumkin bulib, xabarnomada buning sababi va xisobotlar, soliq bo'yicha xisob-kitoblar xamda jami yillik daromad va kilingan chegirmalar tugrisidagi deklaratsiya kachon va kaysi davr uchun takdim etilishi lozimligi kursatiladi. Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyatini tuxtatish xakida belgilangan tartibda karor kabul kilingan takdirda soliq tulovchi besh kunlik muddatda bu xakda soliq organini yozma ravishda xabardor kiladi. Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyatini tuxtatish xakida karor kabul kilinganidan sung soliq tulovchi un besh kun ichida soliq organiga xisobotlar, soliq bo'yicha xisob-kitoblar xamda daromadlar xakidagi deklaratsiyani takdim etishi shart. Xisobotlar, soliq bo'yicha xisob-kitoblar va daromadlar xakidagi deklaratsiyalar konun xujjatlarida belgilangan shaklda va tartibda takdim etiladi.

Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni xisoblash va tulash manbaida ushlab kolishni:

- ishlaydigan jismoniy shaxslarga mexnat shartnomalarn yoki fukarolik xukukiy shartnomalar bo'yicha tulovlarni amalga oshiruvchi;
- nodavlat pensiyalarni tulovchi;
- jismoniy shaxslarga dividend va foizlar tulovchi;
- Soliq kodeksining 30-moddasiga muvofik norezidentlarga tulovlar utkazayotgan yuridik shaxslar amalga oshirishi shart.

Jismoniy shaxslar daromad soligini ushlab kolish va byudjetga utkazish uchun daromad tulovchi yuridik shaxs javobgardir. Soliq summasi ushlab kolinmaganda daromad tulovchi yuridik shaxs ushlab kolinmagan soliq summasini xamda u bilan boglik jarima va penyalarni byudjetga tulashi shart.

- soliqni to'lov amalga oshirilgan oy tugaganidan sung besh kun ichida byudjetga utkazishi;

- ish xakini tulashda jismoniy shaxsning talabiga ko'ra unga uning daromadi, daromad summasi va turi, shuningdek ushlab kolingan soliq summasi (agar soliq ushlab kolingan bulsa) kursatilgan ma'lumotnomani berishi;

- asosiy bulmagan ish joyidan olingan daromadlar tugrisida jismoniy shaxslarning ruyxat rakami, ismi, otasining ismi va familiyasi, doimiy yashash manzili, daromadning umumiy summasi va xisobot yilida ushlab kolingan soliqning umumiy summasi kursatilgan ma'lumotnomani konun xujjatlarida belgilangan shaklda moliya yili tugaganidan sung uttiz kun ichida soliq organlariga takdim etishi shart.

Rezident jismoniy shaxslar jami yillik daromad xakidagi deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha xisoblab chikarilgan daromad solig'i xisobot yilidan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay, daromad soligi yil mobaynida kayta xisoblanganda esa, deklaratsiya soliq organiga takdim etilgan kundan e'tiboran bir oy ichida tulaydilar.

4. Prognoz summasining ehtimollik darajasi.

O'zbekiston Davlat soliq xizmati ma'lumotlariga ko'ra fuqarolardan olinadigan daromad solig'i o'z miqdoriga ko'ra foydadan, QQS va aktsiz solig'idan so'ng

to'rtinchi o'rinda turadi. Soliq xizmati tahliliga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushum miqdoriga ko'ra uchinchi o'rinni egallaydi va mamlakat byudjet daromadining asosiy moddalaridan bo'lib qoladi⁴.

Daromad solig'i etakchi o'rindaligi qator omillarga bog'liq:

birinchidan, bu – shaxsiy soliq, ya'ni to'lovchi haqiqatda olgan daromad ob'ekti bo'lgan soliqdir, bu taxmin etilayotgan, muayyan iqtisodiy sharoitlarda olinishi mumkin bo'lgan o'rtachaga keltirilgan soliq emas (o'rtachaga keltirilgan daromad asosida aniq erga, mulkka va hokazoga solinadigan soliq belgilanadi).

Ikkinchidan, daromad solig'i soliqqa tortilish asosiy tamoyillarini – yalpi umumiylik va teng miqdordalikni maksimal darajada amalga oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi mehnat vazirligi ma'lumotiga ko'ra 2003 yilda mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ish bilan band qismi 9316,4 ming nafarni tashkil etgan, shulardan 8027 ming kishi rasmiy holda ish o'rniga ega, bularning 477,0 ming nafari soliq bo'yicha imtiyozga ega (harbiy xizmatchi, maxsus tarkib, nogiron, din arbobi va h.k.) va faqat 7550,0 ming nafari soliq to'lovchi hisoblanadi. Bozor iqtisodiga o'tish bilan kishilarda faqat bizning mamlakatimizdagina emas, balki chet elda ham o'z mehnat qobiliyatiga ko'ra iqtisodning turli sohalarida daromad qilish imkoni yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 1999 yilda 3763 kishi AQSh, Germaniya, Janubiy Korea va boshqa mamlakatlarda mehnat qildilar. Mazkur mamlakatlarda soliq to'laganlaridan so'ng ular qo'lida ikki, uch va undan ortiqming dollar daromad qoldi. Lekin ularning ko'pchiligi daromadi to'g'risida deklaratsiya topshirishdan bosh tortdi. Respublikadan tashqarida to'langanini hisobga olgan holda soliqqa tortiladigan daromad to'liq hisob-kitob qilinganda ular hisobida katta miqdorda mablag' qoladi (valyuta kursidagi farqva biznikiga nisbatan soliq stavkasining turli-tumanligi bois), ya'ni 38% daromad solig'iga teng mablag'. Respublika tashqarisida ishlovchilardan bu miqdorda soliq olish mehnat resurslarini eksport qilishni susaytiradi. Har qanday eksport u xoh tovar, xizmat, xoh mehnat resurslari bo'lsin respublikaga valyuta kelishini ta'minlaydi. Nazarimizda jismoniy shaxslarning respublikadan tashqarida topgan daromadlarini ular chet el valyutasida Markaziy bankka topshirgan miqdorni soliq to'lashdan ozod etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan biz mazkur kishilar faoliyatini rag'batlantirib valyuta zahiramizni to'latishimiz mumkin, ikkinchi tomondan ular chet elda olgan daromadlari xususida to'g'ri ma'lumot ko'rsatib o'z vaqtida deklaratsiya topshiradilar.

Tayanch iboralari:

Jismoniy shaxslar

Jismoniy shaxslarning daromadlari

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish

Mehnatga haq to'lash shakllari

Progressiv soliqqa tortish

⁴ DSK ma'lumotidan olindi. «Po vipolneniyu prognoznix pokazateley za 1999

Soliqni to'lash muddatlari

Tekshirish uchun savollar:

1. Jismoniy shaxslar tarkibiga kimlar kiradi?
2. Jismoniy shaxslarning daromadlari qanday guruhlarga bo'linadi?
3. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlaridan soliq qanday undiriladi?
4. Jismoniy shaxslarning daromadlari qanday prognoz qilinadi?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,2,6,7,9,12,17, 18.

Qo'shimcha adabiyotlar: 22,23,24.

11-mavzu. Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromad solig'ini prognozlash

1. Soliqni prognozlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar va ularning tarkibi.
2. Prognozga soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning ta'siri.
3. Tadbirkorlik turlarining prognoz aniqligiga ta'siri.

1. Soliqni prognozlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar va ularning tarkibi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shufullanishlari bu Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tadbirkorlarga keng yo'l ochib berilganligidan dalolat beradi. Chunki bozor iqtisodiyotini tadbirkorlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan maxsus iqtisodiy faoliyat bo'lib, keng ma'noda birorta ish bilan shufullanib pul topishdan iborat bo'lgan faoliyatdir. Tadbirkorlikka aloqasi yo'q ishlar ham bor, masalan, o'z mulkini ijaraga berish, pulini bankka qo'yish yoki yashirin yo'l bilan sudxo'rlik qilish. Bu ishlar pul topish yo'li, lekin tadbirkorlik emas. «Tadbirkorlik deganda moddiy va pul mablaflarini foyda topish yo'lida sarflab, bozorga kerakli tovarlar va xizmatlarni etkazib berib, kishilarga naf keltiruvchi, ularning xojatini chiqaruvchi iqtisodiy faoliyat tushuniladi»¹.

Bozor iqtisodiyotining turli mulk shakllariga asoslanishini tadbirkorlikda yaqqol ko'rish mumkin. Insonga naf keltiruvchi har qanday ne'matlar kimningdir mulki. Faqat hech kimga kerak bo'lmagan narsaning egasi yo'q. Bozor iqtisodiyoti kerakli narsani yaratib, uni bozor orqali iste'mol etishga asoslanar ekan, u albatta mulkchilikni talab qiladi. Mulk moddiy va ma'naviy boyliklarni qonuniy ravishda va belgilangan tartibda

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tamonidan qabul qilingan "Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatini kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxsga ta'rif berilgan:

-Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) qonun xujjatlariga muvofiq daromad (foйда) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ishlari bajarish, xizmatlar ko'rsatish yo'li bilan tavakkal qilib amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyat.

-Tadbirkor yuridik shaxs tashkil etgan xolda xam, tashkil etmasdan xam tadbirkorlik faoliyati bilan doimiy asosda shug'ullanuvchi jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor). Qonun xujjatlariga muvofiq yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, shu jumladan chet el fuqarolari yoki yuridik shaxslari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tadbirkorlik faoliyatining sub'ektlaridir.

Jismoniy shaxslar deganda Uzbekiston Respublikasining fuqarolari, boshka davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bulmagan shaxslar tushuniladi (Uzbekiston Respublikasi FK 16-moddasi).

¹ A.Qlmasov «Iktisodiyot asoslari». T.:Mexnat» 1997, 219 b.

Uzbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoki tugaydigan un ikki oygacha bulgan istalغان davr mobaynida 183 kun yoki undan kuprok muddatda Uzbekistonda turgan jismoniy shaxs Uzbekistan Respublikasining rezidenti deb karaladi.

Uzbekiston Respublikasi rezidenti bulgan jismoniy shaxslarga ularning Uzbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashkaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari buyicha solik solinadi.

Uzbekiston Respublikasi rezidenti bulmagan jismoniy shaxslarga Uzbekiston Respublikasi xududilagi faoliyatdan olingan daromadlar buyicha solik solinadi.

Uzbekiston Respublikasidan tashkarida tulangan jismoniy shaxslarning daromad soligi summolari Uzbekiston Respublikasida solikni tulashda Uzbekiston Respublikasining xalkaro shartnomalariga muvofik xisobga olinadi. Xisobga olinadigan summalar mikdori jismoniy shaxslarning Uzbekiston Respublikasida amal kilayotgan stavkalar buyicha xisoblab chikarilgan daromad soligi summasidan oshmasligi lozim.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik tadbirkorning o'z mulki asosida xam, jalb kilingan mol-mulk asosida xam amalga oshirilishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatiga kreditlar berish va ularni sugurta kilish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik shaxsiy tadbirkorlik(bir shaxsning tadbirkorligi) va birgalikdagi tadbirkorlik (shaxslar guruxining tadbirkorligi) turlariga bo'linadi .

Shaxsiy tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkorning o'zi tomonidan mulk xukukida, shuningdek mulkka egalik kilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy xukuk tufayli o'ziga tegishli mol-mulk negizida mustakil ravishda amalga oshiriladi.

Shaxsiy tadbirkorlikning amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy foydalanishdagi mol-mulkidan foydalangan xollarda, agar qonunlarda yoki nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o'rtasidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lmasa, erning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Yuridik shaxs tashkil qilmagan xoldagi birgalikdagi tadbirkorlik shakllariga quyidagilar kiradi:

-er-xotinning umumiy mol-mulki negizida amalga oshiriladigan oilaviya tadbirkorlik, shu jumladan dexqon xo'jaligining umumiy birgalikdagi mulki negizida amalga oshiriladigan dexqon xo'jaligi;

-oddiy shirkat. Er-xotinga umumiy birgalikdagi mulk xukuki negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganida, ish muomalasida er-xotin nomidan erning yoki xotinning roziligi bilan er-xotindan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish paytida iasdiqlanishi lozim

Davlat byudjeti daromadalarining 80 foizidan ko'prog'ini yuridik shaxslar to'laydi. Jismoniy shaxslar soliq va yig'implari esa qariyb byudjet daromadining 20 foiziga yaqinini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki soliq jismoniy shaxsning to'g'ridan – to'g'ri o'z daromadidan olinadi, soliqlar va yig'implar asosan naqd pul to'lash yo'li bilan byudjetga o'tkaziladi.

Shunday ekan bu erda soliq to'lovchi jismoniy shaxs bilan soliq undiruvchi o'rtasida to'g'ridan – to'g'ri pul munosabati mavjud.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadga solinadigan soliqni, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'imni, davlat boji va bir qancha boshqa soliqlar va yig'implarni to'laydilar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadga solinadigan soliq jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jami yillik daromad bilan Solik kodeksiga muvofik belgilanadigan chegirmalar urtasidagi fark sifatida hisoblangan solik solinadigan daromad solik solish ob'ektidir.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga solik tulovchi olishi lozim bulgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshka mablaglar, shu jumladan:

- mexnatga xak tulash shaklida olinadigan daromadlar;
- jismoniy shaxslarning mulkiy daromadi;

-jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromad kiradi.

Mexnatga xak tulash shaklida olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarning mexnat shartnomasi buyicha kilingan ishlardan va fukarolik xukukiy shartnomalar buyicha oladigan daromadlari kiradi. Mexnatga xak tulash shaklida olinadigan daromadlarga quyidagilar xam kiradi:

1) xodimlarga sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati bilan bunday tovarlarni (ishlar, xizmatlar) xarid kilish narxi yoki ularning tannarxi urtasidagi manfiy fark;

2) ish beruvchi tomonidan xodimlarning chikimlarini koplash uchun kilingan, ularning faoliyati bilan boglik, bulmagan xarajatlar;

3) xodim ish beruvchiga tulashi kerak bulgan, ammo ish beruvchining karori bilan xisobdan chikarilgan karz summalari;

4) ish beruvchi uz xodimlarining xayoti va sogligini ixtiyoriy sugurtalash badallarini tulash uchun kilgan xarajatlar;

5) ish beruvchining jismoniy shaxsdan ushlab kolinishi kerak bulgan tulovlar yuzasidan tulagan summasi;

6) ish beruvchining uz xodimlarining bevosita yoki bilvosita daromadlarini tashkil etadigan boshka xarajatlari.

Xodimlarga Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi belgilagan me'yorlar doirasida beriladigan xizmat safari tulovlarining summalari jami yillik daromadga kiritilmaydi.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga foizlar, dividendlar buyicha olingan daromad, mol-mulknii ijaraga berishdan keladigan daromad kiradi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadga tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, daromad olish maksadida tavakkal kilib, uz mulkiy javobgarligi ostida yakka tartibda amalga oshiradigan, konun xujjatlarida takiklanmagan boshka faoliyatdan keladigan barcha tushumlar kiradi.

2. Prognozga soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarning ta'siri.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan solik solinadigan daromadlarni aniklash vaktida mazkur yalpi daromadni olish (topish) uchuch kilingan xarajatlar, majburiy tulovlar, chikimlar va ajratmalar chegirib tashlanadi. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan chegirib tashlanishi lozim bulgan xarajatlar, majburiy tulovlar, chikimlar va ajratmalarni aniklash tartibi Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi. Jismoniy shaxslarning shaxsiy iste'mol bilan boglik bulgan xarajatlari tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromaddan chegirib tashlanmaydi.

Solik, kodeksiga muvofik, moliyaviy jazo choralari va xisoblangai penyalar summalari jami daromaddan chegirib tashlanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 31- dekabrda gi «O'zbekiston Respublikasining 1999 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjetining prognozi to'g'risida»gi 541-sonli Qarorida asosan 1999- yildan boshlab yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlaridan soliq qat'iy stavkalar bo'yicha undiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni 2004 yil uchun qat'iy stavkalari quyi va yuqori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30- dekabrda gi «O'zbekiston Respublikasining 2004 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjetining prognozi to'g'risida»gi 455-sonli Qarorida bayon qilingan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni qat'iy stavka bo'yicha to'lovchi tadbirkorlardan yil oxirida deklaratsiya talab qilinmaydi. Qayd guvoxnomasi asosida faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslar umumiy stavkada soliqqa tortiladilar va belgilangan tartibda deklaratsiya topshiradilar.

Qayd guvoxnomasi asosida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar yil oxirida yashash joyidagi soliq idoralariga, yil davomida olgan olgan daromadlari to'g'risda deklaratsiya topshiradilar.

Deklaratsiya soliq tulovchining yashash joyidagi soliq idora-siga yillik yalpi daromad, shuningdek ushbu daromaddan tulanagan soliqlar summasini kursatgan xolda beriladi.

Qayd guvoxnomasi asosida tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda soliq quyidagi stavkalar bo'yicha undiriladi.

Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda 250 mingga yaqin yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shufullanuvchi jismoniy shaxslar mavjud. Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan O'zbekiston Respublikasining mehnatga layoqatli barcha fuqarolari, shu jumladan, uy bekalari, nafaqaxo'rlar va talabalar, korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi ishdan bo'sh vaqtlarida O'zbekistonda ish faoliyatini doimiy ravishda olib boruvchi boshqa davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham shufullanishlari mumkin. Qonunda belgilangan tartibda taqiqlanmagan barcha faoliyat turlari bilan shufullanishlari mumkin. Bu faoliyatni yuritish uchun zarur bo'ladigan ishlab chiqarish vositalari va maxsulot uchun ketadigan xom-ashyolar:

shaxsiy, buyurtmachiniki (buyurtmachi - korxonalar va tashkilotlar, jismoniy shaxslar); bozorlardan yoki do'konlardan sotib olinadigan bo'lishi mumkin.

Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shufullanishni xoxlagan fuqarolar o'zi istiqomat qilib turgan tuman (shaxar) hokimiyatidan ro'yxatdan o'tadilar. Ular tuman hokimiga kelgusida amalga oshirishi ko'zda tutilgan tadbirkorlik faoliyati turini ko'rsatgan holada shu faoliyat bilan shufullanishga ruxsatnoma so'rab ariza yozadi. Tadbirkorlik faoliyati to'frisidagi qonunlarga asosan, tuman hokimligi fuqaroning arizasini uch kun muddat ichida ko'rib chiqadi va tegishli tartibdagi ruxsatnoma beradi, yoki rad javobi beriladi. Bunda fuqaro arizasiga faoliyat turini qancha yil davomida shufullanishini ham ko'rsatish kerak. Shu ko'rsatilgan muddat bo'yicha tuman hokimligi tomonidan tadbirkor ruxsat berilishi kerak. Ayrim faoliyat turlari bilan shufullanish uchun tadbirkor maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishi zarur. Bunday faoliyat turlariga: dori-darmonlar tayyorlash va sotish, tibbiy xizmatlar ko'rsatish bilan shufullanuvchi jismoniy shaxslar sofliqni saqlash vazirligi tomonidan, aholiga shaxsiy va ijaraga olingan avtotransport vositasida xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslarga Respublika "O'zavtolitsenziya" bo'limining joylardagi bo'limlaridan maxsus ruxsatnoma (litsenziya) bo'lishi shart. Oziq -ovqat maxsulotlarini tayyorlab sotuvchilar, qassobchilik faoliyati bilan shufullanuvchilar tuman hokimiyatida ro'yxatdan o'tish davrida joylardagi Sanitariya epidemiologiya bulimlari tomonidan sofligi to'frisida, hamda shu faoliyat bilan shufullanish uchun shufullanish joylarida sharoit mavjudligi to'frisida ma'lumotnomalar taqdim etishlari shart. Tuman (shaxar) hokimliklaridan yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shufullanuvchi fuqarolarga ruxsat berilgan taqdirda ular ro'yxatdan o'tish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 31 dekabrda 554-sonli qaroriga asosan Respublikada belgilangan eng kam ish haqining besh barobarigacha bo'lgan miqdorida ro'yxatdan o'tganligi uchun yifim to'laydilar. Bu summaning miqdori joylardagi maxalliy hokimiyatlar tomonidan belgilanib, eng kam ish hakining besh barobaridan oshib kemasligi kerak.

Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shufullanuvchi fuqaro tuman hokimligidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng unga "Yuridik shaxsni tashkil etmasdan turib, tadbirkorlik faoliyati bilan shufullanish uchun davlat ro'yxatidan o'tganlik to'frisi"da gi guvohnoma beriladi. Ushbu guvohnomani olgan fuqaro tuman (shaxar) Davlat soliq inspeksiyasida ro'yxatga olinadi. Soliq inspeksiyasidan tadbirkorni tegishli tartibda ro'yxatga olingandan so'ng unga yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shufullanish uchun "qayd guvohnoma"si yozib beriladi. Yuqoridagi jadvalga ko'ra soliqqa tortish bo'ylama yo'nalishda adolatni ta'minlaydi, kam daromadga ega shaxslar daromad solig'ini ancha past stavkalarda to'laydi, ko'p daromad qiluvchi shaxslar esa yuqori stavkalar bo'yicha soliq to'laydi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2002 yilda Farg'ona shahrida yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi 2125 ta tadbirkor bo'lib, ular faoliyatini nazorat qilish maqsadida soliq idoralari 234 marta reyda o'tkazganlar va tekshirishlar davomida 425 ta tadbirkorning faoliyatini tekshirganlar. Tekshirilganlardan 386 tasida qonunbuzarlik holatlari aniqlangan, shu jumladan 256 ta fuqaro YaTF bilan patent yoki lizentsiyasiz shug'ullanayotganida qo'lga tushgan.

Tekshirishlar natijasida byudjetga 4602 ming so'm hisoblangan. 225 ta tadbirkor ma'muriy jarimaga tortilgan va ulardan 4864 ming so'm jarima undirib olingan.

3. Tadbirkorlik turlarining prognoz aniqligiga ta'siri.

Jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan ma'muriy jarimalar tartibi ham ayrim kamchiliklardan holi emas. Birinchidan, undirib olinadigan jarima miqdori, byudjetga etkazilishi mumkin bo'lgan zarar miqdori bilan bog'lanmagan. Ikkinchidan, hozirgi kunda jismoniy shaxslar daromadi turli sohada turlicha. Masalan, tijorat va vositachilik bilan shug'ullanuvchi xususiy sohadagi jismoniy shaxslar daromadiga nisbatan amaldagi jarima miqdori hech narsa emas. Ko'rinib turibdiki, ma'muriy jarimalar miqdori, jismoniy shaxslar daromadi hamda byudjetga etkazilishi mumkin bo'lgan zarar miqdori bilan etarli darajada bog'lanmagan.

Shuning uchun bizning fikrimizcha, soliqqa tortilishi lozim bo'lgan foyda (daromad)ni kamaytirish maqsadida hisob-kitob ma'lumotlarini qasddan (tushungan holda) buzishda (umuman foyda (daromad)ni yashirishda) aybdor deb topilgan jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jarima, ularning noqonuniy harakatlari tufayli byudjetga kelib tushmasligi mumkin bo'lgan summaga nisbatan foiz miqdorida undirib olinishi lozim. Bizning fikrimizcha jismoniy shaxslarni soliqqa tortishdan soliq idoralarini nazorat qilishida ko'zda tutilgan samaradorlikni oshirish uchun, tekshirish natijasida aniqlangan qonunbuzarliklarga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy jazolar va ma'muriy jarimalar hajmini oshirish zarur.

Shunday qilib, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa mavzusiga bo'yicha fikr mulohazalarimizni yakunlar ekanmiz, shuni aytishimiz mumkinki, soliq idoralarining nazorat qilish usullarini bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, doimo takomillashtirib borish lozim.

Tayanch iboralari:

Yakka tartibdagi tadbirkorlik
Qat'iy stavka
Litsnziya
Patent
Deklaratsiya
Soliq idoralarining nazorati
Ma'muriy jarima

Tekshirish uchun savollar:

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatining qanday turlari majud?
2. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning daromadlari qanday soliqqa tortiladi?
3. Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan daromad solig'ining prognoz qilishda nimalarga e'tibor beriladi?
4. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning daromadlarini soliqqa tortishda ularning faoliyati ustidan soliq idoralarining nazorat qilish tartiblari qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,2,3,4,6,7,9,12,15,17.
Qo'shimcha adabiyotlar: 20,21,22,23,25,26.

12-Mavzu. Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'ini prognozlash (4 soat)

1. Daromad (foyda) solig'ini prognozlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar va ularning tarkibi.
2. Yalpi foydani aniqlovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar
3. Xizmat ko'rsatish va ish bajarishni o'sish darajalarini prognozlash.
4. Hisobot davri uchun yalpi foydani aniqlash.
5. Soliq imtiyozlarining daromad (foyda) solig'i prognoziga ta'siri.

1. Daromad (foyda) solig'ini prognozlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar va ularning tarkibi.

Ma'lumki, iqtisodiyotga bozor munosabatlari sari yuz tutilganiga qadar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning byudjet bilan aloqalari foydaga nisbatan ham mavjud bo'lib, ular turli xildagi uylab topilgan "to'lovlar", "ajratmalar" va xokozalar shaklida amalga oshiriladi. Masalan "fond haqi to'lovlari", "foydaning ozod qoldig'i", "mehnat resurslari uchun to'lovlar", "foydadan ajratmalar" va hokozalar shular jumlasidandir. Nazarimizda ularning nomlari yoki atalishi turlicha bo'lsada, ular o'zlarining mohiyati jihatidan soliqlardan hech bir farq qilmadi. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida korxonalar uchun belgilangan soliqning yuqori stavkalari ijobiy natijalar bermadi, ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni texnik jihatdan qayta qurollantirish uchun etarli mablag'larni yo'naltirish imkonini bermadi. Respublika hukumati buni hisobga olgan holda foyda solig'i stavkasini bosqichma – bosqich pasaytirish maqsadli siyosatini yuritib kelmoqda: 1995 yilda joriy etilgan davridan boshlab uning stavkasi 38 foizdan 2002 yilda 24 foizgacha yoki 14 foizlik punktga pasaytirildi, 2004 yilga kelib esa uni 20 foizgacha pasaytirildi.

Bunda 2002 yilgi davlat byudjeti daromadlarida foyda solig'i salmog'i 11,3 foizni tashkil etdi, 2002 yilda 9,7 foiz darajasida bo'ldi. Bundan tashqari, tovarlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida ayrim yuridik shaxslar, xususan quyidagilar uchun foyda solig'ining pasaytirilgan stavkalari belgilangan:

- bolalar assortimenti tovarlari va badiiy hunarmandchilik buyumlari, xotin-qizlar gigiena buyumlarini ishlab chiqaruvchilar;
- o'zi ishlab chiqargan tovarlarni EAVga eksport qiluvchilar;
- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar.

Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etilishni rag'batlantirish soliq siyosatining ustuvor jihatlaridan biri sanalib, ular investitsiyalarga bo'lgan keskin ehtiyoj muammosini ma'lum darajada hal etadi va joriy iste'mol uchun resurslarni oshirish imkonini beradi. Xorijiy investorlar uchun pasaytirilgan stavkalar va ayrim hollarda foyda solig'idan ozod qilishni nazarda tutuvchi foyda solig'iga tortish qulay tizimining yaratilishi qo'shma korxonalar sonining ortishiga olib keldi – so'nggi 5 yil ichida ularning soni ikki barobar ortdi va 3000 tadan oshdi.

Mahalliy mahsulot eksportini va mamlakatga erkin almashtiriladigan valyuta tushumlarini orttirish respublika iqtisodiy taraqqiyotining boshqa ustuvor vazifasi sanaladi. Mazkur vazifani muvaffaqiyatli hal etish uchun mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmida eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha bo'lganda

mulkchilik shaklidan qat'i nazar eksportchi korxonaning foyda solig'i stavkasi 30 foizga pasaytiriladi, sotishning umumiy hajmida eksport ulushi 30 va undan ortiq foizni tashkil qilganda belgilangan stavka 50 foizga pasaytiriladi.

Umuman olganda soliqqa tortiladigan foydani shakllantirish mexanizmi soliqqa tortishning xalqaro tamoyillariga yaqinlashmoqda.

Yukoridagi ikki xulosadan yana bir yangi xulosa kelib chikaetir, ya'ni ushbu kiska davr mobaynida korxonalar daromadi(foydasidan olinadigan soliq mamlakatimiz byudjeti daromadlarini shakllantirishda muxim ahamiyat kasb etmokda;

Daromad(foyda)dan olinadigan soliqning Respublika davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishdagi urnini kursatuvchi xulosalar,xozircha, ana shulardan iborat.

Hamza tumani bo'yicha 2002 - 2004yillarda Davlat byudjetining ijrosi bo'yicha MA'LUMOT

№	Ko'rsatkichlar nomi	2002 yil		2003 yil		2004 yil	
		Yil boshidan haqiqatda tushgan tushumlar	Jami tushumlar xajmiga nisbatan salmog'i	Yil boshidan haqiqatda tushgan tushumlar	Jami tushumlar xajmiga nisbatan salmog'i	Yil boshidan haqiqatda tushgan tushumlar	Jami tushumlar xajmiga nisbatan salmog'i
1.	Jami tushumlar	5049406,215	100.0	5940477,9	100.0	8395929,7	100.0
2.	To'g'ri soliqlar jami	1875940,35	37,2	2501253,8	42,1	3733621,5	44,5
3.	Daromad (foyda)ga soliq	862109,1	17,1	1149478,8	19,3	1264195,4	15,1
4.	Jismoniy shaxslar daromadiga soliq	851784,75	16,9	1135713	19,1	2111937	25,2
5.	Daromad solig'i (ish haqiga)	741848,25	14,7	989131	16,7	1816029	21,6
6.	Tadbirkorlik faoliyatolgan daromadiga soliq	109936,5	2,2	146582	2,5	295908	3,5
7.	Kichik korxonalardan yagona soliq	162046,5	3,2	216062	3,6	357489,1	4,3
8.	Egri soliqlar jami	1941410,175	38,4	2588546,9	43,6	3361609,3	40,0
9.	Qo'shilgan qiymat solig'i	955439,625	18,9	1273919,5	21,4	1860131,2	22,2
10.	Aktsizlar, jami	985970,55	19,5	1314627,4	22,1	1501478,1	17,9
11.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	363322,425	7,2	484429,9	8,2	611581,1	7,3
12.	Mol-mulk solig'i, jami	147632,475	2,9	196843,3	3,3	276025,6	3,3
13.	Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i	133871,475	2,7	178495,3	3,0	251402,6	3,0
14.	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i	13761	0,3	18348	0,3	24623	0,3

15.	Er solig'i	96735,075	1,9	128980,1	5,0	127909,3	1,5
16.	Yuridik shaxslar er solig'i	87952,575	1,7	117270,1	2,0	115463,3	1,4
17.	Jismoniy shaxslar er solig'i	8782,5	0,2	11710	0,2	12446	0,1
18.	Tabiiy boyliklardan foydalanganlik uchun soliq	3751,65	0,1	5002,2	0,1	6857,6	0,1
19.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	10357,2	0,2	13809,6	0,2	16167,6	0,2
20.	Atrof muhitni ifloslantirganlik uchun soliq va to'lovlar	104846,025	2,1	139794,7	2,4	184621	2,2
21.	Ekologiya solig'i	96768,375	1,9	129024,5	2,2	181155,3	2,2
22.	Ifloslantiruvchi moddalarni chiqarish va tashlaganlik uchun to'lov	8077,65	0,2	10770,2	0,2	3465,7	0,1
23.	Soliqsiz to'lovlar va yig'implar	274685,475	5,4	366247,3	6,2	688620,8	8,2
24.	Mahalliy soliq va yig'implar	60878,4	1,2	81171,2	1,4	242235	2,9
25.	Boshqa tushumlar	14760	0,3	19680	0,3	145274,9	1,7

***-Jadval Hamza tumani DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.**

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ham ko'rinib turibdiki, Hamza tumani bo'yicha byudjetga undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ichida yuridik shaxslardan olinadigan daromad(foyda) solig'i ham ancha katta salmoqni tashkil qiladi. 2002 yilda soliqning byudjet daromadlari tarkibidagi salmog'i 17,1% bo'lgan bo'lsa, 2003 yilda 19,3% ni, 2004 yilda esa 15,1 %ni tashkil qilmoqda. Bu erda ham soliqlarning byudjet daromadlari xajmidagi kamayib borish tendentsiyasini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek buning asosiy sababi, davlatimiz o'zining soliq siyosatidan kelib chiqib, ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida soliq stavkalarini pasaytirib borishidir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda solig'i)ga soliq tizimida Davlat byudjeti daromadlarini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri sifatida o'rin berilganidan tashqari, bozor iqtisodiyoti davrida ushbu soliq korxonalarining ishlab chiqarishning rivojlantirishga rag'batlantiruvchi eng muxim omillardan biri sifatida o'rin berilgan.

Yukoridagi muloxazalarimizdan ko'rinib turibdiki, daromad(foyda)dan olinadigan soliq mamlakatimiz soliq tizimida byudjet manfaatlari nuktai nazaridan olib karalganda markaziy urinlardan birini egallaetir. Bundan bu soliq davlatning soliq siesatini amalga oshirishda muxim kurol ekanligi yakkol kurinib . albatta, bu soliqning soliq tizimida tutgan urni va axamiyati tugrisida fikr bildirilaetgan paytda fakat uni byudjet manfaatlari nuktai nazaridan karashning o'zi etarli emasdir. Buning boisi shundaki, bu soliqning iqtisodiyotda tutgan urni va axamiyatini to'lio' ko'rsatish uchun uni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan byudjet o'rtasidagi munosabatlardagi rolini xam aks ettirish lozimdir.

2. Yalpi foydani aniqlovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar

Yuridik shaxslarning daromad (foyda)siga soliq-bu korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar daromadi (foydasini)ning bir qismini byudjetga majburiy to'lov munosabatini bildiradi.

Daromadga (foyda)ga soliq to'lovchilarni to'liq tushunish uchun ularni iqtisodiyot soxalari bo'yicha xam soliq to'lovchilar bo'lishligini inobatga olish zarur. Masalan, sanoat, qurilish, transport, kommunal xo'jaligi va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq to'lovchilari bo'lishi uchun qo'yidagi shartlarga javob berishi kerak:

- 1) biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad (foyda) olishi;
- 2) o'zining mulkiga ega bo'lishi;
- 3) mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;
- 4) bankda xisob raqamiga ega bo'lishi;
- 5) identifikatsion raqamga ega bo'lishi.
- 6) Hokimiyatdan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi shart.

Umumiy tartib bo'yicha yuridik shaxslar shu shartlarga javob bersagina daromadga (foyda) soliq to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'ining to'lovchilari mulkchilik shakllariga qarab quyidagicha guruhlanadi:

1. Davlat mulki shaklidagi korxonalar.
2. Jamoa mulki shaklidagi korxonalar.
3. Xususiy korxonalar.

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'ini to'lovchilar soni va to'lagan soliqlari salmog'i sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo, umumiy ovqatlanish va xo'jalik yuritishning boshqa shaklidagi korxonalar yuqori. Jamoa mulki shaklida faoliyat yuritgan 1 ta meditsina muassasasi 2001 yilda xususiy mulk shakliga o'tib ketdi. Ushbu holatni shuningdek transport korxonalarida ham ko'rishimiz mumkin. 2000 yilda 13 ta jamoa mulki shaklida faoliyat yuritgan transport korxonasidan 2001 yilga kelib 1 ta qolgan. 2001 yilda xususiy mulk shaklida faoliyat yuritgan transport korxonalari 50 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2002 yilda ulardan 3ta qolgan, boshqalari esa yagona er solig'ini to'lashgan o'tib ketishgan.

2002 yil 1 yanvar holatiga yuridik shaxslar daromadi (foydasiga) ga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lib asosan xodimlari soni ko'p bo'lgan, davlat va jamoa mulki shaklidagi, shuningdek xususiy mulk shaklidagi sanoat, qurilish, transport, savdo, maishiy xizmat va xo'jalik yuritishning boshqa shaklidagi korxonalar qolishgan.

Bundan tashqari yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'ini sub'ektlari iqtisodiyotning tarmoq va sohalari bo'yicha quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. sanoat korxonalari
2. qurilish korxonalari
3. qishloq xo'jalik korxonalari
4. ta'minot sotish, vositachilik tashkilotlari
5. transport
6. banklar
7. sug'urta tashkilotlari
8. savdo korxonalari
9. umumiy ovqatlanish korxonalari
10. maishiy va kommunal xizmat korxonalari
11. madaniy-ma'rifiy, tomosha-ko'ngilochar muassalar

12. meditsina muassalari
13. birjalar
14. aktsionerlik jamiyatlari va sherikchiliklari
15. ma'suliyati cheklangan jamiyatlar
16. jamoat tashkilotlari
17. xorijiy firmalar, yuridik shaxs va jismoniy shaxslar ishtirokidagi qo'shma korxonalar
18. kichik korxonalar
19. kooperativlar
20. xo'jalik yuritishning boshqa shaklidagi korxonalar.

Soliq ob'ektini to'liq va to'g'ri xisoblash uchun jami daromad tarkibini mukammal o'rganish zarur bo'ladi. Jami daromad tarkibiga yuridik shaxs tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat xaqdari sifatidagi pul va boshqa mablag'lar yoki qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi. Demak, olingan kreditlar jami daromadga kirmaydi.

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

1. Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum. Unga ortilgan mahsulot qiymatini to'lash uchun hisoblashish hujjatlarida ko'rsatilgan summa; buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, bajarilgan ishlar dalolatnomalarida ko'rsatilan summalar; ko'rsatilgan xizmatni bajarilganligini tasdiqlovchi summalar kiradi. Vositachilik faoliyatidan (komission taqdirlash) daromad oluvchi tashkilotlar uchun tushum hamma bitimlar bo'yicha komission taqdirlash (protsentlar) summolari hisoblanadi.

2. Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk ob'ektlari, materiallar va boshqa aktivlar sotishdan daromadlar kiradi.

Soliqqa tortish maqsadida asosiy fondlar va boshqa mulklarni sotishdan daromadni aniqlashda shu fondlar mulklarni sotish bahosi va qoldiq summasi o'rtasidagi farq (oshishi) hisobga olinadi. Bu erda qoldiq qiymat hamma asosiy fondlar, moddiy aktivlar, kam qiymatli va tez buziladigan predmetlarga ham qo'llaniladi. Asosiy fondlar bepul berilganda berayotgan shaxsning aktivlar qiymati o'sha vaqtdagi tashkil topgan xarajatlar bilan, mulklarni oluvchining daromadi esa kirim qilingan qoldiq qiymat bilan, lekin bergan shaxsning tannarx qiymatidan kam bo'lmagan holda qabul qilinadi.

3. Foizlar va dividendlar turida olingan daromadlar;

4. Bepul olingan mulklar. Lekin bepul olish bir tizim ichiga kiruvchi korxonalar tomonidan bo'lsa daromad bo'lmaydi. Tizim deyilganda vazirliklar, kontsernlar, trestlar va b. ichidagi harakatlar tushuniladi;

5. Mulklarni ijaraga berishdan daromadlar. Ammo amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalar lizing shartnomasi bo'yicha ijaraga berilsa, soliqqa tortish maqsadida mulkni sotib olgan hisoblanadi;

6. Royalti-intellektual mulklarning huquqidan daromadlar, mualliflik haqlari, patentlari, chizmalar tovar belgilari, yangi modellardan daromadlar;

7. Bepul moliyaviy yordam (byudjet mablag'laridan tashqari);

8. Kreditorlik va deponentlik qarzlarini hisobdan chiqarishdan daromadlar, agar so'rov muddati tugagan bo'lsa. Umumiy so'rov muddati yuridik shaxslar uchun 3 yil qilib belgilangan;

9. Ilgari chegirma qilingan qarzlarni, zararlar va umidsiz qarzlarni tushishidan olingan summalar;

10. Valyuta scheti bo'yicha ijobiy kurs farqlari;

11. Favqulodda daromadlar;

12. Har xil daromadlar;

13. Tovar moddiy boyliklarni qayta baholashdan qo'shimcha summalar soliq tortiladigan daromadga shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotishi bilan qo'shib beriladi.

Korxonalar (tashkilotlar) mahsulotlarini haqiqiy tannarx bahosidan past sotgandagi zararlar soliqqa tortiladigan daromadni kamaytirmaydi.

Ichki bozordan past bahoda o'z mahsulot (ish, xizmat)larni erkin almashtiriladigan valyutada sotuvchi korxoalar uchun soliqqa tortiladigan baza eksport mahsulotini sotishning haqiqiy bahosidan kelib chiqib hisobga olinadi.

Umumiy vazifalarni hal qilish uchun Ustav fondiga badallar, paylar va boshqa maqsadli quyilmalar yuridik shaxsning daromadiga kirmaydi va soliqqa tortilmaydi.

Korxonalarining chet el valyutasida olgan daromadlari ham umumiy daromadlarga qo'shib soliqqa tortiladi. Bunda chet el valyutasida olingan daromad o'sha kundagi Markaziy bank belgilagan kurs bilan daromadga olinadi.

Yuqorida aytilgan daromadlar tarkibi "Maxsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi xamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan aniqlanadi va quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

-maxsulotni sotishdan olingan yalpi foyda.

YaF+SST-IT

ya'ni YaF-yalpi foyda, SST-sotishdan olingan sof tushum, IT-sotilgan maxsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

-asosiy faoliyatdan olingan foyda.

AFF+YaF-DXQBD-BZ

bunda AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX-davr xarajatlari, BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, B3-asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

-umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar).

UF+AFFQMD-MX

bunda UF-umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; MD-moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX-moliyaviy faoliyat xarajatlari;

-soliq to'languncha olingan foyda.

STF+UFQFP-F3

bunda STF-soliq to'languncha olingan foyda; FP-favqulodda vaziyatdan olingan foyda; F3-favqulodda vaziyatdan ko'rilgan zarar.

-Yilning sof foydasi, u korxonada daromadga soliq to'langandan so'ng qoladi. U o'zida sof daromaddan ijtimoiy infratuzilma solig'ini to'langandan so'ng korxonaning o'zida qoladi.

Demak, soliqqa tortiladigan daromad STF ga Nizom bo'yicha uning 1-chi va 2-chi ilovalardagi xarajtlarni qayta qo'shish bilan aniqlanadi.

3. Xizmat ko'rsatish va ish bajarishni o'sish darajalarini prognozlash.

Jami daromaddan chegirmalarga quyidagilar kiradi va soliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladi:

- qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, mol-mulk solig'i, er solig'i, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bojxona bojlari summolari;
- banklarning va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining qisqa muddatli kreditlari bo'yicha foiz to'lovlari summolari, to'lov muddati o'tgan va to'lov muddati uzaytirilgan ssudalar bo'yicha foizlar bundan mustasno;
- xodimlarga ish haqi to'lash bo'yicha xarajatlar (banklar, sug'urta tashkilotlari, videosalonlar va boshqa omaviy tomosha tashkilotlari bundan mustasno).
- Belgilangan tartibda kiritilgan renta to'lovlari summasi;
- Ijara haqi (lizing to'lovi);
- Asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;
- Chet el yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy xarajatlari va ko'rsatgan xizmatlari qiymati;
- Majburiy sug'urta to'lovlari bo'yicha o'tkaziladigan qonun hujjatlariga muvofiq ish haqiga hisoblangan summalar;
- Mahsulotlar (xizmatlar)ni sertifikatsiyalash ishlariga haq to'lash summolari;
- Normalar bo'yicha xizmat safari, vakillik maqsadlari, reklama, kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari summolari;
- Mahalliy hokimiyat tasdiqlagan normada soliq to'lovchi balansidagi sog'liqni saqlash ob'ektlari, qariyalar va nogrironlar uylari, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, bolalarning dam olish lagerlari, madaniyat va sport ob'ektlari, xalq ta'lim muassasalari, uy-joy fondini saqlashga xarajatlar summolari, yuqoridagi maqsadlarga ulush qo'shib qilingan xarajatlar kamaytiriladi;
- qonun bo'yicha boshqa majburiy to'lovlar chegirib tashlanadi.

4. Hisobot davri uchun yalpi foydani aniqlash.

Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlarini aniqlash uchun yuqorida ko'rsatilgan Nizom bo'yicha ularning jami daromadlaridan jami xarajatlarini (chegirmalarini) chiqarib tashlab shu Nizomda belgilangan daromadga qayta qo'shiladigan xarajatlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Banklar va sug'urta tashkilotlarida Nizomdagi chegirmalardan tashqari jami daromaddan quyidagilar chegiriladi:

1. Banklar bo'yicha:

- kredit resurslari uchun to'lovlar;
- operatsion xarajatlar;
- pul mablag'lari va boyliklarni tashish va saqlash xarajatlari;
- mijozlarning schetlari bo'yicha hisoblangan va to'langan foizlar, shu jumladan jismoniy shaxslarga;
- xavf-xatar operatsiyalari zaxirasi hisobotidan chiqarilgan umidsiz ssudalar.

2. Sug'urta tashkilotlari bo'yicha:

- qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha berilgan to'lovlar summasi;
- hisobot davrining oxiriga harakati to'xtatilmagan sug'urtalash va qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yicha to'lovlar;
- sug'urtalash va qayta sug'urtalash majburiyatlari bo'yicha hisoblangan va to'langan summalar;
- so'rov muddati atrofida sug'urta holat bo'yicha tugallanmagan to'lovlar summasi;
- zarar miqdori ko'rsatilmagan, sug'urta holat kirim to'g'risida xabar berilgan shartnoma bo'yicha to'lovlar summasi;
- sug'urta holat oldini olish tadbirlariga yo'naltirilgan mablag'lar;
- sug'urta tashkilotining zaxira fondiga 20 foizgacha bo'lgan miqdorda ajratma, lekin shu fondlar miqdori ularning ustav fondining 25 foiziga etkuncha ajratmalar.

Soliq to'lovchilar (banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari) so'rov muddati tamom bo'lishi bilan umidsiz qarzlarni chegirish huquqiga ega, agar ular tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish bilan bog'liq bo'lib ilgari jami daromadga olingan bo'lsa.

Moliyaviy jazo choralari va hisoblangan penya summasi jami daromaddan chegirilmaydi.

Tadbirkorlik faoliyatida uch yildan otiq foydalanilgan asosiy vositalar realizatsiya qilinganda vujudga kelgan zararlar jami daromaddan chegiriladi.

Qimmatli qog'ozlar realizatsiya qilinganda vujudga kelgan zararlar jami daromaddan chegirilmaydi.

Ish hayvonlari va ko'p yillik daraxtlardan foydalanganda vujudga kelgan zararlar faqat ana shu aktivlardan foydalanishdan olingan daromaddan chegirib tashlanadi.

Asosiy vositalarning soliq solinadigan davr mobaynida Soliq kodeksida belgilangan normalar doirasida hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summaları jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Nomoddiy aktivlarga qilingan xarajatlar jami daromaddan eskirish tarzida har oyda ularning boshlang'ich qiymati asosida hisoblangan normalar bo'yicha chegiriladi.

Geologik tadqiqotlar va shunga o'xshash xarajatlar amortizatsiya normasi bo'yicha 15 foiz miqdorida chegiriladi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan hamda ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar jami daromaddan chegirilmaydi.

Solikka tortiladigan bazani xisoblashning keyingi etapida soliq konunda belgilangan tartibda daromad(foйда) soligi buyicha kuzda tutilgan imtiyozlar chiqariladi. Ushbu imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Solik kodeksi xamda yuridik shaxslarning daromadi(foydasi)ga soliq bo'yicha yuriknomada belgilab berilgan.

5. Soliq imtiyozlarining daromad (foyda) solig'i prognoziga ta'siri.

Soliq imtiyozlari soliq mexanizmining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, soliq tizimida muhim o'rin tutadi. Soliq imtiyozlari vositasida soliqlarning rag'batlantirish va tartibga solish funksiyalari bajariladi.

Soliq imtiyozlari rag'batlantirishning muhim omili bo'lib, ular bozor munosabatlariga o'tish davri uchun xos bo'lgan eng muhim iqtisodiy vazifalarni xal etishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Lekin shu asosiy vazifani belgilashga noto'g'ri yondashish soliq imtiyozlaridan foydalanishning hech kanday samara bermasligiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, xozirgi paytda soliq imtiyozlari avvalo har tomonlama milliy ishlab chiqarishni yuksaltirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Ishlab chiqarishga soliq imtiyozlarini taqdim etishdan yutqazilgan byudjet daromadlari yoki, boshqacha aytganda, soliq xarajatlari yaqin davr ichida ishlab chiqarish rivojlanishi, iqtisodiyotda yuzaga keladigan nomutanosiblikni oldini olish va yo'qotishga xizmat qilishi va shu orqali albatta qoplanishi lozim. Aks holda soliq imtiyozlarini berishdan xech qanday ma'no bo'lmaydi. Respublikamizda ko'p hollarda berilgan imtiyozlardan samarali foydalanmaslik, imtiyozlarni taqdim etishdan ko'zlangan maqsadlarning ruyobga chiqmasligi, ya'ni imtiyozlarning ishlamasligi kuzatilmoqda. Buning bir necha sabablari bor. Xususan, bular soliq imtiyozlarining ma'lum davr uchun xos bo'lmagan tarkibda joriy etilishi, mukammal bo'lmagan imtiyozlarning belgilanishi, aks ta'sir etuvchi omillarning e'tiborga olinmasligi, xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy-iqtisodiy jihatdan nochorligi tufayli soliq imtiyozlaridan foydalanish iikoniyatlarining mavjud emasligi va boshqa sabablardir.

Imtiyozlar soliqdan ozod qilishi, chegirtmalar va to'lov muddatlarini kechiktirish kabi usullarda bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga muvofiq soliq bo'yicha imtiyozlari quyidagi yo'nalishlarda berilgan:

9. Soliq to'lashdan ozod etish;
10. Yangi to'zilgan korxonalar uchun imtiyozlar;
11. Soliqdan vaqtincha ozod etish;
12. Soliq solish bazasini kamaytirish;
13. Ajnabiy sheriklarga imtiyozlar berish;
14. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari tonidan beriladigan imtiyozlar;
15. Soliqlardan qisman ozod etish;
16. Tovar eksportiga imtiyoz berish va boshqalar.

Davlat iqtisodiyotni biron-bir tarmog'ini rivojlantirishga rag'batlantirish uchun imtiyozlar tizimidan keng foydalanadi. Tarmoqni yoki biron faoliyat turini rivojlantirishda dastlab keng miqyosda imtiyozlar beriladi, keyinchalik rivojlanish izga tushgandan so'ng soliq imtiyozlarini qaytarib olish boshlanadi.

Respublikamiz soliq tizimida ham soliq imtiyozlaridan keng foydalanadi. Hozirgi paytda soliq bo'yicha imtiyozlardan asosan chet el investitsiyasini jalb etishda, kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishda, korxonalar va tashkilotlarni investitsion faoliyatini rag'batlantirishda va boshqa maqsadlarda keng foydalanilmoqda. Yangi tashkil etilgan korxonalar, eksportga yo'naltirilgan tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar ham soliq bo'yicha imtiyozlar ko'zda tutilgan. Kodeksdan tashqari soliq imtiyozlari bo'yicha hukumatimiz tomonidan bir qator

qonun va qarorlar, Prezident farmonlari qabo'l qilindi. Bu qaror va farmonlar asosida imtiyozlar tizimi amal qilmoqda.

Ma'lumki, yuridik shaxslar to'laydigan asosiy soliq turlaridan biri foyda solig'idir. Korxonalar xo'jalik-moliyaviy faoliyatining natijasi bo'lgan foydadan byudjetga undiriladigan ushbu soliqning korxonalar faoliyatiga ta'siri katta. Demak, foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar korxonalar investitsion faoliyatiga ishlab chiqarishni kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu soliq turi buyicha beriladigan soliq imtiyozlari masalasiga tuxtalmokchimiz. Imtiyoz, soliq bilan tartibga solib turishning asosiy mexanizmi xisoblanadi. Shuning uchun soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan foyda solig'i buyicha imtiyozlar buyicha aloxida bo'limlar karab chiqilgan. Barcha soliq imtiyozlari bir xil maksadga, ya'ni soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlari mikdorini kiskartishga karatilgan umumiy maksadga ega. Ammo ular bajarayotgan ishlari va ularni realizatsiya kilish yullari bilan bir-biridan fark kiladi. Shu yondashuvlardan kelib chikib, foydani soliqqa tortish vaqtida beriladigan imtiyozlarni kuyidagi asosiy guruxlarga bo'lish mumkin:

Birinchi gurux - ayrim yuridik shaxslarni soliq tulashdan tulik ozod kilish. Bu imtiyozlarni taxlil kilish shuni kursatmokdaki, xakikatda barcha imtiyozlar ma'lum bir yunalishga ega bo'lsa-da, ulardan ayrimlari ko'zlangan maksadlarga etib bormayapti va soliq tulashdan kochish maksadida tez-tez foydalanilyapti. Ayniksa, urush va mexnat nogironlari mexnatidan foydalanuvchi korxonalar uchun belgilangan imtiyozlar ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ammo, bu ishlar bunday kategoriya shaxslarni ijtimoiy ximoyalanganligini ta'minlamaydi, chunki korxonalar uchun bu imtiyozdan foydalanish uchun ularni fakat ishga qabul kilsa bo'ldi. Ayrim xolatlarda imtiyozni olish uchun korxonalar nogironlarni rasman yollashmokda. Bunday vaqtda bu imtiyozdan noto'g'ri foydalanayotganligini isbotlash qiyin bo'ladi. Shu munosabat bilan soliq idoralari ushbu tashkilotlarda nogironlar xakikatdan ishlayotganligini aniklash maksadida kushimcha tekshirish utkazishga majbur bo'lishadi. Bu vaziyatda nogironlarni ijtimoiy ximoya kilish masalasi xal bo'lmay kolmokda, byudjet esa korxonalarini soliq tulashdan ozod kilish evaziga kuplab yukotishni boshidan kechirmokda.

Shunday imtiyozni kullaydigan kuplab Davlatlar imtiyozlardan notugri foydalanish muammolari bilan tuknash kelmokdalar va ularni bekor kilishda kiynalishmokdalar. Jaxon tajribasi ijtimoiy vazifalarni soliq choralari bilan emas, balki ijtimoiy siyosat orkali xal kilinishi kerakligini tasdiklaydi.

Ikkinchi gurux - vaqtinchalik "soliq tanaffuslarini" berish va foyda solig'i tulashdan vaqtinchalik ozod kilish. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida chet el sarmoyasi ishtirokidagi ishlab chikarish korxonalariga "soliq tanaffusi" kurinishida 9 turdan oshikrok imtiyoz berilgan. Ulardan kupchiligi xakikatda bir-birini takrorlaydi. Agar 2001 yilda kushma korxonalar buyicha soliq tulangunga kadar bo'lgan foyda ulushi Respublika buyicha jami foydaning 11,4% ni tashkil qilgan bo'lsa, qo'shma korxonalar bo'yicha foyda solig'i summasi jami foyda solig'i summasining 2,8 %ini tashkil qildi. Respublika byudjeti fakat "soliq tanaffuslari" xisobidan 2001 yil davomida 4,1 mlrd. sumlik yukotish kurdi yoki bu summa foyda solig'idan tushumlarning 5% ni tashkil kildi.

Undan tashkari, soliq imtiyozlarini, jumladan “soliq tanaffusini”, fakat xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalariga joriy kilishda, vatanimiz korxonalari doimo o'z maxsulotlarini sotish vaqtida teng bo'lmagan vaziyatda bo'lishadi.

Uchunchi gurux - soliqqa tortishdan ma'lum bir faoliyati turidan olgan daromadini (foydasini) ozod kilish. Koida buyicha bunday tartibdagi ozod kilishlar Davlat uchun aloxida faoliyat turining ustivorligi bilan bog'liq bo'ladi. Soliq qonunchiligi xukukiy shaxslar foydasini soliqqa tortishdan ozod kilish kuyidagilarni ko'zda tutadi:

- madaniy va tarixiy yodgorliklarni restavratsiya kilish va tiklash ishlaridan amalga oshirishdan olgan daromadlari buyicha;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yullarini ta'mirlash, kurish va saklab turish ishlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari buyicha;

- o'z ishchilari uchun Uzuyjoyjamgarmabankdan shartnoma asosida uy-joy olish uchun foydalanilgan daromadlari buyicha;

Bu vaziyatda noxush xolat bo'lib, maqsadli yo'naltirilib berilgan soliq rag'batlari, ularni foydalanish vaqtida noqulaylik paydo qiladi. Undan tashkari, rag'bat bir faoliyat turi bo'yicha berilsa, boshqasi u bilan chambarchas bog'langan bo'ladi, doimo ular o'zini tengsiz vaziyatga qo'yilganligini isbotlab turadi. Iktisodiy xamkorlik Davlatlari tajribasi, qachondir bir faoliyat turiga joriy qilingan rag'batlantirish boshqa faoliyat turiga tarkatiladigan tendentsiyaga ega bo'lishini kursatadi. Bunday rag'batlarni tashkil kilish soliqqa tortish bazasini yanada kuprok bo'zadigan tajribani kengaytirishga olib keladi.

Turtinchi gurux - soliqqa tortiladigan daromad (foydani) kamaytiradigan ustivor qonunchiligida belgilab berilgan xarajat summasi, ya'ni skidka, amaldagi qonunchilikka asosan xukukiy shaxslarning soliq solinadigan daromadi (foydasi) kuyidagilarga kamaytiriladi:

- soliqqa tortiladigan foydaning bir foizidan oshmagan mikdordagi ekologiyaga, soglomlashtirish va xayriya fondlariga, xalk ta'limi madaniyat muassasalariga, soglikni saklashga, ijtimoiy ta'minotga, fizkultura va sportga badallari;

- investitsiyaga yunaltirilgan, shuningdek, investitsiya uchun olingan kreditlarni yopish uchun xisoblangan eskirish summasini tulik foydalanish sharti bilan soliqqa tortiladigan daromadning uttiz foizidan oshmagan mikdorda (asosiy ishlab chikarishni ta'mirlash, rekonstruktsiya kilish va rivojlantirish) xarajatlari;

- tabiatni saklash tadbirlarini utkazish buyicha xarajatlar (30 foiz);

Amaldagi soliq imtiyozlari tizimida bu imtiyoz ustivor imtiyozlaridan biri xisoblanadi. Ammo, bu imtiyoz mavjud shaklida uncha samarali emas, yuqorida eslatib utilgan chegaralashlardan tashkari, bu imtiyozdan, xisoblangan ammortizatsiyani maksadli ravishda tulik foydalanib bo'lingan sharoitdagina foydalanish mumkin. Xakikatda foyda solig'i buyicha bu imtiyoz, xisoblangan ammortizatsiya summasidan yuqori bo'lgan investitsiya kilingan mablaglar summasiga berilishi mumkin. Ammo, xozirgi vaqtda bu kupchilik korxonalarda ammortizatsiya mablaglari aylanma mablaglar shaklida joriy aylanmaga jalb kilingan. Shunga mos ravshda korxonona investitsion imtiyozdan foydalana olmay koladi. Shunday tartibda, bu imtiyozning ustivorligiga karamasdan, uni kullash juda past

darajada. Buning tasdigi sifatida investitsiyaga yunaltilgan foydani soliqqa tortish bazasidan 30% gacha bo'lgan miqdorda kamaytirish imkoniyati bor paytda, xakikatda bu kursatkich urtacha sanoatda 5,6% ni, transportda 0,8% ni, alokada 2,6% ni, kurilishda 0,2% ni tashkil kildi. Investitsion imtiyoz soliq imtiyozlarini qiskartishiga qaramasdan g'oyat muxim xisoblanadi, jaxon tajribasida shu imtiyoz bilan bir katorda amortizatsiyani tezlashtirish keng foydalaniladi.

Agar amalda foydalanilgan imtiyozlar tahliliga ham e'tibor bersak, ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bog'liq imtiyozlar jami imtiyozlarning o'rtacha 20 foizini tashkil etgan, xolos, qolganlari esa ijtimoiy imtiyozlar, ya'ni korxonalarining har xil jamg'armalarga o'tkazgan xayriya mablag'larining soliq bazasidan chegirilishi, byudjet, jamoat tashkilotlarini soliqdan ozod qilish kabi imtiyozlardir. Demak, O'zbekistonda iqtisodiyotni boshqarishda soliq imtiyozlaridan foydalanishning aniq kontseptsiyasi, yo'nalishini ishlab chiqish zarur. Bu yo'nalishning asosi milliy ishdab chiqarishni qo'llab-quvvatlaydigan va amalda natija beradigan imtiyozlarni joriy etishga asoslanishi kerak.

Tayanch iboralari:

Yuridik shaxslardan olinadigan daromad(foyda) solig'i

Yalpi tushum

Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda

Yalpi foyda

Soliq to'langan cha foyda

Soliqqa trtiladigan baza

Korxonada ixtiyorida qolgan sof foyda

Tekshirish uchun savollar:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad(foyda) solig'ini to'lovchilar kimlar?
2. Yuridik shaxslarni soliqqa tortiladigan daromad(foyda) qanday aniqlanadi?
3. Yuridik shaxslarning qaysi daromadlari soliqqa tortiladi?
4. Soliqqa tortiladigan bazaga qaytadan qo'shiladigan xarajatlar nima?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,2,6,7,9,11,12,17,18.

Qo'shimcha adabiyotlar: 19,20,21,23,27,35,41,45.

13-mavzu: Qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz soliqlarini prognozlash (2 soat)

1. Qo'shilgan qiymat solig'ini xaqida tushuncha va uning soliq tizimda tutgan o'рни.
1. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari.
1. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha prognozni aniqlash uchun jadval tuzish.
1. Aktsiz solig'i tushumlarini prognoz qilish.
1. Aktsiz solig'ining prognoz qilishga ta'sir qiluvchi omillar.

1. Qo'shilgan qiymat solig'ini xaqida tushuncha va uning soliq tizimda tutgan o'рни.

Qo'shilgan qiymat solig'i va aktsizlar bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan juda ko'p mamlakatlarda o'zlarini faqatgina byudjetning samarali fiskal instrumentlari sifatida namoyon etib qolmasdan, balki barcha tadbirkorlar uchun xo'jalik yuritishda teng sharoitlar yaratib beradigan vosita sifatida ham yaqqol ko'rindi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining zarurligi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan tartibga solib turish va uni boshqarish vazifasi bajarayotgan paytda namoyon bo'ladi. Shu davrda davlat o'z funktsiyasini bajarishi uchun albatta moliyaviy manbaga ega bo'lishi kerak. Ana shunday manbalarni byudjetga jalb qilishning asosiy balki kelajakdagi yagona yo'li soliqlardir.

Qo'shilgan qiymat solig'iga davrimizni ko'pchilik iqtisodchi olimlar turlicha ta'rif berib kelmoqdalar, lekin shu ta'riflarni barchasi mazmuni va mohiyati jihatidan bir xil hisoblanadi.

Masalan:

Qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish yoki muomalaning har bir bosqichida qo'shilgan qiymat qismidan undiriladi. qo'shilgan qiymatga ish xaqi, amortizatsiya, kredit uchun foiz, elektr energiyaga, transportga, reklamaga ketgan sarf xarajatlar kiradi. Bittagina tovar boshqatdan sotilayotgan bo'lsa, soliq xarid va sotish narxlari o'rtasidagi ayirmani hosil qiluvchi qo'shilgan qiymatdan hisoblanadi. So'ngra bu soliq tovarning uzil-kesil narxiga qo'shiladi, ya'ni bunda ishlab chiqaruvchini emas, balki iste'molchining daromadi soliq solish ob'ekti bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i respublikada joriy qilingan soliqqa tortishning eng murakkab, ko'p qirrali va nisbatan kam takomillashgan qismidir. Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarni sotish ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatilganda aksariyat yangi xosil qilingan qiymatdan (foйда, amortizatsiya ajratmasi, mehnat xaqi fondi) kelib chiqib byudjet daromadiga o'tkazishning bir shaklidir.

Xususan, **qo'shilgan qiymat solig'ini** to'lash mexanizmi ichki va ayniqsa tashqi soliqqa tortishda – mo'ljallangan joyiga qarab xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. QQS bo'yicha yagona stavkaning qabul qilinishi hisob va hisob-kitob jarayonlarini ancha soddalashtirdi. Bundan tashqari, hisobvaraқ fakturalar tizimining joriy etilishi soliq hisobi va hisoblab chiqarilishi ustidan nazoratga avtomatik tus berdi. Har yili unga doir bo'nak to'lovlari to'lash muddatlari miqdori qisqarib bormoqda.

Biroq bunda asosiy muammo - QQS to'lashdan ozod qilish muammosi hal etilmay qolmoqda. Bundan soliqqa tortishning asosiy tamoyillaridan biri – adolatlilik tamoyili buzilmoqda, chunki ushbu soliqni to'lamaydiganlardan mahsulot sotib oluvchi, mazkur soliq to'lovchilarining soliq yuki ortmoqda. Shu tariqa QQSni bixillashtirish va soddalashtirish masalasida kelgusida unga doir barcha imtiyoz va istisnolarni bekor qilish asosiy yo'nalish tusiga ega bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i o'zida ishlab chiqarishning barcha bosqichida yaratiladigan qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga chegirib olishni aks ettiradi. Qo'shilgan qiymat esa sotilgan tovarlar, ishlar va xizmatlar qiymati hamda ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga kiritilgan material xarajatlar farqi orqali hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish va taqsimlashning barcha bosqichi orqali oxirgi iste'molchi zimmasiga yuklanadi. Oxirgi iste'molchi bu soliqni tovar-xarid bahosining bir qismi sifatida to'laydi va uni qoplash imkoniyatiga ega emas.

Qo'shilgan qiymat tarkibiga quyidagilar kiradi: foyda, ish xaqi, amortizatsiya summasi, kredit uchun foizlar, mehnat xaqi fondiga nisbatan 40% li (xar xil) ijtimoiy, bandlik fondiga ajratma, aktsiz summasi, ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan soliqlar (er, mol-mulk solig'i, er osti boyluklaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i va suv to'lovi). Qo'shilgan qiymat solig'i stavka yuqorida ko'rsatib o'tilganlar summasiga nisbatan qo'llanilib hosil bo'lgan summa tovar narxi o'sishiga xar bir ishlab chiqarish bosqichida qo'shib boraveradi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari bo'lib O'zbekiston Respublikasi xududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ulanuvchi yuridik shaxslar, tovarlar importi bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar xisoblanadi.

Bu qoidadan yalpi daromadidan soliq to'lovchi savdo tashkilotlari, yagona soliq to'lovchi kichik korxonalar, yagona er solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar istisnodir. QQS to'lovchilarni xalq xo'jaligi soxalariga qarab sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jaligi, aloqa va boshqalar bo'lishi mumkin. Faoliyat turlariga qarab ishlab chiqarish, tayyorlov, vositachilik, birja, banka xizmatlari va boshqalar, turlarga bo'lish mumkin. QQS to'lovchilar uchun quyidagi me'zonlar bo'lishi shart:

- tadbirkorlik faoliyati;
- yuridik shaxs maqomi;
- mustaqil buxgalteriya balansi va bankda xisob schyoti bo'lishi shart;

1. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari.

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini yagona 30% qilib belgilangan edi. Keyinchalik kiritilgan qo'shimchalar va o'zgarishlarga muvofiq 25% qilib belgilangandi, 1993 yilning 1 sentyabridan boshlab 1994 yilning iyunigacha korxonalar ixtiyorida qoladigan qo'shilgan qiymat soliq miqdori stavkasining 6% ni tashkil etdi, qolgan qo'shilgan qiymat solig'ining 19% stavkasi byudjetga o'tkazila boshladi. Korxonalar 1994 yil 1 iyundan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini 20% miqdorida to'lay boshladilar va korxonalar ixtiyorida qoladigan qo'shilgan qiymat solig'ining 6% ni bekor qilindi».

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 20% ga tushirilishi yuzaki olib qaralganda iqtisodiy jihatdan engillik berilganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 20% ga tushirish hisobiga tovar bahosini ma'lum darajada pasaytirish ko'zda tutilgan edi. Afsuski bu ham inflyatsiya tufayli ko'zda tutilgan natijani bermadi. Oxiri oqibatda Vazirlar Maxkamasini qaroriga binoan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1996 yilning 1 yanvaridan boshlab 17% qilib belgilandi. 1997 yilning 1 yanvariga kelib ayrim aholining birinchi navbatdagi iste'mol tovarlari bo'yicha ushbu soliq miqdori 10% boshqa tovar va xizmatlar uchun 18% darajasida o'rnatiladi.

1998 yilning 1 yanvaridan eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun 10% boshqa tovar va xizmatlar uchun 20% darajada o'rnatiladi. 1999 yilning 1 yanvaridan esa eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun 15% o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 31- dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2000 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjetining prognozi to'g'risida»gi 554-sonli Qaroriga asosan 2000 yil 1 yanvaridan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan daromad(foйда) solig'ining stavkasi

33 %dan 31 %ga tushirildi va byudjet daromadlarini balansini ta'minlash uchun eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i 1999 yildagi 15 foizlik stavkasi 2000 yil uchun 20% qilib belgilandi.

2000 yildan QQSdan soliq stavkasi Soliq kodeksida ko'rsatilgan 20% dir.

2000 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston xududidiga byudjet tashkilotlarining buyurtmasi va mablag'i xisobiga keltiriladigan asbob – uskunarlar tovarlar (ishlar, xizmatlar) QQSdan ozod etilgan.

Belgilangan soliq stavkasiga qarab QQS summasi ikki usulda aniqlanadi.

1. $Ist.QQSqSO \cdot N : 100$

bu erda : Ist.QQS –istemolchilardan undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'i,

SO-soliqqa tortiladigan oborot ,

N-soliq stavkasi.

Bu tartib deyarli xamma maxsulotlar (ishlar, xizmatlar) oborotiga qo'llaniladi.

2. O'z ichiga QQS summasi qo'shilgan baxo va ta'riflarda sotilgan tovarlar (ishlar,xizmatlar) sotilganda soliq quyidagi shaklda aniqlanadi:

$IstQQSqTQQQS*N:(Nq100)$

TQQQS-QQSni o'z ichiga oluvchi tovar qiymati. QQS dan ozod bo'lgan korxonalar yoki tovarlar bo'yicha QQS dan ozod bo'lgan yuridik shaxslar erkin (shartnomaviy) baxo va ta'riflarga QQS summasini qo'shmaydilar.

Shunday xolat yagona soliq to'lovchi kichik korxonalarga, yalpi daromad solig'i to'lovchi savdo tashkilotlariga va yagona er solig'i to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarga xam taaluqlidir.

Ikkinchi gurux stavka-nolli stavkadir. Nolli stavkada quyidagilar soliqqa tortiladi:

1. mustaqil xamdo'stlik davlatlarini o'z ichiga olib eksportga erkin almashtiriladigan valyutalarda tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotilsa, agar xukumatlararo tuzilgan shartnomalarda boshqacha shartlar belgilanmagan bo'lsa:

2. qishloq xo'jaligi korxonalariga ishlab chiqarish qishloq xo'jalik maqsadlariga mineral o'g'itlar va yog'-moylash materiallari ortilsa;

3. chet el diplomatik va unga tenglashtirilgan vakolatxonalarining rasmiy foydalanishga tavarlar(ishlar, xizmatlar) sotilganda, shu vakolatxonalarining diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining shaxsiy istemoli uchun ,ular bilan birga yashovchi oila a'zolarini xam qo'shib (agar ular o'zbekiston fuqorosi bo'lmasa) ular O'zbekistonda doimo yashamasa chet el mamlakati xam shunday printsip qo'llasa nolli stavka qo'llaniladi.

Nolli stavkada soliqqa tortiladigan korxonalar QQSni «0» stavkada xisoblaydi va material resurslarni sotib olib ishlab chiqarishda foydalangan QQS summasini xisobga oladi.(zachyot).

Ya'ni bunday maxsulot ishlab chiqaruvchilar QQSni maxsulot etqazuvchiga xam,byudjetga xam to'lamaydilar chunki «0» stavkada sotadilar. Demak,nolli stavka degani QQSdan tamomila ozod etilgan demakdir. Ana shu xolat bilan nolli stavka sotib olgan materiallarini ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shuvchi QQSdan imtiyoz oluvchi korxonalardan farq qiladi.

QQS ob'ekti bo'lib tovarlar (ishlar,xizmatlar) sotish va import tovarlar oboroti xisoblanadi, QQS dan ozod bo'lganlar va maxsulotlardan o'z ishlab chiqarish maqsadlari uchun foydalanishdan tashqari. Tovarlar (ishlar,xizmatlar) oboroti deb maxsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarni yuklash (ortish) tushuniladi. Uch xil sotish turi mavjud: tovarlar,ishlar va xizmatlar. Tovarlar sotishda soliq ob'ekti bo'lib o'zi ishlab chiqargan , chetdan sotib olgan xamma tovarlar sotish oboroti tushuniladi. Soliqqa tortish maqsadida is'temol belgilanishiga va qiymatga ega bo'lgan xamma narsa (tovar,maxsulot,ko'chmas mulk, imoratlar va inshoatlar qo'shib, elektroenergiya va issiklik energiyasi, gaz,suv va b. Xisoblanadi. Ishlar sotishda soliq ob'ekti bo'lib bajarilgan qurilish-mantaj ,ta'mirlash, ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik, texnologik, proekt-izlov, restavratsiya va boshka ishlar qiymati xisoblanadi. xizmat sotishda soliq ob'ekti bo'lib xizmatlar qiymati xisoblanadi.

-yo'lovchi va yuk transporti xizmati qiymati shu jumladan, gaz, neftni yo'naltirish (tashish), elektr,issiklik energiya uzatish, tovarlarni ortish, tushirish, qayta ortish va saqlash xizmatlari kiradi.

-mulklarni va ko'chmas mulklarni ijaraga berish xizmati qiymati, shu jumladan lizing xizmati kiradi.

-vositachilik xizmati;

-aloqa, maishiy, uy-joy kommunal xizmati;

-reklama xizmati ;

-ma'lumotlarni saralash va informatsion ta'minlash xizmati ;

-boshqa xizmatlar;

Bulardan tashqari soliqqa tortiladigan oborotlarga quyidagilar kiradi:

-korxonaning ishbilarmonlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan o'z istemoli uchun korxonada ichidagi tovarlar va xizmatlar sotish oboroti , shu jumladan o'z xodimlariga .

-boshqa korxonalar yoki jismoniy shaxslarga shu jumladan o'z xodimlariga bekorga yoki qisman to'lash bilan beriladigan oborotlar;

-buyumlarni garovga sotish oboroti o'z ichiga garovchiga garovda ta'minlashni bajarmagandagi oborotlari qo'shib kiradi.

Soliqqa tortiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) summasi QQSni qo'shmasdan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga qo'llaniladigan baxosi va ta'rifi qiymati bilan aniqlanadi. Ammo, aktsiz osti tovarlari bo'yicha soliqqa tortiladigan oborotni aniqlashda unga aktsiz summasi xam qo'shiladi.

Tovarlar(ishlar, xizmatlar)ni qo'ldan qo'lga bepul berilganda soliqqa tortiladigan oborot summasi korxonada qaror topgan baxo va ta'rif (QSSiz) darajasida aniqlanadi,birok tovarlarni ishlab chiqarish (sotib olish) xarajatidan kam bo'lmagan miqdorda, asosiy vositalar bo'yicha – ularning qoldiq qiymatidan kam bo'lmagan miqdorda aniqlanadi. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tekinga berilayotganda QQS to'lovchisi bo'lib ularni berib yuborayotgan korxonalari xisoblanadi. Asosiy vositalar korxonalar tizimining ichida tekinga berilsa soliqqa tortiladigan oborotga qo'shilmaydi, ya'ni yuqori tashkilotning buyrug'i bilan taqsimlansa.

Maxsulot (ish, xizmatlarni) xaqiqiy tannarx baxosidan past sotuvchi korxonalarda soliqqa tortish maqsadida maxsulot sotilayotganda qaror topgan baxo qabul qilinadi, lekin shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning ishlab chiqarish (sotib olish) xaqiqiy xarajatidan kam bo'lmasligi shart.

Tovarlarni natural xaq tarzida berilganda yoki kassa orqali o'z xodimlariga tannarx baxosidan past qilib sotilganda soliqqa tortiladigan oborot tovarlarni (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarishning xaqiqiy xarajatidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi. o'zi ishlab chiqqan tovarlar korxonada ichida tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarga foydalanilsa soliqqa tortiladigan oborotni aniqlash uchun ularning xaqiqiy tannarxi olinadi.

Xomashyo va materiallar egasining tovarini ishlab berganda soliqqa tortiladigan oborot bo'lib ularning qayta ishlov qiymati (xarajatlar va foyda qo'shib, aktsiz osti tovarlar bo'lsa aktsiz summasi xam qo'shib) xisoblanadi. Uzoq ishlab chiqarish tsikliga ega bo'lgan korxonalar uchun (qurilish, qurilish-mantaj, ta'mirlash-qurilish,proekt-qidiruv va ilmiy- tekshirish) soliqqa tortiladigan oborot bo'lib xisoblashish xujjatlarida to'lash uchun ko'rsatilgan bajarilgan va byurtmachilar tomonidan tasdiqlangan qiymat xisoblanadi. Bu erda ishlarni bajarish jarayonida baxolarning transport va boshqa xizmatlarning ta'rifini oshishi yoki kamayishini xisobga olib tuzilgan shartnoma baxosidan kelib chiqiladi.

o'z kuchi bilan o'z maqsadi uchun bajarilgan qurilish-montaj ishlari soliqqa tortilmaydi.

Moddiy resurslar, yokilg'i,ish bo'yicha to'langan QQS summasi qurilish ob'ektiga kiritiladi.

Tovarlar oldi va sotdisi bilan shug'ullanuvchi tayyorlov, ta'mirlov –sotuv tashkilotlari daromadlarni baxolar,ustama va qo'shimcha tarzida oluvchilar uchun soliqqa tortiladigan oborot tovar istemolchilarga sotilgan tovarlar qiymati asosida ular o'rtasida qo'llanilgan baxolar bilan aniqlanadi, QQS summasi qo'shilmaydi. Banklar uchun soliqqa tortiladigan oborot bo'lib xizmatlar qiymati xisoblanadi. Lizing xizmati bo'yicha soliqqa tortiladigan oborot miqdori lizing stavkasiga qarab (lizing beruvchining daromad miqdori) aniqlanadi.

Soliqqa tortilmaydigan oborot xam mavjud. Bunday oborotga quyidagilar kiradi:

1.Korxonaning bir shoxobchalaridan ikkinchi shoxobchalariga sanoat ishlab chiqarish maqsadlari uchun yarim fabrikat ,bajarilgan ishlar va xizmatlar oboroti sotilganda (zavod ichi oboroti).

Bu shaxobchalar xisob schyotiga ega bo'lmaydi va bosh korxonaning balansida turadi.

2.Kooperativ, xo'jalik jamiyatlari va o'rtoqliklari, korxonaning boshqa ta'sisчилari o'rtasida korxonani tugatilishi munosabati bilan ular o'rtasida mulklar taqsimlangandagi oborotlar . Bu xolat tugatilayotgan korxonaning mulki boshqa shaxslarga sotilganda ta'luqli bo'lmaydi.

Xisoblashish xujjatlari to'langandan so'ng tovarlar qaytarilsa QQS summasiga o'zgartirishlar kiritiladi shu shart bilanki bir yil ichida so'rov talabi muddatiga rioya qilingan bo'lsa.

1. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha prognozni aniqlash uchun jadval tuzish.

Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq tulovchiga ta'sirini boshkarish maksadida quyidagilar kabul kilingan:

- soliq tulashtan ozod kilish,
- nolli stavkada soliqqa tortish,
- axolining kam ta'minlangan kismi ist'emol kiladigan tovarlarga kamaytirilgan soliq stavkalarini kullash,
- axolining boy kismi ist'emol kiladigan shoxona buyumlariga oshirilgan soliq stavkalarini kullash.

Bu printsip qo'shilgan qiymat solig'ining bir necha soliq stavkalarini tovar va xizmatlar turlariga differentsiyalashgan xolda kullash asosida etadi. Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalari soni turli mamalakatlarda xar xildir. Kuptina mamalakatlarining soliq tizimlarida asosan qo'shilgan qiymat solig'ining uch xil differentsiyalashgan soliq stavkalari kullananiladi. Bular quyidagilar xisoblandi

- Bazaviy soliq stavkasi,
- kamaytirilgan soliq stavkasi,
- nolli soliq stavkasi,

Tovar va xizmatlar soliqdan ozod kilinishi xam mumkin. Tovar va xizmatlarni solikdan ozod kilinishi, shuningdek aloxida tovar va xizmatlarni solikkka tortishda nolli solik stavkasida solikka tortish uchun uchta achochan argumentlar ilgari surilgan. Bular quyidagilar xisoblanadi:

- 1)ma'muriy murakkabliklar, ya'ni solik va yigimlarni yigishdagi murakkabliklar.
- 2)Tovarlar va xizmatlarni ishlab chikarilishini kullab kuvatlash uchun,
- 3)Solik solish tizimining progressivligini oshirish uchun.

Yukorida kursatilgan uchta argumentlar xammasi xam bir xilda asoslanmagan.

Garb mamlakatlari ekspertlari xulosasiga kura, EI mamlakatlari tajribasi shuni kursatadiki qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari kupaytirish xam, aloxida tovarlarni soliqdan ozod kilish foyda bermaydi. Bunday xulosaga kelinishiga quyidagi kizikarli kuzatuv xulosalari sabab bulgan: ozik – ovkat maxsulotlarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod kilinishi kam ta'minlangan axoli katlamiga erdam berishning samarali vosita xisoblanmagan. Kuptina ekspertlar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod kilish axolining turli katamlari daromadlari urtasidagi farkni kiskarishiga xizmat kursatmas ekan degan xulosaga kelishmokda. Kilingan taxlil natijaslar shuni kursatmokdaki, kam ta'minlangan axoli uzining daromadlarining kup kismini ozik ovkatga sarflasada, mutlak birliklardagi boylar kup mablag sarflanishi aniklangan. Qo'shilgan qiymat solig'idan ozik ovkat maxsulotlarini ozod kilishdan kuproq axolining ta'minlangan kismi yutadi, axolining kambagal kismi xaeti bu bilan engillashmas ekan. Bunday xulosaga kelinishiga sabab, Shvetsiyada (Evropaning boy mamlkatlaridan biri) va Irlandiya (tarixiy boy mamalkat xisoblanuvchi)da utkazilgan

tadkikotlar sabab bulgan⁵. Ushbu tadkikotlar shuni kuratganki, kundalik extiej tovarlarining soliq stavkalaridagi xar kandy uzgarish (nolli stavkaga, pasayish stavkasiga, bazaviy stavkaga utishda) soliq tulovchilarning ist'emoli tarkibida juda kam sezilarli uzgarish bulgan. Tadkikotchilar ushbu xolni daromadlari xar xil bulgan axoli kundalik extiej mollari tarkibida yakinlashish bulganligini kursatadi deb baxolashgan.

Kanchalik qo'shilgan qiymat solig'idan ozod kilingan tovarlar va ishlab chikaruvchilar kupaysa, qo'shilgan qiymat soliqqa ikki eki undan ortik marta tortilishi extimoli kupaya boradi. Buni kuyidagi jadval asosida kurib chikamiz.

.Qo'shilgan qiymat solig'ining ishlab chikarishning xar bir boskichidagi roli

Kursatkichlar	A ishlab chikaruvchi korxonona	B KKSdan ozod bulgan korxonona	V ist'emolchi korxonona
Realizatsiya kilingan tovarlar qiymati	200000	300000	380000
Realizatsiya kilingan tovarlarga KKS	40000	0	76000
Sotib olingan xom ashe qiymati	100000	200000	300000
Sotib olingan xom ashelar KKS	20000	40000	0
Byudjetga xisoblangan Qo'shilgan qiymat solig'i	20000	0	76000
Yaratilgan Qo'shilgan qiymat	100000	100000	80000
Urnatilgan KKS stavkasi	20%	20%	20%

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod kilinishi, aloxida soliqqa tortish tartibiqo'shilgan qiymat solig'ining tovarlar baxosigi va xujalik su'bektlarining soliqdan ozod kilingan ishlab chikarish faoliyatiga ta'siri katta buladi. Yukorida kurib utdikki soliqdan ozod kilingan xujalik su'bekti ishlab chikarish resurslarini kup xollarda qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotib oladilar va bu soliqni uz ishlab chikarish xarajatlariga tulik kushadilar. Buning natijasida maxsulotning baxosi oshishga olib kelinadi. Agar ishlab chikaruvchi uz maxsulotining baxosini oshirishga kurbi etmasa, u xolda maxsulot baxosini oshirmaslik uchun ishlab chikarish omillarini kamaytirishga majbur buladi. Aks xolda ishlab chikaruvchi kam foyda olishga majbur buladi. Shunday kilib qo'shilgan qiymat solig'idan ozod kilish tufayli korxonona uz maxsuloti baxosini oshirishga majbur buladi eki aks xolda foyda mikdorini eki ishlab

⁷ Volovik E.M «Nalog na dobavlenuyu stoimost» Jurnal. Nalogovoy vestnik 2002g. №6 130 bet

chikarish xarajatlarini kamaytirishga majbur buladi. Birinchi xolda qo'shilgan qiymat solig'i iste'molga ta'sir kilib, baxoni oshirishga olib keladi, ikkinchi xolda esa ishlab chikarishga ta'sir kilib, foydani kamaytirishga olib keladi.

Soliqdan berilgan imtiyozlar ta'sirini xujalik faoliyatini va maxsulot baxosi antimonopol konunlari bilan tartibga solinadigan korxonalarda xam kurish mumkin. Bu korxonalar shaxarda passajir tashish bilan shugullanadigan korxonalar, uy-joy kurilishi bilan shugullanadigan korxonalar bulishi mumkin. Bu korxonalar soliq konunchiligi bilan soliq imtiyozlari berilgan. Bu korxonalar maxsulot va xizmatlar baxosini oshira olmaydi. Natijada kushchilgan qiymat solig'i buyicha kilingan moddiy xarajatlar korxonalar foydasigida eki ularning zararini kupayishiga olib keladi. Xalkaro soliq konunchiligida bu kabi salbiy xolatlari oldini olish maksadida soliq imtiyozlari kamayishi ruy bermokda.

1. Aktsiz solig'i tushumlarini prognoz qilish.

Aktsiz solig'i o'z mohiyatiga ko'ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan egri soliqdir. Uning ijtimoiy - iqtisodiy mohiyati faqat taqsimot darajasiga qarab ifodalanadi va takomillashtiriladi.

Aktsiz solig'ining iqtisodiy mohiyati byudjet tushumini ta'minlash orqali xalq xo'jaligi manfaatlarini qondirishga, ko'proq mablag'larni jalb ettirishi orqali namoyon bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya'ni asosiy iste'molchilarning to'lov qobiliyatlarini oshishida o'z ifodasini topadi. Bu esa aktsiz solig'i ob'ektlari (aktsiz osti tovarlari)ni qisqartirilishida, soliq stavkalari pasayishida, aholi to'lov qobiliyatini o'sishida namoyon bo'ladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, sub'ektlar aktsiz solig'i iste'molchilari sifatida yuzaga kelishi tabiiydir.

Ammo aktsiz solig'i engiliklari tovarlarni harid qilish uchun olinadigan kredit resurslarini qisqartirilishiga, bu esa o'z vaqtida xarajatlarning pasayishiga olib keladi. Xarajatlarning pasayishi esa daromad (foйда) ni oshirish omillaridan biridir.

Shulardan kelib chiqqan holda, aktsiz solig'ini harakat doirasini ikki yo'nalish orqali chegaralash muammosi va ularni echish chora tadbirlarini ishlab chiqish zaruriyati tug' ilmoqda.

Aktsiz solig'ining birinchi xarakat doirasi bevosita uning ob'ektlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi unga mansub stavkalariga ta'luqlidir. Bu borada qancha urinishlar qilingan bo'lsada, ushbu soliqni doiraviy harakatlariga tayangan holda iqtisodiy chegarasi belgilanmaganligicha qolmoqda. Natijada soliq ob'ektlarini tovar guruhlarining qiymati bo'yicha, soliq stavkalarini esa tovar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda Vazirlar Mahkamasi tartiblashtirib turmoqda. Soliq idoralari xodimlari esa faqat ushbu jarayonlarni yuzaga kelishini kuzatuvchisi yoki nazorat etuvchisi bo'lib nomoyon bo'lmoqda.

Sharb mamlakatlarida soliq tizimlarining takomillashtirishi soliqqa tortishdagi bir necha tarkibiy o'zgarishlarga olib keldi. To'g'ri soliqlarning hissasi kamayib, egri soliqlarning va sotsial (ijtimoiy) sug'urta badallarining hissasi (salmog'i) ortib borganligi kuzatildi.

Aroq-vino mahsulotlari bo'yicha, umumiy soliqlardan, egri soliqlar tushumining axoli tan boshiga to'g'ri kelish salmog'i

Axolining xar bir tan boshiga to'g'ri keladigan aroq-vino mahsulotlari xajmi (AQSh dol)	Guruhga qo'shilgan mamlakatlar soni	Umumiy soliq tushumlari, %	
		egri soliqlar	bojxona boji
100	20	68	35
101-200	11	64	32
201-500	198	64	33
501-850	9	50	18
Rivojlangan mamlakatlarda 850dan yuqori	15	32	4

jadvaldan ko'rinib turibdiki, yashash darajasi eng past bo'lgan mamlakatlarda egri soliqlar barcha soliqlarning 68%ga to'g'ri kelsa, to'g'ri soliqlar salmog'i 32%ni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda esa buning aksi 32% - egri soliqlar va 68% to'g'ri soliqlarni tashkil etadi.

O'zbekistonda 1998 yil aroq-vino mahsulotlari 1358,8 mlrd so'mni tashkil qilgan bir paytda har bir kishi boshiga 598,8 AQSh dollari to'g'ri kelgan (aholi 23954,6 ming kishi, AQSh dollarining o'rtacha yillik kursi 94,73 so'm). Bunda byudjet daromadida egri soliqlar 44,5%ga to'g'ri kelgan.

1999 yilda esa aroq-vino mahsulotlari 2048,4 mlrd so'm bo'lganda, kishi boshiga 679,6 AQSh dollari (aholi 1999 yil 24406,3 ming kishi, o'rtacha AQSh dollarining kursi 1999 yil – 123,5 so'm) to'g'ri kelgan. Egri soliqlar byudjet daromadlarining 48,8%ini tashkil etgan. Oxirgi yillar davomida egri soliqlar (NDS va aktsiz) byudjet daromadlarining stabil qiymatiga, ya'ni 50%idan kam bo'lmagan salmog'iga to'g'ri keladi.

Undirilishining engilligi va oddiyligi uchun xorijiy mamlakatlarda egri soliqlar keng tarqalgandir. Eng keng tarqalgan egri soliq universal aktsiz (oborot solig'i) bo'lib, bu soliq juda ko'p iste'mol tovarlari va xizmatlarni qamrab olganligi uchun byudjetga juda katta tushumlarning kelishini ta'minlaydi.

Hozirgi paytda universal aktsiz juda ko'p mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i shaklini olib, soliq tizimini unifikatsiyalashtirishni boshlab berdi. Bu soliqning kengayishiga uning ba'zi bir afzalliklari (soliqqa tortishning oddiyligi, yuqori daromadligi, iqtisodiyotni tartibga solishdagi samaradorligi, ishlab chiqarish ustidan nazoratning mavjudligi) sabab bo'ldi.

Agar byudjet daromadlarini etishmasligi davlat xarajatlarining ortishi xisobiga emas, balki iqtisodiyotning past rivojlanish, korxonalar moliyaviy xo'jalik faoliyatining og'irlashuv xisobiga bo'lsa, unda daromad solig'ining kamayishi yuz beradi. Bu holda ham davlat asosan aktsiz xisobiga, so'ngra esa qo'shilgan qiymat solig'i xisobiga o'z daromadlarini shakllantiradi.

Uzbekiston Respublikasida aktsiz soligi bilan byudjet daromadlarini tashkillashtirishda muammolarni echish uchun kulllaniladigan asosiy moliyaviy kurol xisoblanadi. Shu tufayli aktsiz soligi stavkalari va solikka tortiladigan maxsulotlar

soni xar yili kurib chikiladi va yil davomida kerak bulsa uzgartirib boriladi. Shunga karab aktsiz soligi ulushi YaMMda yillar davomida xar xil buladi. Buni kuyidagi jadvalda kurish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining daromadlar qismida bilvosita soliqlar tushumi tarkibi (foizlarda)

Yillar	QQS	Aktsizlar, jami	Bojxona boji	Tovarlarni olib kirganlik uchun jismoniy shaxslardan yig'im
2002	26,8	27,4	1,2	1,3
2003	25,3	24,0	1,4	1,1
2004	27,5	26,8	1,9	1,2

*-jadval O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.


Jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki, 2000 yildan keyin davlat byudjeti daromadlarida aktsiz soligi ulushi kamaygan. Bunga sabab bulib, o'sha yili paxta tolasiga xisoblanadigan aktsiz solig'i tushumining kamayishi bulgan. Paxta tolasiga dune baxolarining pasayishi tufayli aktsiz soligidan yukotishlarni koplash maksadida, yil oxirlarida kiritilgan ayrim turlardagi maxsulotlarni respublika xududiga olib kelganligi va olib chikkanligi uchun aktsiz soligi joriy kilindi. Natijada 1998 yilda boshchlab aktsiz solig'ining salmog'i byudjet daromadlarida 18.6% ni tashkil etgan bo'lsa, 2003 yilda bu ko'rsatkich 26.8 foizni tashkil etdi.

Davlat byudjeti daromadlarida (QQS va aktsiz), aroq-vino mahsulotlarida egri soliqlarning salmog'i

	2001 yil	2002 yil	2003 yil	2004 yil
Egri soliqlarning aroq-vino mahsulotlarida tutgan o'rni	28,9	28,6	29,3	27,9
Byudjet daromadlarida tutgan o'rni	22,7	26,9	26,9	26,4

1995 yildan to 2002 yilga qadar egri soliqlarning salmog'i davlat byudjetining umumiy daromadlarida ancha pasaydi va 28,3% dan 26,4%ga etdi. Aroq-vino mahsulotlarida esa egri soliqlarning umumiy salmog'i 20,1% va 27,9% ni tashkil etdi.

Bu diagramma ko'rinishida quyidagicha bo'ladi:



Egri soliqlar strukturasi QQS va aktsizlar 95%ni tashkil etadi. Agar aroq-vino mahsulotlarida QQSning pasayishi kuzatilayotgan bo'lsa, bu kamomadni aktsiz solig'ini oshirish hisobiga to'ldiriladi, agarki QQSning salmog'i oshgan taqdirda aktsizga tortiladigan tovarlar bo'yicha soliq stavkasi qisqartiriladi.

Utgan turt yil mobaynida ayrim maxsulotlarni olib kirganligi va olib chikkanligi uchun xisoblanadigan aktsiz soligiga tortiladigan maxsulotlar guruxi uch marotabaga kupaydi eki aktsiz soligiga tortiladigan aktsiz osti maxsulotlar soniga kushimcha 53 ta maxsulot kiritildi.

Uzbekiston Respublikasida aktsiz osti tovarlar ruyxati usish dinamikasi

Kursatkichlar	2000 yil	2001 yil	2002 yil	2004 yil
Jami aktsiz osti tovarlar soni	63	93	135	120
Respublikada ichki tovarlar	20	24	27	26
Olib chikiladigan tovar	11	3	1	-
		7	4	
Olib kirilagan tovarlar	32	3	9	94
		2	4	

Izox 2002 yilda olib chikiladigan maxsulotlar soni kamayishi sabab ushbu maxsulotlardan ayrimlarini bir maxsulot guruxiga kiritilishi sabab bulgan.

Davlat byudjetiga aktsiz soligi tushumlari kupayishiga sabablaridan biri bulib, aktsiz soligi stavkalari oshishi bulgan. Misol uchun 1999 yil 1 martidan alkohol maxsulotlari arokning aktsiz soligi stavkasi 75 %dan 80 %ga kutarildi, vino maxsulotlari uchun 50 %dan 55%ga, konyak uchun 75 %dan 80 %ga kutarildi va bu solik stavkalari hozirgi kunga kadar amal kilib kelmokda. Ikkinchi sabab bulib aktsizosti maxsulotlari kushimcha kiritilishi sabab bulgan. Misol uchun 1999 yilda

UzDEU Avto korxonasida ishlab chikiladigan avtomobillar, mebel jixozlari, guruch maxsulotlari uchun aktsiz soliklari joriy kilindi.

1. Aktsiz solig'ining prognoz qilishga ta'sir qiluvchi omillar.

Solik stavkalarini belgilashda xar xil omillar urganiladi va xisobga olinadi. Aktsiz soligi uchun solik stavkasini belgilashdagi omil eng avvalo byudjetga olinadigan solik summasidir. Kursatilgan solik summasi birinchi galda solik stavkasiga va shuningdek ushbu solik stavkasi joriy kilinishi tufayli ushbu maxsulotning iste'moli kamayishi va maxsulotning baxosi oshishiga xam ta'sir kildai. Shuning uchun aktsiz soligi buyicha ushbu solik stavkasini belgilashda talab noelastik bulgan maxsulotlarni e'tiborga olish lozim. Bular birinchi galda alkogol va tamaki maxsulotlari xisoblanadi. Shuni xam nazardan kochirmaslik kerakki ushbu uchun birinchi galdagi extiej mollari xam noelastik xisoblanadi. Lekin, alkogol va tamaki maxsulotlariga nisbatan birinchi galdagi extiej mollari uchun yukori aktsiz stavkalari belgilash ijtimoiy jixatdan xakikatga yakin emas va aktsiz soligining funksiyalari va mazmuniga mos emas.

Alkogol ichimliklari va tamaki maxsulotlar ishlab chikarish tashki salbiy okibatlariga olib keladi, bu maxsulotlarni iste'mol ushbu orkali ommaviy ijtimoiy xarajatlar xususiy xarajatlardan yukori buladi va ishlab chikaruvchi tomonidan ularning ishlab chikarish xajmi ularni xisobga olmaydi. Buning natijasida ishlab chikarish xajmi va iste'mol asoslanmagan xolda oshadi, maxsulotlarning muvazanat narxi esa ijtimoiy jixatdan asoslanmagan xolda kamaygan. Bu esa resurslarning noeffektiv jixatdan taksimlanishiga olib keladi chunki salbiy okibatlariga olib keluvchi maxsulotlar ishlab chikarish asoslanmagan xolda ishlab chikarish uchun resurslardan kup foydalanadi. Alkogol ichimliklari va tamaki maxsulotlari misolida kurganimizda ishlab chikaruvchilar tomonidan kurgina tashki xarajatlar soglikni saklash xarajatlari, ommaviy tartibni saklash xarajatlari va boshka ijtimoiy xarajatlarni xisobga olinmasligini kurishimiz mumkin. Alkogol ichimliklari va tamaki maxsulotlariga bulgan talabning noelastikligini xisobga olgan xolda aktsiz soligi resurslarni teng taksimlanishini ta'minlay olmaydilar va tashki salbiy okibatlarni tuligicha bartaraf eta olmaydi. Birok, bu solik orkali tashki salbiy okibatlarni kamaytirish usuli sifatida karash mumkindir. Shunday kilib noelastik talab va tashki salbiy okibatlariga olib keluvchi alkogol ichimliklari va tamaki maxsulotlarini ishlab chikarish, shuningdek iste'mol kilishga olib kelganligi uchun bu maxsulotlarga yukori solik stavkalarini belgilash maksadga muvoffik bular edi. Shuni xam nazardan kochirmaslik kerakki, solik stavkalarini oshira borish bu maxsulotlarni kontrabanda yuli bilan olib kelib sotish, daromadlar kiskarish kabi salbiy okibatlariga xam olib kelishi mumkin. Bunga mamlakat xududiga olib kelinadigan alkogol ichimliklarga 100 % lik solik stavkasi urnatilishini misol kilish mumkin. Bu xolda maxsulotning kiymati xam 100 % ga oshib ketadi va alkogol ichimliklar olib kelish xakikatda takiklangan xisoblanadi. Bu bilan mamlakatdagi alkogol ichimliklarini ishlab chikaruvchilar xam foyda kurmaydilar shuningdek xozirgi vaktda ushbu chet mamlakatlarda ishlab chikarilgan alkogol ichimliklari kontrabanda yuli bilan olib kelish kuchaymokda. 1999 yilda kontrabanda yuli bilan olib kelingan alkogol

ichimliklarni musodara kilingan maxsulotlarni sotishdan 0,6 mlrd ushbu solik tushumi tushgan. Aktsiz soligi jami tushumida import va eksportga xisoblanadigan aktsiz soligi tushumi kam foizni tashkil kiladi

Uzbekiston Respublikasida eksport bilvosita soliklardan ozod kilingan bulib, aktsiz soligi shunga kiradi. Lekin xozirigi vaktida maxsulotlarni mamlakat xududidan olib chikarish uchun aktsiz soligi mavjud bulib, u ishlab chikaruvchilar uchun kullaniladigan aktsiz soligiga ta'lukli emasdir. Ishlab chikaruvchi korxonalar va ularning dillerlari tomonidan erkin konvertatsiya kilingan valyutaga eksport kilingan maxsulotlar aktsiz soligiga tortilmaydi. Agar ushbu maxsulot vositachi tomonidan kandy valyutaga eksport kilingan u maxsulotni olib chikish uchun aktsiz soligi tulydi. Bu xolda aktsiz soligi uz funksiyasiga mos bulmagan savdo bar'eri vazifasini bajaradi va maxsulot eksporti imkoniyatini kamaytiradi, valyuta tushumi kamayadi. Maxsulotlarni olib chikish uchun aktsiz soligini olib chikarish uchun yigim deb atash kerak va bu yigimni fakat jismoniy shaxslar tomonidan konunchilik normalarida belgilanganidan ortikcha olib chikilaetgan tovarlar uchun kullash maksadga muvofik deb xisoblash lozimdir.

Bilvosita soliklarni tashkil kilish sistemasida shu soliklarning anik vazifalarini belgilash lozim buladi. Shundagina bilvosita soliklar tizimini muvoffiklashtirish mumkin buladi. Bu endashish orkali aktsiz soligiga tortishni unifikatsiyalashga erishamiz. Unifikatsiyalash orkali respublika ichida ishlab chikarilaetgan va realizatsiya kilingan xamda olib kirilaetgan va olib chikarilaetgan maxsulotlar uchun solik stavkalari, ularni xisoblash metodikasi bir xilligiga erishish mumkindir. Bundan tashkari aktsizosti maxsulotlarni yagona ruyxatini belgilash va bu soliklardan byudjetga kam tushum tushaetgan maxsulotlarni aktsizosti maxsulotlar ruyxatidan chikarish kerak.

Aktsiz soliklarini unifikatsiyalash boshka davlatlar bilan savdo kilish uchun kerakdir. Chunki Xalkaro Savdo tashkiloti tomonidan xam ushbu shunday talab kuyilgandir.

Respublikamizda ishlab chikarilaetgan va olib kirilaetgan maxsulotlar uchun aktsiz soliklarini unifikatsiyalash maxalliy ishlab chikaruvchilar bilan import kiluvchilar bir xil sharoitga kuyadi. Maxalliy ishlab chikaruvchilarni ximoya kilish maksadida bojxona bojarini kullash tavsiya kilingadi. Xalkaro Savdo tashkiloti tomonidan bojxona bojarini 30 foiz mikdorida urnatish tavsiya kilingan.

O'zbekiston Respublikasida aktsizosti maxsulotlar ruyxati xar yili kurib chikiladi va 1993 yildan beri ularning soni 22-25 ta atrofida bulib kelmokda. Respublikamizda xozirgi vaktida keng ijtimoiy axamiyatga ega bulgan iste'mol mollari usimlik egi va sovunga 1997 yilda, guruch maxsulotlari uchun 1999 yilda aktsiz soligi joriy qilinganligi ta'kidlab utish lozimdir.

Tayanch so'z va iboralar

1. qo'shilgan qiymat solig'i.
2. nolli stavka
3. xisob-faktura
4. Aktsiz solig'ining unifikatsiyalash.
- 5.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
2. Qo'shilgan qiymat solig'iga qanday oborotlar tortiladi?
3. Xisob-fakturani to'ldirish tartibini qanday?
4. Akyiz solig'iga qanday tovarlar tortiladi?
5. solig'iga totiladigan tovarlar ro'yxatini kim belgilaydi?

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar: 1,2,3,6,7,9,11,12,18.

Qo'shimcha adabiyotlar: 20,21,22,23,24,25,28,29,32,40.

14-mavzu: Soliqlar va to'lovlar yig'indisini prognozlash

(4 soat)

1. Soliq tushumlarini prognozlash asosida yig'ma jadval tuzish.
2. Daromad (foyda) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i, boshqa soliqlar va to'lovlar bo'yicha tushumlarini aniqlash.
3. Prognoz davri uchun umumiy tushumlarni aniqlash.

1. Soliq tushumlarini prognozlash asosida yig'ma jadval tuzish.

Byudjetga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek qo'shimcha hisoblangan summalarni, moliyaviy jazolar ma'muriy jarimalarni operativ hisobi shahar, tuman va shahardlardagi tuman inspeksiyalari tomonidan olib boriladi. Byudjetga to'lovlarni operativ buxgalteriya hisobi DSI tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomani ilovalarida belgilangan maxsus shakldagi varaqalar ochib boriladi. Ushbu varaqalardagi rekvizitlarni tuzatish va qo'shimchalar kiritishga yo'l qo'yilmaydi. Byudjetga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobini yuritish uchun faoliya ko'rsatayotgan korxonalar uchun yil boshida, yangidan tashkil qilinganlari uchun esa ular soliq idoralarida ro'yxatdan o'tayotgan paytidan etiboran shaxsiy hisob varaqlari ochiladi. soliq to'lovchilarni shaxsiy hisob varaqlari soliq idorasi xodimi tomonidan tegishli hujjatlarni olgandan so'ng ertasidan kechiktirmay ochilishi lozim.

Shaxsiy hisob varaqlari quyidagi varaqlarda olib borilladi:

- QQS va aktsiz solig'i bo'yicha (3 va 6 shakllarda);
- daromad (foyda) solig'i, mol-mulk solig'i (4 shaklda);
- fuqarolar daromadiga soliq ularni to'lash xususiyatini hisobga olgan holda (4 shaklda);
- savdo, xususiy korxonalar va matlubot kooperatsiyalarini daromadiga solinadigan soliq (4 shakl) va hak.

Shaxsiy hisob varaqlarida soliq va to'lovlar bo'yicha yozuvlar hisoblar so'm va tiyinda olib boriladi. Penyalarni hisoblashda sliq qonunchiligiga rioya qilinadi. Hisoblangan penya va jarimalar bo'yicha penya hisoblanmaydi.

Moliyaviy jazolar, ma'muriy jarimalar va qo'shimcha hisoblangan summalarni, shuningdek ularni soliq idoralarini rivojlantirish fondiga tushadigan qismlarini hisoblash va hisobini yuritish, 9 sonli hisob raqamida olib boriladi. Ularni byudjetga o'tkaziladigan qismining hisobi esa 25-son reystrda yuritiladi. Shuningdek, ularni hisobi qaysi soliq turi bo'yicha qo'shimcha hisoblangan bo'lsa moliyaviy jazo va ma'muriy jarimalar undirilgan bo'lsa unga soliq turlari bo'yicha shaxsiy hisob varaqlarida ham aks ettiriladi.

2. Daromad (foyda) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i, boshqa soliqlar va to'lovlar bo'yicha tushumlarini aniqlash.

Respublikamizda taraqqiy etayotgan soliq tizimida prognoz ishlarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Soliq tushumlarini tahlil qilish va prognoz ishlari asosan davlat soliq idorasining quyidagi zvenosi, ya'ni soliq inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ularning zimmasiga soliq to'lovchilarning to'liq faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning byudjetlarga solikli va soliqsiz to'lovlarining haqiqiy hajmi, soliqqa tortiladigan soliq ob'ektlarining manbasini batafsil hisobga olib borish vazifasi yuklatilgan.

1998 yilning yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksi amal qilib kelmoqda. Uning joriy etilishi soliq to'lovchilar, buxgalterlarda tushunmovchiliklar keltirib chiqarayotgan ko'plab masalalarga ma'lum bir aniqlik kiritdi. Kodeksda avvalgi ta'riflarga oid kamchiliklar bartaraf etilgan.

Davlat soliq organlari tuman, shaharlar hududida faoliyat ko'rsatib kelayotgan jismoniy va yuridik shaxslarni soliqqa tortish borasida prognoz ishlarini to'liq ta'minlash uchun kattagina kuch sarflayaptilar.

Soliq tizimining rivoji mamlakatda o'tkazilayotgan islohotlar birgalikda borishi qonuniy jarayondir. Boshqacha qilib aytganda, soliq siyosatini muntazam tarzda o'zicha aniqlash bosqichi kechmoqda. Bu esa soliq rejimlarining o'zgaruvi va respublika soliq organlari tizimlarining takomillashuvida o'z aksini topadi.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan soliq yukini izchil kamaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda, birinchi navbatda, ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita soliqlarning salmogini kamaytirish diqqat markazda turibdi. Buning natijasida korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushi-ning ko'payishi evaziga uning aylanma mablag'lari miqdorini ko'tgaytirib borish va optimal darajasini saklash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko'proq investitsiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkoni paydo bo'ladi.

Tushumlarning hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni kiskartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan choralar aholi daromadlarining real darajasini oshirish va tegishli ravishda iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lgan to'lovga layoqatliligini kuchaytirishga yo'naltirilgan.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning samarali tizimini yaratishga oid vazifalarning ahamiyati mazkur tizimning ijtimoiy masalalarga daxldorligi aholi turmush darajasiga kursatadigan ta'siri bilan bog'likdir. Shundan kelib chiqqan holda daromad solig'ining qo'llaniladigan shkalasi muntazam ravishda takomillashtirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda 1998-1999 yillarda ushbu soliqning maksimal stavkasi 45 foiz bo'lgan 5 darajali shkala qo'llanilgan bo'lsa, 2000 yilda - maksimal stavkasi 40 foiz bo'lgan 4 darajali shkala joriy etildi, 2001 yilda esa daromad solig'ini hisoblashning uch shkalali tizimiga utildi. Bunda 2004

yilda axrli daromadlarini soliqqa tortish shkalasining kengaytirilishi va shu asnoda oraliq stavkaning (2001 yildagi 25 foizdan 2004 yilda 23 foizgacha), maksimal stavkaning qisqarishi (36 foizdan 31 foizgacha) YaIMga nisbatan ushbu soliq bo'yicha tushumlarning kamayishini keltirib chiqarmadi (2000-2004 yillarda ushbu soliqning YaIMga nisobatan salmog'i o'rta hisobda 3,2 foizni tashkil etmokda).

Hozirgi paytda Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan qo'yil-gan jismoniy shaxslar daromadlarining soliqqa tortilishini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan soliq stavkalarini kamaytirish va aholi daromadlarini soliqqa tortishning uch bosqichli tizimidan ikki bosqichli tizimiga asta-sekin o'tish kontseptsiyasini davom etgirish vazifasi turibdi.

Umuman, bevosita soliklar bo'yicha soliq yukini izchil kamaytirish siyosatining samaradorligini YaIMga nisbatan ular tushumining barqaror kamayishi tendentsiyasi ham isbotlaydi. Agar 1999 yilda bevosita soliklar bo'yicha byudjet daromadlari YaIMga nisbatan 8,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilda ularning 6,8 foizgacha kamayishi kutilmokda.

Soliq tizimini rivojlantirish va takomillashtirishda ustuvor ahamiyat bilvosita soliqqa tortishga karatilgan. Buning sababi shundaki, bilvosita soliklar tovarlar, ishlar va xizmatlarga nisbatan qo'shimcha tusga ega bo'lgani holda, pirovard natijada ishlab chiqaruvchining moliyaviy holatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi.

Bundan tashqari, bevosita soliklar bo'yicha soliq yuklari kamaygan bir sharoitda byudjetning daromad qismi barqarorligini ta'minlashda bilvosita soliqqa tortishning ahamiyati yanada ortadi. Raqamlarda ifodalanganda bu shuni anglatadiki, yaqin yillar davomida davlat byudjeta tarkibida bilvosita soliklar ulushining ortishi tendentsiyasi davom etadi. Xususan, 1999 yilda bu raqam 53,9 foizga teng bo'lgan holda 2002 yilda ushbu nisbat 54,6 foizni tashkil etdi (2004 yilda 59,2 foizga etishi kutilmoqda). YaIMga nisbatan barcha soliklar kamaygan bir paytda bilvosita soliqlar ulushi 13-14 foizni tashkil etmokda.

Bilvosita soliklar tarkibida aktsiz soliqlari muxim ahamiyatga ega bo'lib, byudjet daromadlarining deyarli uchdan bir qismini tashkil etadi. Shuni qayd etish lozimki, asosan kundalik extiyoj mollari toifasiga kirmaydigan mahsulotlarga aktsiz solig'iga tortiladi.

Eng avvalo, bu alkagol, tamaki va neft mahsulotlari, zargarlik va boshqa mollardir. Aktsizlar tizimi byudjetni to'ldirishga oid fiskal vazifalar bilan bir qatorda salomatlik uchun zararli bo'lgan mahsulotlar va tovarlar istemolini kamaytirishga xizmat ko'rsatadi.

3. Prognoz davri uchun umumiy tushumlarni aniqlash.

To'langan soliq va majburiy to'lovlarni hisobi shaxsiy hisob varaqlarida to'lov hujjatlarini olingan kunining ikkinchi kunini ertasidan kechiktirmasdan aks ettirilishi lozim. To'lov hujjatlarini byudjetga tushgan summalarini shaxsiy hisob varaqlari va kitoblari hisobi yoziladi va barcha to'lov hujjatlarida o'tkazilgan tekshirish va yozuv qayd qilingan sana, shuningdek, ushbu yozuvlarni aks ettirgan shaxsning imzosi qo'yiladi. Yuqori soliq idoralari tomonidan nazorat qilinadigan korxonalar bo'yicha soliqlarni hisobga olish haqidagi hujjatlar tuman soliq inspeksiylari tomonidan ular olingan kun ertasidan kechiktirmasdan shaxsiy hisob varaqlaria aks ettiriladi va

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining yo'riqnomasiga asosan yuqori soliq idorasiga belgilangan tartibda jo'natiladi. Byudjetga qo'shimcha hisoblanadigan, qaytarib yuboriladigan to'lovlarning hisobini yuritish tartibi amaldagi o'z vaqtida to'lanadigan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni undirish to'g'risidagi nizomga asosan olib boriladi.

Byudjetga hisobga olinadigan va qaytarib yuboriladigan summolari shaxsiy hisob varaqlarida moliya organini ortiqcha to'langan summalarini qaytarish to'g'risidagi qarori nusxasi va bank muassasida shaxsiy hisob raqamlaridan ko'chirmalarga asosan amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslardan kelib tushgan ortiqcha to'lovlar summolari ularni yozma arizasiga asosan kelgusi to'lovlar hisobiga yoki qaytarib beriladi.

Soliq va yig'implarni to'lash yuridik shaxslardan pulsiz, jismoniy shaxslar tomonidan esa, naqd pul bilan va pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Soliq to'lovchi soliqlar va yig'implarni ortiqcha to'lagan taqdirda soliq to'lovchining yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida qaytarib beriladi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Soliqlar va yig'im byudjetga quyidagi tartibda o'tkaziladi: asosiy summa; hisoblab chiqilgan penya, jarimalar.

Soliq ishini yuritish masalalariga to'liq amal qilgan holda va uni bajarish sharti bilan prognoz bo'limi tashkil qilishadi va unga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

Har bir soliq inspeksiyasida soliq to'lovchilarni hisoboti olib boriladi va hisoblangan va byudjetga o'tkazilgan soliq va to'lovlarni, moliyaviy jarimalarni va ko'rilgan tadbirlarni hisobini olib boradi. Shuningdek operativ- buxgalteriya hisobotini, prognoz hisoblarni 1-N formasi, 2-N hisobotlarini, har oyning birinchi chislosida bank orqali tushumlarni tekshirib tahlil qiladi va hamma soliq bo'yicha maxsus kitoblarda yoki kompyuterlarda soliq to'lovchilarni hisobotini yuritadi va hisoblab boradi. Soliq va yig'implarni belgilangan muddatlarda to'lay olmaganlarning mol-mulkini sud qarori bilan undiriladi.

Agar soliqlar va yig'implarning biron turi bo'yicha ortiqcha to'langan summalar boshqa tur bo'yicha boqimandaning o'rnini qoplash, soliq to'lovchi soliqlar va yig'implarni to'lamaganlik yoxud to'liq to'lamaganlik uchun javobgarliklardan ozod qilinadi.

- Soliq to'lovchi soliq organlari xujjatlari (hisob varaqalari) asosida tekshiruv o'tkazguncha mustaqil ravishda o'z xatolarini tan olsa, u javobgarliklardan ozod qilinadi lekin penya to'lashi lozim bo'ladi.

Yuqoridagi soliq turlari bo'yicha soliq tushumlari hisobot davridagi prognozi, yil boshidan boshlab xaqiqatdan tushgan tushum, xisobot davrida undirilishi lozim bo'lgan soliq tushumlari va hisobot davrida prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishi taxlil qilinadi. Shuningdek joriy chorak uchun prognoz davri, joriy oy uchun prognoz ko'rsatkichlari alohida-alohida tahlil qilinadi.

Taxlil va prognozlash ishlarini tuman, shahar, viloyat va soliq qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqorida bayon etilganlardan tashqari daromad (foyda) solig'ini prognozlashda yangi tashkil etilayotgan korxonalar, qo'shma korxonalar, chet el investorlari uchun beriladigan imtiyozlar ham inobatga olinadi.

Daromad(foyda) solig'ini prognoz qilishda xar bir korxonalar va xududlar bo'yicha moliyaviy va xo'jalik xisobot ko'rsatkichlarini taxlil qilish va xulosalar chiqarish, prognoz xisobotlariga ta'sir etuvchi hamma iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy faktorlarni aniqlab Davlat soliq inspeksiyalari tumanda joylashgan hamma korxonalar bo'yicha foyda solig'ini prognozlaydi.

